

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK
UNIVERSITETI**

“IQTISODIYOT VA MENEJMENT” KAFEDRASI

IQTISODIYOT NAZARIYASI

fanidan

**MASHQ VA MASALALAR TO'PLAMI
O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2024

UDK:547.515.52.235(2.3.4)32

K-32

KBK:1*65.9(5Y36)32

K-32

Tuzuvchi:

Kambarova Sh.M. - “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasи katta o‘qituvchisi i.f.b.f.d., (PhD)

Taqrizchilar:

Sultonova L.Sh. Mirzo Ulug’bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti. “Makroiqtisodiyot” kafedrasи, i.f.n. dots.

Kamilova M.X. TDSHU “Tashqi iqtisodiy faoliyat” kafedrasи i.f.n., dots.

Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanma Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti 2024 yil 30-avgustdagi 251-UM sonli buyrug’iga asosan nashrga tavsiya etilgan (bayonнома 1-сонли, 2024 yil 30-avgust)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

ISBN 978-9910-7431-5-3

© “Fan ziyosi” nashriyoti

KIRISH

Mamlakatimiz taraqqiyotining so‘nggi yillarida iqtisodiy o‘zgarishlar, tarkibiy tuzilmalar, keng ko‘lamli isloxitlar, modernizatsiya va diversifikatsiya natijasida tashkil etilgan yangidan yangi zamonaviy tarmoqlar, turli xil infratuzilmalar, yo‘llar, transport vositalari ishga tushurilmoqda.

Shu bilan birga xalqimizning fidokorona mehnati va tinimsiz izlanishlari natijasida ishlab chiqarish xajmining ortishi, korxonalarda mehnat unumdorligini kengayishi, samaradorlikni oshirishda mahsulot sifatining ortishi, axoli daromadlari va turmush darajasini o‘sishi, ijtimoiy va iqtisodiy faollikni ortishi mamlakatimiz kelajagi uchun katta ahamiyatga ega.

Jahon iqtisodiyoti tendentsiyalarini o‘rgangan xolda, ushbu yo‘nalishda bosib o‘tilgan yo‘llarni hisobga olib, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi va uni milliy iqtisodiyotimizni rivojlantirishga yo‘naltirildi. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 farmoni “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlashda 2026 yilga kelib maxalliy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Shuni xisobga olish lozimki, ushbu masalalarni xal qilishda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning qarorlari va farmonlari, Oliy Majlisga murojaatnomalari, so‘zlagan nutqlaridan xammamizga ma’lum bo‘ldiki, mamlakatimizning rivojlanishi, samarali faoliyat ko‘rsatishida erishgan yutuqlarimiz bilan bir qatorda xal qilinishi kerak bo‘lgan vaziyatli masalalar va murakkab muammolar mavjud ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Xozirgi kunda mamlakatimizda va jahonda yuz berayotgan vaziyatning tez o‘zgaruvchanligi, investitsiya faoliyatining keskin tushib ketishi, eksport xajmining pasayishi va import xajmining tez o‘sib ketishi, ishsizlik darjasini yuqoriligi, ayrim korxona va tarmoqlarda kapital mablag’lari yuqori darajada sarflanib mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish xajmi o‘zgarmaganligi, yuqori darajada texnika va yangi

texnologiyadan foydalanilgan bo‘lsa xam, ishlab chiqarish xarajatlari va tannarxi pasayish o‘rniga ortib borayotganligi xozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ushbu vaziyatli masala va muammolarni xal qilishda mamlakatimizda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, modernizatsiya, xususiy tadbirkorlikni kengaytirish, iqtisodiyot oldida g‘ov bo‘lib turgan turli xil to‘siqlarni bartaraf etish talab etiladi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmaning maqsadi - talabalarda iqtisodiyot nazariyasi tushunchalari va tamoyillari, milliy iqtisodiyot va bozor iqtisodiyoti, uning shakllanish va rivojlanish tendensiyalari xamda qonuniyatları bo‘yicha bilimlarni singdirish, talabalar bilim va ko‘nikmalarini oshirishdan iborat.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmani tayyorlashda ma’ruza mashg‘ulotlari mavzularidan foydalanilgan xolda asosiy tayanch tushunchalar keltirilgan. Shu bilan birga ma’ruza materiallarini o‘zlashtirish va chuqur taxlil qilish asosida nazariy materiallarga tayangan xolda amaliy va ilmiy faoliyatni mustaqil tashkil qilish, O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar strategiyasini ustuvor yo‘nalishlari, milliy iqtisodiyotning tub muammolari va amal qilishi, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini takomillashtirish bilan bog‘liq ilmiy va amaliy faoliyatni mustaqil tashkil qilish malakalariga ega bo‘lish nazarda tutiladi.

O‘quv-uslubiy qo‘llanmada xar bir mavzu uchun misol va masalalar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda nazariy qismidan so‘ng talabalar uchun bir qancha masalalarning namunaviy echimlari va keyslar keltirilgan. Mavzularning so‘ngida talabalarining bilim va ko‘nikmalarini tekshirish maqsadida mavzularga oid test topshiriqlari va takrorlash uchun savollar keltirilgan. Test topshiriqlari va mustaqil ravishda tayyorlanadigan mavzular o‘quv-uslubiy qo‘llanmada mavjudligi talabalarni o‘z-o‘zini baxolashlari, malakalarini oshirishlari, bilimlarini mustaxkam egallashlari va kasbiy qiziqishlarini oshirish imkonini beradi.

“Iqtisodiyot nazariyasi fanidan mashq va masalalar to‘plami” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim,

fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o‘quv-qo‘llanmalarga qo‘yilgan talablarga to‘liq javob bergan xolda, 1 kurs talabalariga quyidagi yo‘nalishlarda: 60411800-Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik. 60411900- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, 61010100 –Turizm va mehmondo‘stlik ta’lim yo‘nalishlari uchun tayyorlangan xamda “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini o‘rganuvchi bakalavr bosqichidagi talabalar, ilmiy xodimlar uchun tavsiya qilinadi.

1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING

PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Iqtisodiy faoliyat - bu cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda, insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan yashash vositalarini ishlab chiqarish va iste'molchiga etkazishga qaratilgan o'zaro ta'sirda ishlaydigan turli xil faoliyat turlari majmui.

Iqtisodiyot – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jaliklardan, xo'jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo'shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, turli davlatlar o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlardan iborat o'ta murakkab tizim.

Ishlab chiqarish – kishilik jamiyatining mavjud ekanligi va rivojlanishi uchun kerak bo'lgan hayotiy ne'matlarni yaratish jarayoni.

Taqsimlash - ishlab chiqarish omillari va natijalarini iqtisodiyotning turli qismlari va sub'ektlari o'rtaсида taqsimlash jarayoni.

Ayirkoshlash – jamiyat a'zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo'yicha o'zaro almashish jarayoni.

Iste'mol – ehtiyojlarni qondirish maqsadida mahsulot va xizmatlardan foydalanish jarayoni.

Ehtiyoj - bu insonning va umuman, butun insoniyatning hayoti va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ehtiyoj, yashash vositalariga bo'lgan ehtiyoj.

Moddiy ehtiyoj – moddiy ko'rinishdagi ne'matlar vositasida qondiriluvchi zarurat.

Ma'naviy ehtiyoj – insonning shaxs sifatida kamol topishi, dunyoqarashi va ma'naviyatining shakllanishi uchun taqozo etiladigan nomoddiy ne'mat va xizmatlarga bo'lgan zarurat.

Ehtiyojlarning o'sib borishi qonuni – ehtiyojlarning turlari kengayib, miqdoran o'sib, sifat jihatidan takomillashib borishi.

Iqtisodiy resurslar – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish iste'mol jarayonlarida foydalanish mumkin bo'lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.

Iqtisodiyot nazariyasining predmeti - cheklangan iqtisodiy resurslar, qoidalar va qonunlar sharoitida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun hayotiy muhim tovarlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan, davlat iqtisodiyotini samarali boshqarish uchun iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi.

Iqtisodiy qonunlar - iqtisodiy hayotning turli jabhalari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtaсидagi doimiy, takrorlanuvchi, barqaror, sabab-natijaviy munosabatlar va o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy kategoriyalar - doimiy takrorlanib turuvchi iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning alohida tomonlarini ifodalovchi ilmiy-nazariy tushunchalardir.

Metodologiya - bu ilmiy bilimlarning printsiplari, usullari, qoidalari va muayyan ko'nikmalari tizimi.

Ilmiy abstraktsiya usuli - bu tahlilga xalaqit beradigan ikkilamchi hodisalarning diqqatini chalg'itish va fikrlarni o'rganilayotgan asosiy hodisaning mohiyatiga aylantirishdir.

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1-Masala

Iqtisodiyot nazariyasi fanining nisbatan eng to'liq va sodda qilib berilgan ta'rifi tanlang:

a) iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish va ayriboshlash jarayonida yuz beradigan munosabatlarni o'rganadi.

b) iqtisodiyot nazariyasi o'zgaruvchi miqdorlarni, ularning milliy iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi.

c) resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning yuksalib borishi sharoitida samarali xo'jalik yuritish qonunlari va iqtisodiy faoliyat muammolarini o'rganadi.

d) iqtisodiyot nazariyasi ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlarini o'rganadi.

2-Masala

Hind rivoyatlaridan birida Buddha va uning shogirdi o'rtasidagi suhbat shunday hikoya qilinadi:

Bir kuni Buddha xizmatkoridan so'rabdi, yo'lga qarachi, kim kelayapti ekan?

- Yosh va go'zal bir ayol, – debdi shogirdi.
- Aniqrog'i, – debdi Buddha.
- Yosh ayol.
- Aniqrog'i.
- Ayol.
- Aniqrog'i.
- Odam.
- Aniqrog'i.
- Skelet.

Diqqat qiling. Sizningcha, shogirdning qaysi javobida abstraksiya metodining bilish qadr-qimmati yo'qoldi? Nima sababdan?

3-Masala

Tilshunos olim, yozuvchi Lev Uspenskiy o'zining «So'z haqida so'z» kitobida Avstraliya aborigenlari tilida «Tepalikda daraxt o'sib turibdi. Uning shoxida qush o'tiribdi, deb aytilmaydi. Aborigen tilida albatta, «Tepalikda kauri o'sib turibdi. Uni shoxida kakadu o'tiribdi» yoki «Evkalipt o'sib turibdi, uning tagida emu yuribdi», deyiladi. Ya'ni albatta o'simlik va hayvonning nomi aytildi, deb yozadi.

Sizningcha, nima sababdan Avstraliyalik aborigenlar tilida «daraxt», «qush» va hokazo tushunchalari yo'q. U inson tafakkuri rivojining ma'lum bir bosqichi bilan bog'liq deb ayta olasizmi? O'zbek tilidan shunday misollar keltira olasizmi?

4-Masala

“Quyidagi tushunchalarni diqqat bilan o'qib chiqing. Ulardan qaysi biri guruhga taalluqli bo'limgan tushunchalar ekanligini aniqlang. Ularni

ro‘yxatdan chiqaring. Sababini izohlang.

Tushunchalar: Ilmiy abstraksiya, induksiya, deduksiya, tajriba o‘tkazish, tarixiylik, mantiqiylik, iqtisodiy-matematik modellashtirish”.

5-Masala

Taniqli klassik yozuvchi A. Qodiriyning o‘g‘li H. Qodiri «Otam haqida» kitobida A. Qodiri ko‘rsatgan quyidagi misolni keltiradi: «Qarg‘a o‘ladi. Qarg‘a qushlar turkumiga kiradi. Demak, qushlarning hammasi o‘ladi».

Aksincha, «Qushlar o‘ladi. Qarg‘a qushlar turkumiga kiradi. Demak, qarg‘a ham o‘ladi».¹

Atoqli yozuvchimiz yuqoridagi parchada shunday sodda misol bilan qaysi metodni tushuntirib bergan? Uni iqtisodiyotga qiyoslab tushuntirib bera olasizmi?

Topshiriqlar

1. Quyidagilarning qaysi biri iqtisodiyot nazariyasining predmetiga taaluqli emas va nima uchun?

1. Ehtiyojlarning maksimal darajada qondirilishi;
2. Cheksiz resurslar;
3. Cheksiz ehtiyojlar;
4. Resurslardan samarali foydalanish.

2. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotga taaluqli fikrlarni aniqlang.

- a) davlat narxlarni erkinlashtirish siyosatini amalga oshirmoqda.
- b) uzoq davr mobaynida yog‘ingarchilikning bo‘lmasligi O‘zbekistonning bir qancha hududida don ekinlari hosildorligini kamaytiradi.
- c) O‘zbekistonda minimal ish haqqi 11550 so‘mni tashkil etadi.
- d) byudjet kamomatning bartaraf etilishi infliyatsiya darajasini pasaytirish vositalaridan biridir.
- e) soliq stavkalarining pasaytirilishi mamlakatda ishlab chiqarish faolligining oshishiga olib keladi.
- f) talabaning stipendiya miqdori uning oilasining o‘rtacha daromadiga yoki o‘zining shaxsiy daromadiga bog‘liqdir.

¹ H. Qodiri. Otam haqida. T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1985, 50-bet.

g) milliy pul birligining konvertatsiyasini joriy qilinishi tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish elementlaridan biridir.

3. Quyidagi iqtisodiy oqimlarni, ular paydo bo‘lishini tarixiy ketma - ketlikda joylashtiring: keynschilik, fiziokratlar, marjinalizm, klassik oqim, neoklassik oqim, merkantelizm.

4. Quyidagi bog‘liqliklarni ko‘rib chiqing:

- a) daromad va ta’lim olish;
- b) past daromad va ko‘p bolalilik;
- c) ish haqqining o‘sishi va mamlakatda narx umumiy darajasining o‘sishi;
- d) bozorda tovar taklifining o‘zgarishi va shu tovar narxining o‘zgarishi. Bu yerda sabab nima va oqibat nima? Sabab va oqibatning o‘rni almashsa bo‘ladimi?²

3. Testlar

1. Iqtisodiyot nazariyasi qachon fan sifatida shakllana boshlagan?

- a) kishilik jamiyati vujudga kelgandan boshlab;
- b) XVII–XVIII asrlar orasida;
- c) XIX asrda;
- d) A.Smitning «Xalqlar boyligi...» kitobi chop etilishi bilan;
- e) o‘rta asrlarda.

2. Quyidagilardan qaysi biri iqtisodiy modelning mazmunini ifodalaydi?

- a) Iqtisodiy prognozlash;
- b) iqtisodiy tamoyillar majmuasi;
- c) iqtisodiy jarayon va hodisalarining obyektiv xususiyatlariga va tadqiqot maqsadi va xarakteriga ko‘ra abstrakt tarzda umumlashtirib ifodalangan reallikning konstruksiyasi, maketi, andozasi;
- d) iqtisodiyot va siyosatning ideal tipi bo‘lib, uni amalga oshirish uchun kerak;
- e) iqtisodiy bilish usullari.

3. Quyida ifodalangan iqtisodiy maqsadlardan qaysi birini aniq miqdor bilan o‘lchash mumkin?

² T.Jo‘raev, D.Tojibaeva Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar) –T.: “Fan va texnologiya” 2012. 333 b.

- a) iqtisodiy kafolat;
- b) iqtisodiy erkinlik;
- c) to‘la bandlik;
- d) daromadlarni adolatli taqsimlash;
- e) ijtimoiy himoya.

4. Pozitiv iqtisodiy nazariya:

- a) iqtisodiy hodisalarini qanday bo‘lsa, shundayligicha o‘rganadi;
- b) iqtisodiy hodisalar qanday bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi;
- c) iqtisodiy rivojlanishdagi ijobiy tendensiyalarni o‘rganadi;
- d) bildirilgan fikrlarni tahlil qiladi;
- e) iqtisodiy tahlillarni umumlashtiradi.

5. Agar iqtisodiy jihatdan umumlashtirish dalillar, raqamlarga asoslansa, u holda bunday tahlil usuli:

- a) bayon qilish;
- b) qiyosiy tahlil;
- c) tarixiy;
- d) deduktiv;
- e) induktiv hisoblanadi.

6. Agar iqtisodiyotda korxona, firma, uy xo‘jaligi, alohida olingan bozorlar muammosi tadqiq qilinsa, bunday tahlil:

- a) normativ;
- b) pozitiv;
- c) ilmiy abstraktiv;
- d) mikroiqtisodiy;
- e) makroiqtisodiy bo‘ladi.

7. Qur’oni Karimda aks etgan asosiy iqtisodiy g‘oya nimadan iborat?

- a) insonlar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanishi ta’kidlangan;
- b) “ehtiyoj” tushunchasi ta’riflangan va jamiyat hayotida moddiy ehtiyojlar ahamiyati ko‘rsatib berilgan;
- c) musulmonlar qardoshligi g‘oyasi ilgari surilgan, mulk muqaddasligi qayd qilingan, savdoga katta o‘rin berilgan va jamiyat tengsizligi azaldan deb tan olingan;
- d) moddiy boylik yaratishda mehnat va mehnat quollarining o‘rni belgilab berilgan;
- e) yuqoridaqilarning barchasi to‘g‘ri.

8. Iqtisodiyot nazariyasining qaysi oqimida savdo-sotiqlar asosan, tashqi savdo barcha boyliklarning manbai deb hisoblanadi?

- a) merkantilizm;
- b) fiziokratlar;
- c) klassik burjua iqtisodiy maktabi;
- d) marksistik nazariya;
- e) marjinalizmda.

9. Hozirgi zamonda iqtisodiyot nazariyasining qaysi oqimida iqtisodiy o'sishni ta'minlashning va tartibga solishning asosiy vositasi pul deb hisoblanadi?

- a) keynschilar;
- b) monetarizm;
- c) institutsionalizm;
- d) liberalizm;
- e) yangi iqtisodiy oqimlarda.

10. "Iqtisodiyot nazariyasi" fanining predmeti nimadan iborat?

- a) ijtimoiy munosabatlarni o'rganishdan;
- b) siyosiy munosabatlarni o'rganishdan;
- c) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo'jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidalarini o'rganishdan;
- d) huquqiy munosabatlarni o'rganishdan;
- e) tashkiliy munosabatlarni o'rganishdan.

2-MAVZU. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Keyslar
4. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Ishlab chiqarish omillari – ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar.

Ish kuchi - bu insonning aqliy va jismoniy mehnat qobiliyatlari yig'indisidir.

Mehnat qurollari – inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalar.

Mehnat predmetlari – bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.

Ishlab chiqarish jarayoni - bu insoniyat jamiyatining mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir.

Ijtimoiy takror ishlab chiqarish - ishlab chiqarish jarayonlarining jamiyat miqyosida doimiy yangilanishi va uzlucksiz amalga oshirilishi.

Oddiy takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarmagan holda takrorlanishi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish miqyoslarini doim oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.

Ishlab chiqarishning umumiy natijasi – mamlakat bo'yicha yaratilgan yalpi ichki mahsulotning yil davomidagi yig'indisi.

Ishlab chiqarishning pirovard natijasi – ishlab chiqarish sohasidagi o'z harakatini tugatgan, jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini yo bevosita (iste'mol fondi orqali), yoki bilvosita, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish (jamg'arish fondi) orqali qondirishga tayyor mahsulot.

Sof mahsulot - ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining tannarxi chegirib tashlanganidan keyin qolgan qismi.

Zaruriy mahsulot – ishchi va xizmatchilarining ish vaqtiga tarkibiga

kiruvchi, zaruriy ish vaqtini davomida zarur mehnat hisobidan yaratilgan, mehnat kuchini saqlash va normal takror ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan mahsulotdir.

Qo‘srimcha mahsulot – sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi, ya’ni qo‘srimcha ish vaqtida qo‘srimcha mehnat bilan yaratilgan mahsulot.

Qo‘srimcha mahsulot massasi – yil davomida olingan qo‘srimcha mahsulotlar yig‘indisi.

Qo‘srimcha mahsulot normasi – qo‘srimcha mahsulot massasining zaruriy mahsulotga nisbati.

Ishlab chiqarish funktsiyasi - ishlab chiqarish omillari va ularning natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikdir.

Natural ishlab chiqarish – ishlab chiqaruvchining o‘z ehtiyojlarini qondirish, xo‘jalik ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarish.

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1-Masala

“Zahro opasi va singlisi Adiba bilan kichik korxona ochdi. Zahro bir yilda 400 ta qizlar ko‘ylagi yoki 450 ta erkaklar ko‘ylagi tika oladi. Opasi esa 350 ta qizlar ko‘ylagi yoki 400 ta erkaklar ko‘ylagi tika oladi. Singlisi esa 300 ta qizlar ko‘ylagi yoki 350 ta erkaklar ko‘ylagi tika oladi.

Oilaviy kichik korxonaning ishlab chiqarish imkonini hisoblang va uni grafikda tasvirlang”.

2-Masala

“Uch opa-singil oilaviy kichik korxona tashkil qilishdi. Korxonada jun va aralash iplardan bolalar uchun paypoq, nimcha to‘qiladi. Opa-singillarning kattasi yil davomida 500 dona nimcha yoki 600 juft paypoq, ikkinchi singil esa 420 ta nimcha yoki 700 juft paypoq, uchinchi singil 300 ta nimcha yoki 600 juft paypoq to‘qiy oladi. Oilaning ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig‘ini chizing”.

3-Masala

“Aka, opa va singil hovliga qulupnay terish va o‘toq qilish uchun kelishdi. Uchastkada 6 soat ishlashlari mumkin. opa soatiga 1 chelak, aka ikki chelak, singil 0,5 chelak qulupnay teradi. Aka o‘toqni 2 soatda, singil

7 soatda, opa 6 soatda bajaradi. Oilada ishni qanday taqsimlash kerakki, o‘toq qilib bo‘lib, eng ko‘p miqdorda qulupnay terishsin”.

Topshiriqlar.

1. “**Markazlashgan rejali, an’anaviy va bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyatlar uchun umumiyligini bo‘lgan muammolar mavjudmi? Savolning bu tarzda qo‘yilishiga qo‘shilasizmi?**”

2. «**Nima ishlab chiqarish?**» degan savol resurslarning cheklanganligi sharoitida paydo bo‘lib, xususiy biznesga taaluqlidir.

a) «Qanday ishlab chiqarish kerak» degan savol ko‘p sonli mehnatga layoqatli aholisi bor jamiyat uchun taaluqli emas.

b) «Kim uchun ishlab chiqarish kerak?» degan savol markazlashgan rejali iqtisodiyot uchun aktual emas. Har bir punktga bergan javobingizni asoslang.

3. Ishlab chiqarish omillaridan maksimal foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi.

- a) aholi bandligining oshishiga;
- b) «texnologik» o‘sishga;
- c) ishlab chiqarilgan ne’matlarning ko‘payishiga. Ishlab chiqarish omillarini aytin va to‘g‘ri javobni bering.

4. Quyidagi faoliyat turlarini ko‘rib chiqing.

- a) avtomobil ishlab chiqarish;
- b) kitob yozish;
- c) filmni suratga tushirish;
- d) savdo bitimi tuzish;
- e) dissertatsiya himoya qilish.

Sizningcha, bu faoliyat turlari (yoki faqat moddiylari) natijalarining barchasi jamiyat boyligining elementlari bo‘la oladimi?

5. Insonlarning cheksiz ehtiyojlari resurslar kamyobligini belgilaydi. Siz bu ko‘rsatmaga qo‘shilasizmi? Javobingizni asoslang.

6. «**Vaqt – bu pul**» degan fikr Bendjamin Franklinga tegishlidir. O‘z sharxingizni bering.³

³ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasи katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

3. Keys

Respublikamizda avtomobil va traktor ishlab chiqariladi va u quyidagi jadvalda ifodalangan:

Avtomobil	5	4	3	2	1	0
Traktor	0	7	13	18	22	25

Muqobil (alternativ) xarajatlarni aniqlang.

- a) bitta qo'shimcha avtomobil ishlab chiqarish uchun;
- b) qo'shimcha bitta traktor ishlab chiqarish uchun.

Keys

"Mamlakatda ikki xil A va B turdag'i tovar ishlab chiqariladi deylik. Ularning imkoniyati chegarasi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rsatilgan.

<i>Mahsulot turlari</i>	A	B	V	G
A tovar (dona)	0	1	2	3
B tovar (dona)	12	10	6	0

- a) Jadval ma'lumotlari asosida ishlab chiqarish imkoniyati egri chizig'ini grafikda tasvirlang.
- b) A tovarning B tovarda ifodalangan muqobil qiymatini hisoblang.
- c) B tovarning A tovardagi muqobil qiymati: o'suvchi, pasayuvchi yoki doimiyimi? A tovarning B tovardagi muqobil qiymatini, ko'rsating.
- d) Agarda muqobil qiymat doimiy bo'lsa, imkoniyat egri chizig'i qanday shaklda bo'ladi? Jadval va grafikda tasvirlang".

4. Testlar

1. Iqtisodiyotning doimiy va bosh masalasini aniqlang:

- a) ehtiyojlarning to'xtovsiz o'sib borishi;
- b) iqtisodiy resurslar cheklanganligi;
- c) aholi farovonligining o'sib borishi;
- d) ehtiyojlarning cheksizligi va iqtisodiy resurslarning cheklanganligi;
- e) ishlab chiqarishning o'sib borishi.

2. Insonlarning iqtisodiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'molchilarga yetkazib berish va iste'mol qilishga qaratilgan, bir-

biriga bog‘liqlikda amalga oshiriladigan faoliyat qanday nomlanadi?

- a) ishlab chiqarish faoliyati;
- b) taqsimlash sohasidagi faoliyat;
- c) ayriboshlash sohasidagi faoliyat;
- d) iqtisodiy faoliyat;
- e) ijtimoiy sohadagi faoliyat.

3. Ishlab chiqarishning yangidan boshlanib va qaytadan to‘xtovsiz takrorlanib turishi nimani anglatadi?

- a) takror ishlab chiqarishni;
- b) ishlab chiqarishni;
- c) iqtisodiy o‘sishni;
- d) iqtisodiy rivojlanishni;
- e) iqtisodiy faoliyatni.

4. Ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmasdan, bir me'yorda takrorlanib turishi qanday takror ishlab chiqarishni bildiradi?

- a) qisqarib boruvchi;
- b) oddiy;
- c) kengaytirilgan;
- d) o‘sib boruvchi;
- e) taqchil.

5. Quydagilardan qaysi biri takror ishlab chiqarish bosqichlariga kirmaydi?

- a) iqtisodiy faoliyat;
- b) ishlab chiqarish;
- c) taqsimlash;
- d) ayriboshlash;
- e) iste'mol.

6. Ishlab chiqarish va ayriboshlashning bir me'yorda borishi hamda kishilar yashash va turmush kechirishining umumiy shart-sharoitini tashkil qiluvchi sohalar qanday nomlanadi?

- a) infratuzilma;
- b) ishlab chiqarish infratuzilmasi;
- c) ijtimoiy infratuzilma;
- d) bozor infratuzilmasi;
- e) iqtisodiy infratuzilma.

7. Quyidagilardan qaysi biri infratuzilma tarkibiga kirmaydi?

- a) ishlab chiqarish infratuzilmasi;

- b) ijtimoiy infratuzilma;
- c) bozor infratuzilmasi;
- d) qishloq infratuzilmasi;
- e) iqtisodiy tarkibiy tuzilmasi.

8. Iqtisodiyotning asosiy muammosini hal qilishning qaysi yo‘li aholi turmush farovonligi o‘sishini cheklashga olib keladi?

- a) iqtisodiy resurslar miqdorini ko‘paytirish;
- b) resurslar unumdorligini oshirish;
- c) resurslardan foydalanishning turli muqobil variantlaridan eng samaralisini tanglash;
- d) resurslarni samarali uyg‘unlashtirish;
- e) jamiyat ehtiyojlarini cheklash.

9. Asosiy ishlab chiqarish omillari:

- a) mehnat va kapital;
- b) kapital, tadbirkorlik;
- c) mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik, bilim;
- d) mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik;
- e) kapital.

10. Milliy mahsulotning takror ishlab chiqarish jarayoni qanday?

- a) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish;
- b) ishlab chiqarish va ayirboshlash;
- c) ishlab chiqarish va iste’mol qilish;
- d) ayirboshlash va iste’mol qilish;
- e) ishlab chiqarish.

3-MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI BOZOR IQTISODIYOTINING ASOSIDIR

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Topqirlik mashqi
4. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Tovar – biron-bir naflilikka va narxga ega bo‘lgan, ayirboshlash uchun yaratilgan mahsulot.

Tovar ishlab chiqarish – mahsulotlarni o‘z iste’moliga emas, balki bozorda sotish, ayirboshlashga va boshqalarning ehtiyojini qondirish maqsadida ishlab chiqarish.

Naflilik – tovarning kishilarni biron-bir narsaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish layoqati.

Ijtimoiy zaruriy naflilik – talab miqdoriga mos keladigan miqdordagi naflilik.

Qiymat – tovarda gavdalangan ijtimoiy-zaruriy mehnat.

Almashuv qiymati – bu bir turdag'i foydalanish qiymatlari boshqa turdag'i foydalanish qiymatlariga almashtiriladigan miqdoriy munosabatdir.

Ijtimoiy zaruriy ish vaqtি – bu ma’lum bir ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va ma’lum bir jamiyatda o‘rtacha malaka darajasi va mehnat zichligi bilan mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan vaqt.

Qiymat qonuni – tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash uning qiymati asosida amalga oshishini, qiymatning o‘zi esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari orqali o‘lchanishini ifodalovchi sabab-oqibat bog‘liqligi.

Aniq mehnat – ma’lum maqsadga qaratilgan, muayyan bir shaklda sarflanadigan va aniq turdag'i iste’mol qiymatlarni, naflilikni vujudga keltiradigan mehnat.

Abstrakt mehnat – turli tovarlarda gavdalangan mehnatning aniq shaklidan qat’iy nazar umuman inson mehnatining sarflanishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.

Mehnat unumdorligi – aniq mehnatning vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir. U ma’lum vaqt oralig‘ida

ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt bilan o‘lchanishi.

Mehnat intensivligi – vaqt birligi ichida mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligining oshib borishi.

Pul – hamma tovarlarni sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan umumiy ekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar.⁴

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) Tovar deb ma’lum bir naflilikka ega, ayirboshlash uchun yaratilgan ne’matga aytildi.
- b) Mahsulot ishlab chiqaruvchining o‘z ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan xo‘jalik yuritishning yopiq shakli.
- c) Tovar ishlab chiqarishga asoslangan, ishlab chiqarish va iste’mol bozor orqali bog‘lanadigan xo‘jalik yuritish shakli.
- d) Xaridorning o‘z ehtiyojini qondirish, ne’matni iste’mol qilishdan oladigan qoniqishi.
- e) Pul va naqd pulga aylantirish imkoniyati turlicha bo‘lgan naqd bo‘lмаган pul va kvazi pullar, qimmatli qog‘ozlar.
- f) Qo‘srimcha iste’mol qilingan mahsulotdan qo‘srimcha olinadigan naf.
- g) Pul massasini naqd pulga aylantirish imkoniyati.

1-Masala

“Quyidagi sanab o‘tilgan ne’matlardan qaysi birlari iqtisodiy, qaysi birlari noiqtisodiy ne’matlarga ajratiladi?

- a) siz nafas olayotgan havo;
- b) qishda yoqqan qor;
- c) restoran, barlar va boshqalarda ishlatilayotgan muz;
- d) qishda ariqlardagi muz;
- e) uyingiz yaqinidagi buloq suvi;
- f) chinni idishlar tayyorlashda ishlatiladigan tuproq;
- g) bog‘ingizda ekilgan daraxt”.

Javob bering va uni asoslang.

⁴ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

2-Masala

“Barcha iqtisodiy ne’matlarning nafliligi haqida qanday fikr yuritish mumkin? Masalan, narkotiklar, spirtli ichimliklar, parnografiya, nafaqat insonning jiismiga, balki ruhining sog‘lomligiga ham qattiq zarar yetkazadi! Siz mana shu fikrga qo‘shilasizmi? Iqtisodiyot nazariyasida naflilik deganda nimani tushunish kerak”?

3-Masala

“Sizda 1 mln. so‘m naqd pul bor. Do‘stingizda esa shuncha so‘mlik aksiyalar bor. Ikkinci do‘stingizda 1 mln. so‘mga baholangan dala hovli bor. Kimning mulki yuqori darajada likvidli? Doimo mulkni likvidli shakliga qarab saqlash ratsional hisoblanadimi”?

3. Topqirlilik mashqi

“Katakchalarga mos ravishda iqtisodiy tushunchalarning harfini joylashtiring.

1) ma’lum bir naflilikka ega, ayrboshlash uchun yaratilgan ne’mat;

2) raqobatlashuvchi tomonlar;

3) sotuvchi va xaridorning tovar, ish, xizmatlarni pul vositasida ayrboshlash munosabati, ya’ni oldi-sotdi aloqalari va ularni ma’lum bir tartib asosida amalga oshiriladigan joy.


4) yer va boshqa tabiiy resurslar keltiradigan daromad;

5) xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik va moliyaviy operatsiyalarining to‘g‘ri yuritilishi, ular qabul qilingan qonun va me’yoriy hujjatlarga mosligi, talabga javob berishini tekshirish va qonunda belgilangan boshqa xizmatlar ko‘rsatishni o‘rganadigan fan;

6) pul mablag’lari bilan ta’minkangan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi yoki to‘lov qobiliyatiga ega ehtiyoj;

7) savdo-sotiqlar ishlari, tovarlar narxi kotirovkasini aniqlash, narx oshkoraligni ta’minlashga xizmat qiluvchi tijorat muassasasi;

8) biror ish yuzasidan keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, oziq-ovqat va h.k;



9) ayirboshlash, olish-sotish bilan bog‘liq muomala, savdo-sotiqlan tushgan pul, oldi-sotdi jarayonida narx ustida tortishuv;

10) yer egasiga mahsulot shaklida to‘lanadigan renta;

11) biror narsa yoki kishi haqida boshqalarni ishontirib, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi, kafolat beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs;

12) biror narsaning cheklangan normasi, foydalanish uchun belgilangan muayyan miqdor”;

T/N

a) “Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi:

1) mehnat taqsimoti va uning chuqurlashuvi;

2) ishlab chiqaruvchilarni mulk egasi sifatida iqtisodiy alohidalashuvi sabab bo‘ladi.

b) Tovar ikki xossaga ega:

1) biror-bir ehtiyojni qondirish;

2) ayirboshlash.

c) Naflilikni yagona o‘lchov bilan o‘lchash mumkin.

d) Me’yoriy naflilikni pasayib borish qonuni universal qonun. U barcha ne’matlar uchun ham umumiy.

e) Xaridor o‘z pulini ratsional sarflash uchun shunday yo‘l tanlaydiki, natijada eng yuqori naf olishga erishadi”.⁵

4. Testlar

1. Klassik iqtisod vakillari tovar qiymati qanday mehnat sarflarini ifodalaydi deb ko‘rsatishgan?

a) individual;

b) zaruriy;

c) qo‘srimcha;

d) ijtimoiy-zaruriy;

e) ortiqcha.

⁵ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

2. Tovar (bozor) xo‘jaligining asosiy vujudga kelish shartlari:

- a) mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi;
- b) xususiy mulk asosida ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqaruvchilarning yakkalanishi;
- c) ortiqcha mahsulotlarning paydo bo‘lishi va ishlab chiqaruvchilarning xususiy mulk asosida yakkalanishi;
- d) resurslarning erkin almashinushi;
- e) to‘g’ri javob yo‘q.

3. Umumiy ayirboshlash vositasi bo‘lgan maxsus tovar:

- a) oltin;
- b) neft va oltin;
- c) pul;
- d) olmoslar;
- e) barcha javoblar to‘g’ri.

4. Pulning vazifasi:

- a) qiymat o‘lchovi;
- b) to‘lov vositalari;
- c) ayirboshlash vositasi;
- d) hammasi birgalikda olingan;
- e) b+c javoblar.

5. Har qanday bozorning asosiy elementlarini ayting:

- a) narx va narx signallari;
- b) talab va taklif, narx signallari;
- c) narx, talab va taklif va raqobat;
- d) narx signallari va raqobat;
- e) raqobat.

6. Bozor iqtisodiyoti quyidagilar bilan boshqariladi:

- a) iqtisodiy jarayonlarning stixiyali kuchlari;
- b) eng muvaffaqiyatli tadbirkorlar;
- c) tovar iste’molchilari va ishlab chiqaruvchilari;
- d) bozor iqtisodiyoti sub’ektlari faoliyatida namoyon bo‘ladigan iqtisodiy qonunlar;
- e) sotuvchilar.

7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va pul muomalasi bu yerda hal qiluvchi rol o‘ynashini ishonchli ko‘rsatib turibdi:

- a) iste’mol tovarlari bozorlari;
- b) omillar bozori;

- c) pul va qimmatli qog‘ozlar bozorlari;
- d) o‘zaro bog‘liq bozor segmentlari;
- e) jaxon bozori.

8 Naqd va naqd bo‘lmagan xarid va to‘lov vositalarining yig‘indisi sifatida pul massasi pul agregatlariga bo‘linadi:

- a) Mo (muomaladagi naqd pul), M1 – naqd pul va joriy hisobvaraqlardagi pullar;
- b) M2= M1+tijorat banklarining vaqt va omonat hisobvaraqlaridagi pullar;
- c) M3 = M2 + banklarning depozit sertifikatlari, davlat obligatsiyalari va davlat va tijorat banklarining boshqa qimmatli qog‘ozlari;
- d) Mo, M2, M3 va M4;
- e) M3 va M4.

9. Quyidagilar depozit sifatida qatnashishi mumkin:

- a) zargarlik buyumlari;
- b) tovarlar;
- c) pul va qimmatli qog‘ozlar;
- d) yuqoridagilarning barchasi;
- e) oltin.

10. YaIM 14000 mlrd dollar, muomalalar uchun pulga bo‘lgan talab hajmi 3500 mlrd dollar bo‘lsa, har bir dollar yiliga necha marta aylanadi?

- a) 2;
- b)3;
- c)4;
- d)5;
- e)aylanmaydi.

4-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Bozor iqtisodiyoti – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonunlari va qoidalari asosida tashkil etiladigan va tartibga solinadigan iqtisodiy tizimdir.

Bozor mexanizmi – bozor iqtisodiyotining amal qilishini tartibga solishni va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar.

Bozor – Bu pul orqali ayirboshlash jarayonida ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmuidir.

Bozor obyekti – bular xo‘jalik faoliyati natijalari va xo‘jalik resurslari, tovarlar, pul mablag‘lari va ayirboshlash munosabatlarida ishtirok etuvchi ularga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.

Bozor sub’ekti – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi.

Uy xo‘jaliklari – iqtisodiyotning asosan iste’mol sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi bozorga ishchi kuchi yetkazib beruvchi asosiy tarkibiy birlik.

Tadbirkorlik sektori – iqtisodiyotning turli sohalarida daromad (foyda) olish maqsadida faoliyat ko‘rsatuvchi birlamchi bo‘g‘ini.

Davlat sektori – maqsadi foyda olish emas, balki asosan iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasini amalga oshirish bo‘lgan byudjet tashkilotlari va muassasalari majmuasi.

Bank – iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.

Ssuda kapitali bozori – pul shaklidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berish bo‘yicha oldi-sotdi munosabati.

Qimmatli qog‘ozlar bozori – turli ko‘rinishdagи qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilar) ning oldi-sotdi munosabati.

Bozor infratuzilmasi – bu bozor aloqalarini o‘rnatish va tekshirish bir maromda amal qilishiga hizmat ko‘rsatuvchi tizimdir.

Birja – namunalar (yoki standartlar) asosida ommaviy tovarlar bilan muntazam savdoni amalga oshiruvchi savdo muassasasi.

Tovar birjasi – oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.

Fond birjasi – qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bo‘yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli.

Valyuta birjasi – milliy valyutalar kurslari bo‘yicha ularning erkin oldi- sotdisi amalga oshiriladigan, rasmiy jihatdan tashkil etilgan bozor shakli.

Mehnat birjasi – ishchilar va tadbirkorlar o‘rtasida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda vositachilik qiluvchi muassasa.

Broker (makler) – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.

Auksion – maxsus tovarlarni sotish uchun oldindan belgilangan joyda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan savdo muassasasi.

Savdo yarmarkasi – muayyan belgilangan vaqtda va joyda o‘tkaziluvchi hamda o‘tkazilish jarayonida ulgurji savdo bitimlari tuziluvchi tovar namunalari ko‘rgazmasi.

Savdo uyi – o‘z ichiga tashqi savdo kompaniyasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish, bank, sug‘urta, transport, ulgurji-chakana va boshqa turdag'i firmalarni oluvchi keng tarmoqli savdo kompaniyasi.

Supermarket – bu xaridorning o‘ziga-o‘zi xizmat ko‘rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi.⁶

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1-Masala

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) Davlatning mulk monopoliyasi, ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan markaziy rejallashtirilgan iqtisod.
- b) Har bir hodisa, jarayon, tizimning boshqalardan ajratib turuvchi, uning sifat jihatdan farqlanishiga sabab bo‘lgan xususiyatlarga aytildi

⁶ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

c) Turli-tuman mulkchilik va iqtisodiy faoliyat erkinligiga, aralash tarzda tartibga solishga asoslangan, har bir insonni o‘z faoliyat natijasini o‘ylab, oqilona xo‘jalik yuritishga undovchi demokratik iqtisodiyot.

d) Munosabatlar va aloqalar nimaga qaratilganligini, nimaga nisbatan yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyotining ob’ekti tovar va pul (pul massasi) dir.

e) Tovar ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan shakllana boshlagan, oddiy tovar ishlab chiqarish hukmron iqtisodiyot.

f) Yakka xususiy mulkchilik, erkin raqobatchilik, bozorga xos munosabatlar hukmron iqtisod. Uning dastlabki bosqichi bilan keyingi bosqichlari farqlanadi.

g) Munosabatlar, aloqalar kimlar o‘rtasida yuz berishini ifodalaydi. Bozor iqtisodiyoti sub’ektlari: uy xo‘jaligi, firma (korxona), davlat.

h) Bozor iqtisodiyotining boshqa sotsial-iqtisodiy tizimlardan farqlanishiga sabab bo‘luvchi xususiyatlari.⁷

2-Masala

“Ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotda barcha ishlar yuqorida beriladigan buyruq bilan amalga oshiriladi. Bu qanday oqibatlarga olib kelishini quyidagi masala yordamida ko‘rib chiqamiz.

Shaharda bo‘yi 64 m. va eni 64 m. avtomobil to‘xtash joyi bor. Mamlakatda 3 xil avtomobil bo‘lib, yengil avtomobil eni 2 m. va bo‘yi 4m. joy egallasin. O‘rtacha avtomobillar esa eni 3 m. va bo‘yi 6 m., katta avtomobillar eni 4 m. va bo‘yi 8 metrli joyni egallasin deylik. Mashinasini to‘xtash joyiga qo‘ymoqchi bo‘lgan uchala turdagи avtomobil shofyorlari juda ko‘p. Aytaylik:

a) avtomobil to‘xtash joyini eng qisqa muddat davomida to‘ldirish zarur degan buyruq olindi. U holda avtomobillar qanday tarzda joylashtirilgan bo‘lardi? Nima sababdan, izohlang;

b) avtomobil to‘xtash joyiga eng ko‘p mashina sig‘dirishiga ko‘ra musobaqa g‘olibiga mukofot beriladi degan buyruq olindi. Unday buyruq nimaga olib keladi, izohlang;

d) barcha avtomobil turlari teng miqdorda joylashtirilsin, degan buyruq olindi. U holda nechtadan avtomobil sig‘ishi mumkin, izohlang.

⁷ Z.T.Gaibnazarova, Sh.A. Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2020 yil. T.: 528 b.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu masala qanday hal etilgan bo‘lar edi”? Fikringizni bildiring.

3-Masala

“Korxonada kattalar paltosini tikish uchun moddiy xarajatlar 70 ming so‘mni tashkil qiladi. Agarda yoqasiga mo‘yna o‘rnatilsa, 140 ming so‘mga yetadi. Bolalar paltosi uchun esa 30 ming so‘m xarajat qilinadi. Mehnat sarfi bir xil bo‘lib, o‘rtacha 30 ming so‘mga to‘g‘ri keladi. Agar har bir paltodan olinadigan foyda xarajatlarga nisbatan 10% ni tashkil qilsa, korxona rejani tezda bajarish uchun qanday turidan palto va qancha tikkan bo‘lar edi. Korxona quvvati kuniga 50 ta paltoga teng. Ish kuni 24 kun va bir smenali deb hisoblang.

- 1) Agar mo‘yna yoqali, oddiy yoqali va bolalar paltolariga talab teng desak, talab bo‘yicha palto tikkanda korxona rejani necha foizga bajargan bo‘lar edi?
- 2) Qanday turdagи paltolarni tikish bilan korxona rejani bajarishi mumkin?
- a) U qanday oqibatga olib keladi? b) Bozor iqtisodiyotida bu masala qanday hal etiladi”?⁸

4-Masala

“Ishlatilgan kompyuterlar bozorida ikki guruh sotuvchilar mavjud. Bir guruh sotuvchilar kam ishlatilgan, hali ancha-muncha foydalansa bo‘ladigan, texnik jihatdan yaxshi kompyuterlar bilan savdo qilishadi. Sotuvchilar ularni 400 ming so‘mdan kamiga berishmaydi. Potensial xaridorlar esa 450 ming so‘mgacha to‘lashga tayyor”.

“Ikkinci guruh sotuvchilar o‘z resursini deyarli to‘la ishlatib bo‘lgan kompyuterlarni sotishadi. Ular 150 ming so‘mdan yuqori har qanday narxga sotishga tayyor. Iste’molchilar bunday kompyuterlarga 180 ming so‘mdan ortiq pul to‘lashmaydi. Axborot asimmetriyasi tufayli bozorda kompyuterlarni sotish bahosi qancha bo‘ladi? U qanday oqibatlarga olib keladi”?

⁸ H.Mamedov, N.Muminov, A.Umarov, A.Ismoilov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: 2022 yil. 441 b.

5-Masala

“Siz «Panasonic» firma magazinidan videomagnitofonni 500 ming so‘mga sotib olishingiz mumkin. Xuddi shunday magnitofon «Otchopar» bozoridagi audio-video texnika rastasidan 400 ming turadi. Boshqa sharoitlar teng. Bu farqning sababi nimada deb o‘ylaysiz”?

6-Masala

“Toshkent fond birjasida 1 oktyabrdan 1 donasi 1000 so‘m bo‘lgan 20.000 ta aktsiyani 31 oktyabrgacha sotish bo‘yicha bitim imzolanadi. Oktyabr oyida aktsiya kursi 1200 so‘mga chiqdi. Bu holatda kim va qancha miqdorda yutdi? (sotuvchimi yoki xaridormi?) Oktyabr oyida aktsiya kursi 900 so‘mgacha pasaysa nima bo‘ladi”?

T/N

1. “Ma’muriy buyruqbozlik tizimi sotsialistik doktrinaga asoslangan bo‘lib, uning o‘ziga tortadigan jihatni, kishilik jamiyati doimo diqqatini qaratgan 2 muammoni yechishni zimmasiga olishi bo‘lib, bu:

a) notinchlikni yo‘q qilish;

b) jamiyat va har bir kishining hayotini jamiyatning yuqori organlari tomonidan tartibga solish, iqtisodiyot va jamiyatning boshqa sohalarini ratsional va ilmiy boshqarish orqali insonning baxtli yashashini ta’minlash”.

2. “Ma’muriy buyruqbozlikka tayangan sotsializm «xalqparvarlik» g‘oyasini ilgari surishiga qaramay, inqirozga yuz tutdi. XX asr tarixida markaziy o‘rinni real sotsialistik jamiyatning vujudga kelishi, rivojlanishi, inqirozi egallaydi”.

3. “Ma’muriy buyruqbozlikka tayangan sotsializmning inqirozga uchrashiga sabab, uning xususiy mulkni, bozorni, raqobatni tan olish, jamiyatning demokratiyalashuvi prinsiplariga amal qilishi bo‘ldi”.

4. “Markazdan rejalshtirishga asoslangan sotsialistik tizim xo‘jalik yuritishda ma’muriy boshqarishga asoslanishi muvozanat buzilgani, hayot kechirish pastligi va fan - texnika taraqqiyotini qabul qilmasligi bilan ajralib turgan”.

5. “Bozor iqtisodiyoti hozirgi davrga qadar o‘z rivojlanishida qator bosqichlarni bosib o‘tdi”.

6. “Bozor (aralash) iqtisodiyot mukammal iqtisodiyot bo‘lgani uchun ham umuminsoniy iqtisodiyot deb ataladi”.

7. “Bozor iqtisodiyotida erkin iqtisodiy faoliyat yuritishning asosi mulkning turli-tumanligi va uning huquqiy jihatdan bir xilda muhofaza qilinishidir”.

8. “Bozor iqtisodiyotining zaif tomonlari davlat tomonidan ko‘rilgan chora-tadbirlar orqali yo‘qotiladi”.

9.“Iqtisodiyot nazariyasida odamlarning tavakkalchilik xatariga munosabatlarini hisobga olib, ularni uch guruhga: tavakkalchilikka neytral, tavakkalchilikka o‘ch, ishqiroz; tavakkalchilikni yoqtirmaydigan yoki unga qarshilarga ajratadi”.

10. “Odiljon uyining yonidagi magazindan 70 ming so‘mga kostyum - shim olmay, bozorga borib kelish uchun 1000 so‘m sarflab, xuddi shunday kostyum - shimni 68 ming so‘mga sotib oldi. U to‘g‘ri qildi. Bunda sanoq nuqtasi effekti hech qanday rol o‘ynamaydi”.

11. Bozorda «Nobop tanlov» ning yuz berishidan manfaatdor shaxslar axborotning assimetrik tarqalishiga harakat qilishadi.

12. “Bozor iqtisodiyotida olib-sotarlik va chayqovchilik bo‘lmaydi”.

3. Testlar

1. Davlat mulk monopoliyasi va majburiy rejlashtirishga asoslangan tizimning tekischilik g‘oyasi bilan qo‘shilib ketishi quyidagilarga olib kelgan:

- a) moddiy ne’matlarning adolatli taqsimoti;
- b) moddiy ne’matlarning noiqtisodiy taqsimoti;
- c) nomoddiy ne’matlarning adolatli taqsimoti;
- d) nomoddiy ne’matlarning iqtisodiy taqsimoti;
- e) jamiyatda adolat o‘rnatalishiga.

2. Bozor iqtisodiyotining sub’ekti:

- a) firma, korxona, uy xo‘jaligi, tovar;
- b) firma, korxona, uy xo‘jaligi, davlat, pul;
- c) firma, korxona, uy xo‘jaligi, moliyaviy institutlar;
- d) firma, korxona, davlat, moliyaviy institutlar;
- e) firma, korxona, uy xo‘jaligi, davlat, moliyaviy institutlar.

3. Bozor iqtisodiyoti quyidagilar bilan boshqariladi:

- a) iqtisodiy jarayonlarning stixiyali kuchlari;
- b) eng muvaffaqiyatli tadbirkorlar;
- c) tovar iste’molchilari va ishlab chiqaruvchilari;

- d) bozor iqtisodiyoti sub'ektlari faoliyatida namoyon bo'ladigan iqtisodiy qonunlar;
- e) ishlab chiqaruvchilar.

4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va pul muomalasi bu yerda hal qiluvchi rol o'ynashini ishonchli ko'rsatib turibdi:

- a) iste'mol tovarlari bozorlari;
- b) omillar bozori;
- c) pul va qimmatli qog'ozlar bozorlari;
- d) o'zaro bog'liq bozor segmentlari;
- e) qimmatli qog'ozlar bozori.

5. Qimmatli qog'ozlar bozori nima?

- a) fond bozori - qimmatli qog'ozlar bozoridir;
- b) qimmatli qog'ozlar bozori - bu qimmatli qog'ozlar yordamida kredit munosabatlari va birgalikda egalik munosabatlarida vositachilik qiluvchi bozor;
- c) fond bozori - bu iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish uchun erkin moliyaviy resurslar qidiriladigan birja;
- d) yuqoridagilarning barchasi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

6. Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklarning roli:

- a) aholi pul daromadlari va jamg'armalarining katta qismi kapitalga aylanadi;
- b) milliy iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida kapitalni qayta taqsimlashni va foyda normasini tenglashtirishni amalga oshiradi;
- c) tadbirkorlik va iqtisodiy o'sishga ko'maklashish;
- d) ikki tomonlama iqtisodiy manfaatlarini birlashtiruvchi moliyaviy tashkilot;
- e) a+d.

7. Agar ko'proq pul chop etish paytida ish haqi oshirilsa:

- a) davlat xizmatchilari soni ortadi;
- b) bozor narxlarni oshirish bilan javob beradi;
- c) vaziyat o'zgarmaydi;
- d) hammasi birgalikda olingan;
- e) aholi daromadlari ortadi.

8. Iqtisodiyotga davlat aralashuvi zarurati quyidagilar bilan bog'liq:

- a) bozor iqtisodiyotga xaos olib keladi;
- b) jamiyat buni talab qiladi;
- c) bozor jamiyatning barcha muammolarini hal qilishga qodir emas;
- d) buni zamonaviy ishlab chiqarish darajasi talab qiladi;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning quyidagi funksiyalaridan qaysi biri asosiy hisoblanadi?

- a) nazorat qilish;
- b) bozor tizimining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta’minalash;
- c) daromad va boylikni qayta taqsimlash;
- d) resurslarni qayta taqsimlash;
- e) aholi daromadlarini oshirish.

10. Davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta’sir qilishning iqtisodiy vositalardan foydalanishni nazarda tutadi:

- a) fiskal siyosat;
- b) pul-kredit siyosati;
- c) davlat iqtisodiy dasturlash va prognozlash;
- d) yuqoridagilarning barchasi;
- e) prognozlash.

5-MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Talab – pul bilan ta'minlangan, to'lovga qodir ehtiyoj; ma'lum vaqt oralig'ida, narxlarning mavjud darajasida iste'molchilarning tovar va xizmatlar ma'lum turlarini sotib olishga qodir bo'lgan ehtiyoji.

Yakka talab – har bir alohida iste'molchi (masalan, shaxs, oila, korxona, firma)larning tovarni shu turiga bo'lgan talabi.

Bozor talabi – bir qancha (ko'pchilik) iste'molchilarning shu turdag'i tovar yoki xizmatga bo'lgan talablari yig'indisi.

Talab qonuni – tovar narxi va sotib olinadigan tovar miqdori o'zgarishi o'rtasida bo'ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog'liqlik.

Talab egri chizig'i – narx va talab hajmining o'zgarishi o'rtasidagi teskari bog'liqlikni ko'rsatuvchi egri chiziq.

Oliy toifali tovarlar – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori to'g'ri bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

Past toifali tovarlar – daromadning o'zgarishi bilan talab miqdori teskari bog'liqlikda o'zgaradigan tovarlar.

Engel qonuni – iste'molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik.

Taklif – ma'lum vaqt oralig'idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma'lum turdag'i tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori.

Taklif qonuni – narxning o'zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to'g'ri bog'liqlikdagi o'zgarishi.

Bozor muvozanati – talab miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo'lgan holat.

Bozor narxi – bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx.

Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi ko'rsatkichi – talab hajmiga ta'sir qiluvchi boshqa omillar o'zgarmay qolgan sharoitda

narxning bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Talabning daromad bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi – iste’molchi daromadining bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.

Iste’molchining afzal ko‘rishi – iste’molchi tomonidan o‘zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi.

So‘nggi qo‘shilgan naflilik – muayyan ne’matning navbatdagi birligini iste’mol qilishdan olingan qo‘shimcha naflilik.⁹

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) “Narxning o‘zgarishi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) larga qanday ta’sir qilishi, ya’ni ularning reaksiyasini ifodalovchi ko‘rsatkich”.
- b) “Pul mablag‘lari bilan ta’minlangan ehtiyojning bozorda namoyon bo‘lishi”.
- c) “Tovar narxlari bilan talab miqdorini teskari nisbatda sabab oqibatli funksjional bog‘lanishi”.
- d) “Ma’lum bir vaqt mobaynida turli narxlar bo‘yicha xaridorlarning sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorining grafik orqali ifodalanishi”.
- e) “Xaridorga narxning o‘zgarishi qanday ta’sir qilishini, ya’ni narxning 1% ga o‘zgarishi sotib olinadigan tovar miqdorini qanchaga o‘zgarishini ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkich”.
- f) “Iste’molchining tovar yoki xizmatning qo‘shimcha birligidan ko‘rgan nafi, ya’ni umumiyl nafga qo‘shilgan nafni bildiradi”.
- g) “Ma’lum bir vaqt mobaynida turlicha narxlar bo‘yicha sotuvchilarning sotishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdorini grafikda ifodalanishi”.
- h) “Bozorda mavjud yoki bozorga olib kelinishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar”.
- i) “Narxlar bilan sotiladigan tovarlar miqdorining to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab-oqibatli, funksional bog‘lanishi”.

⁹ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

- j) “Talab va taklifni miqdor hamda tarkibi jihatidan bir-biriga muvofiq kelishi”.
- k) “Tovarlar juftligida biriga narxining o‘sishi ikkinchisiga talabning kamayishiga olib keladigan tovarlar”.
- l) “Talab miqdori (hajmi)ning o‘zgarishi, talab egri chizig‘i bo‘yicha narxning o‘zgarishiga qarab siljishi”.
- m) Talab egri chizig‘ining narxdan boshqa bir yoki bir necha aniqlovchilari o‘zgarishi natijasida siljishi.
- n) Xaridor sotib olmoqchi bo‘lgan tovar miqdori bilan sotiladigan tovar miqdorining tengligi.¹⁰

T/N

1. “Bozor iqtisodiyotida kimning puli ko‘p bo‘lsa, u shuncha ko‘p tovar sotib olishi mumkin”.
2. “Tovar ishlab chiqarish hajmi va usuli ishlab chiqarish resurslarining narxiga bog‘liq”.
3. “Mukammal raqobatga asoslangan iqtisodiyotda alohida tovar ishlab chiqaruvchi mahsulot miqdorini kamaytirish orqali narxga ta’sir etadi”.
4. “Bozor iqtisodiyotida qanday tovar ishlab chiqarish zarurligini oxir-oqibat iste’molchilar hal qilishadi”.
5. “Avtomashinalarga benzin quyish shoxobchasi – bozorga misol bo‘la oladi”.
6. “Talab egri chizig‘i narxning pasayishi tufayli, talab hajmining o‘sishini ko‘rsatadi”.
7. “Kishilarning daromadlarini ortishi barcha tovarlarga talabni oshiradi”.
8. “Resurslar narxining har qanday o‘zgarishi talab va taklif muvozanatini taklif egri chizig‘i bo‘yicha yuqori yoki pastga tomon o‘zgartiradi”.
9. “Bir vaqtning o‘zida tovar taklifi va iste’molga ajratilgan daromadning o‘sishi natijasida narxlar o‘zgarmasligi mumkin”.

¹⁰ Ш.Ш.Шодмонов, М.М.Мухаммедов, Н.А.Камилова. Экономическая теория. Учебник для вузов. Ташкент - 2020. 421 стр.

10. “Taklif egri chizig‘ining o‘ngga siljishi ishlab chiqaruvchilarning har bir narx darajasida avvalgiga qaraganda kamroq tovar taklif qilinayotganini ko‘rsatadi”.¹¹

1-Masala

“Olimjon Neksiya avtomobilini o‘tgan yili bozorda 5000000 so‘mga sotmagan edi. Bu yil esa 5600000 so‘m narx belgilandi. U mashinasini sotdi. Agar o‘tgan yilga nisbatan narx 20 % ga oshgan bo‘lsa, Olimjon mashinasini sotib to‘g‘ri qildimi?”

2-Masala

“Hafta davomida 60 ming so‘mdan 100 dona kostyum - shim sotildi. Ikkinci haftada esa kostyum-shim narxi 5 ming so‘mga pasaytirildi. Sotilgan kostyum-shim miqdori 150 donaga yetdi. Uchinchi haftada esa 109 ta sotildi. To‘rtinchchi haftaga o‘tgacha, atigi 50 dona sotildi. Talab elastikligini hisoblang. Elastiklik ko‘rsatkichidan kelib chiqib ishlab chiqarishga qanday topshiriq ketadi, izohlang”.

3-Masala

“Erkinjon Toshkent Davlat madaniyat institutida talaba. Kundalik mayda-chuyda xarajatlari uchun kollejda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni uyushtirishda tashkilotchi bo‘lib ishlaydi. Bajaradigan ishlaridan biri badiiy filmlar namoyish etishni tashkil etish. Asosiy ishlaridan biri kinofilm ko‘rish uchun biletlarga narx belgilash. Kino ko‘rsatuvlari zalida 700 o‘rin, film prokati uchun to‘lanadigan haq 180000 so‘m, zalni ijara olish haqi 25000 so‘m, operatorga 15000 so‘m, bilet tekshiruvchi kontrolyorlarga (ikki kishi) 5000 so‘m. Bilet narxiga ko‘ra talab quyidagicha:

¹¹ T.Jo‘raev, D.Tojibaeva Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar) –T.: “Fan va texnologiya” 2012. 333 b.

Narx, so‘m.	Talab, dona bilet.
7000	3000
6000	4000
5000	5000
4000	6000
3000	7000

Umumiylar xarajatlar, tushum, qoladigan daromad va me’yoriy tushumni aniqlang”. Undan qanday xulosa chiqarish mumkin, izohlang.

4-Masala

“Quyidagi jadvalda narxning o‘zgarishiga ko‘ra taklif hajmining o‘zgarishi berilgan. Ma’lumotlar asosida taklif elastikligi koeffitsiyentini aniqlang. Jadvalni to‘ldiring. Elastiklik koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz? Uni hisoblashning qanday ahamiyati bor? Elastiklik koeffitsiyentining birga teng bo‘lishi, birdan katta yoki kichik bo‘lishi nimani bildiradi”? Fikringizni izohlab bering.

Tovar turlari	Narx, so‘m	Taklif hajmi, dona	Narxga ko‘ra taklif elastikligi koeffitsiyenti	Elastikligi
A	120	240		
B	440	6100		
V	8100	1250		

5-Masala

“Aytaylik iste’molchining budjeti 10 ming so‘m. U bozordan go‘sht xarid qilmoqchi. Qo‘y go‘shtining kilosi 2500 so‘m, mol go‘shti esa 2000 so‘m. Agarda puli 1500 so‘mga ko‘paysa yoki aksincha 5000 so‘mga kamaysa, xaridor o‘z pulini go‘sht olish uchun qanday sarflashi mumkin”? Uni mumkin bo‘lgan variantlarini ko‘rsating, grafikda tasvirlangan javobingizni izohlang.

6-Masala

“Tarvuzga bo‘lgan talab 100 dona bo‘lganda har bir tarvuz narxi 21 so‘mni tashkil qiladi. 160 dona bo‘lganda bir dona tarvuz 19 so‘m bo‘lsin”. Yoysimon elastiklik koeffitsientini hisoblaymiz.

7-Masala

“Kalishga bo‘lgan talab 150 dona bo‘lganda, har bir juft kalish narxi 40 so‘mni tashkil qilsin, talab 250 dona bo‘lganda bir juft kalish narxi 37 so‘m bo‘lsin”. Yoysimon elastik koeffitsientini hisoblang.

8-Masala

“Talabning chiziqli funktsiyasi: $QD = 24 - 2 \cdot R$ ko‘rinishga ega. Talab miqdori. $QD=14$ bo‘lganda talab elastikligi koeffitsenti nechtaga tengligini aniqlang”.

9-Masala


“Taklif chiziqli funktsiyasi berilgan bo‘lsin. $Q3 = -20 + 4R$ $R = 120$ bo‘lganda, taklifning narxga bog‘liq elastikligi koeffitsientini aniqlang”¹².

3. Topqirlik mashqi.

“Katakchalarga mos ravishda soat strelkasi bo‘yicha iqtisodiy tushunchalarning harfini joylashtiring.

1. Olingan daromadning qilingan xarajatlardan oshgan qismi.
2. Biror ish yuzasidan keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, oziq-ovqat va h.k.
3. Tovarlar va xizmatlarning naflilagini baholash vositasi bo‘lib, ularga to‘lanadigan pul miqdorini ifodalovchi tushuncha”.

¹² “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan Ishchi daftar: noiqtisodiy yo‘nalishlari uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: 2017. 275 b.



4. Sarflangan xarajatlarning olingan daromadlardan oshgan qismi.
5. Sotuvchi va xaridorning tovar, ish, xizmatlarni pul vositasida ayrboshlash munosabati, ya’ni oldi-sotdi aloqalari va ularni ma’lum bir tartib asosida amalga oshiriladigan joy.
6. Tadbirkorlik qobiliyatini ishga solish, faoliyatga aylantirishning tashkiliy shakli (yakka xususiy tadbirkorlik, kichik, o’rta, yirik).
7. Yer va boshqa tabiiy resurslar keltiradigan daromadning va yerdan foydalanganlik uchun uning egasiga to‘lanadigan haqning nomi.
8. Ayrboshlash, olish-sotish bilan bog‘liq muomala, savdo-sotiqlidan tushgan pul, oldi-sotdi jarayonida narx ustida tortishuv.
9. Bir kontragentning ikkinchisiga yuborgan o‘zaro hisob-kitoblarning holati va o‘zlari haqidagi xabar, axborot.
10. Qaytarish sharti bilan ma’lum bir muddat ishlatib turish uchun olingan puldan foydalanganlik uchun to‘lanadigan haq.
11. Insonning biror-bir ehtiyojini qondirib, ayrboshlash (sotish) uchun ishlab chiqarilgan ne’mat.
12. Ma’lum doirada ulgurji savdo-sotiq ishlarini o‘tkazuvchi va narxlar kotirovkasini aniqlash, narx oshkorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi tijorat muassasasi.
13. Hissadorlik (aksionerlik) jamiyati sarmoyasiga qo‘yilgan ulushga guvohlik qiluvchi, uning egasi ulushiga muvofiq foydaning ma’lum bir qismini olish va shu jamiyatni boshqarishda qatnashish huquqini beradigan qimmatbaho qog‘oz.

14. Bozorda mavjud yoki olib kelinishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar.¹³

4. Testlar

1. Har qanday bozorning asosiy elementlarini ayting:

- a) narx va narx signallari;
- b) talab va taklif, narx signallari;
- c) narx, talab va taklif va raqobat;
- d) narx signallari va raqobat;
- e) raqobat.

2. Agar talab kamayib, taklif ortib ketsa, u holda:

- a) muvozanat miqdori kamayadi;
- b) muvozanat bahosi pasayadi;
- c) a) va b) to‘g‘ri.
- d) barcha javoblar noto‘g‘ri;
- e) muvozanat narx o‘zgaradi.

3. Boshqa narsalar teng bo‘lsa, taklifning ko‘payishi quyidagilarga olib keladi:

- a) muvozanatli narx va miqdorning oshishiga;
- b) muvozanat bahosi va muvozanat hajmining pasayishiga;
- c) narxning oshishiga va miqdorning kamayishiga;
- d) narxning pasayishi va jismoniy sotish hajmining oshishi;
- e) narxning oshishiga.

4. Talab elastik hisoblanadi, agar:

- a) narx oshishi bilan daromad ortadi;
- b) narx oshishi bilan daromad kamayadi;
- c) narx o‘zgarganda iste’molchilarining xulq-atvori deyarli o‘zgarmaydi;
- d) narx o‘zgarganda ishlab chiqaruvchilarining xatti-harakati o‘zgarmaydi;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

5. Talab qonunining mohiyati?

- a) talab - tovarlar narxiga ta’sir qiladi;
- b) talab - taklif miqdoriga ta’sir qiladi;

¹³ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasи katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

c) har qanday bozorda istalgan vaqtida, boshqa narsalar teng bo‘lganda, mahsulot narxi va unga bo‘lgan talab miqdori o‘rtasida salbiy bog‘liqlik mavjud;

- d) talab va taklif miqdori o‘zaro bog‘liqdir;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

6. Taklif qonunining mohiyati?

a) taklif - talab miqdoriga ta’sir qiladi;
b) taklif - mahsulot narxiga ta’sir qiladi;
c) talab va taklif miqdori o‘zaro bog‘liq;
d) har qanday bozorda istalgan vaqtida, boshqa narsalar teng bo‘lganda, mahsulot narxi va taklif miqdori o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud;
e) taklif – narx oshganda pasayadi.

7. Iqtisodiyotda pul taklifi (pul massasi) quyidagilarni ta’minlaydi:

- a) hukumat;
- b) mamlakat Moliya vazirligi;
- c) Markaziy bank;
- d) Markaziy bank mamlakat hukumati bilan kelishilgan holda;
- e) davlat.

8. Iqtisodiyotdagagi makroiqtisodiy muvozanat nima?

- a) bu iqtisodiyotning holati, agar barcha xaridorlarning yaratilgan YAIMni ma’lum bir narx darajasida sotib olish niyatları barcha sotuvchilarning umumiyligi mahsulot hajmini bir xil narx darajasida taklif qilish niyatları bilan mos keladi;
- b) yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishi;
- c) jami daromadning jami xarajatlarga mos kelishi;
- d) yuqoridagilarning barchasi;
- e) yalpi talabning o‘zgarishi.

9. Bozorda ishlaydigan barcha ishlab chiqaruvchilarning mahsulot takliflari:

- a) individual talab;
- b) individual taklif;
- c) bozor talabi;
- d) bozor ta’minoti;

e) bozor taklifi.

10. Raqobatbardosh bozorda yangi ishlab chiqaruvchilar paydo bo‘lganda, ehtimol:

- a) muvozanat bahosi oshadi;
- b) talab ortadi;
- c) ta’minot kamayadi;
- d) muvozanat bahosi pasayadi;
- e) taklif ortadi.

6-MAVZU. RAQOBAT VA MONOPOLIYA

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Raqobat – bozor sub’ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashdan iboratdir.

Tarmoq ichidagi raqobat – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, yuqori foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o‘rtasida boruvchi kurash.

Tarmoqlararo raqobat – turli tarmoqlar o‘rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurash.

G‘irrom raqobat – raqobatlashuvning noan’anaviy, jamiyat tomonidan e’tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya’ni, jismoniy kuch ishlatish, majburlash, raqiblarning obro‘siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish.

Halol raqobat – jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo‘llash, o‘zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo‘llamaslik kabi qoidalarga asoslangan raqobat kurashi.

Narx vositasida raqobatlashuv – ishlab chiqaruvchilarining o‘z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarining shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi asosidagi kurash.

Narxsiz raqobatlashuv – asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmatko‘rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro‘-e’tibori hisoblangan kurash.

Monopoliya – monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar) ning birlashmalari.

Ishlab chiqarishning to‘planishi – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishi.

Kapitalning to‘planishi – qo‘srimcha qiymatning bir qismini

jamg‘arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.

Kapitalning markazlashuvi – bir kapital tomonidan boshqa birining qo‘sib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyati va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o‘sishi.

Sof monopoliya – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va binobarin, foyda olishdagi yakka hukmronlik holati.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.

Monopolistik raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko‘p hamda ular o‘rtasida ma’lum darajada raqobat mavjud bo‘lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o‘z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma’lum darajada hukmronlik holati.

Monopsoniya – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular ishlab chiqargan tovar yoki xizmatlarining iste’molchisi yoki xaridori yagona bo‘lgan sharoitdagi yakka hukmronlik holati.¹⁴

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) Tarmoqda yagona, o‘rnini bosadigan, almashtirib bo‘lmaydigan mahsulot sotuvchi (ishlab chiqaruvchi).
- b) Ishlab chiqarish va bozorda uncha ko‘p bo‘lmagan, sanoqli firmalar hukmronligi.
- c) Iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlaridan kelib chiqib, yuqori daromad olish imkoniga, nufuzli mavqega ega bo‘lish uchun boshqalar bilan bellashuvi, kurashi.
- d) Bir yoki bir necha sotuvchi bozorda narx ustidan nazorat o‘rnatish imkoniga ega bo‘lgan bozordagi raqobat.

¹⁴ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

- e) Erkin raqobatga asoslangan, cheklanmagan miqdorda bozorga (tarmoqqa) kirish, erkin mustaqil ishlab chiqaruvchilar bozorda narx ustidan nazorat o'rnatish imkoniy yo'q, bozordagi ideal raqobat.
- f) Narx ustidan nazorat o'rnatish yoki ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish orqali maksimal darajada daromad, monopol foyda olish
- g) Monopolistik manfaatni ko'zlab korxonalarining birlashuvi.
- h) Tarmoqda mahsulot ishlab chiqarish va bozorda yagona firma hukmronlik qilishi.
- i) Monopoliyalar tomonidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini samarali darajadan kamaytirish natijasida iste'molchi va sotuvchilar uchun ma'lum miqdorda mahsulotning yo'qotilishi, ishlab chiqarishning kamayishi.
- j) Yagona iste'molchiga asoslangan bozor.¹⁵

T/N

1. Raqobatli bozorda uzoq muddatli davrda normal foyda nolga teng.
2. Ishlab chiqarishdagi ob'ektiv texnologik jarayonlarning xususiyatlaridan hamda kamyob, erkin tarzda takror ishlab chiqarib bo'lmaydigan tabiiy resurslar, infrastrukturaning jamiyat uchun alohida strategik ahamiyatga ega tarmoqlari tabiiy monopoliyalarga kiradi. Respublikamizda tabiiy monopoliyalar faoliyati «Tabiiy monopoliyalar to'g'risida»gi qonun (1999 y.) asosida tartibga solinadi.
3. Monopoliya raqobatbardosh tarmoqqa nisbatan yuqori samaradorligi boisi yuqori foyda oladi.
4. Talab egri chizig'i monopoliya uchun doimo gorizontal.
5. Mukammal raqobatli firmalar bozorda monopolistik bozorga qaraganda nisbatan ko'proq turli-tuman tovarlar taklif qiladi.
6. Agar oligopolistik bozorda firma mahsulot narxini ko'tarsa yoki tushirsa, mahsulot hajmini ko'paytirsa yoki kamaytirsa u raqobatchi firmalarning foydasi va mahsulot sotish hajmiga ta'sir qiladi.
7. Monopolistik raqobatli bozorda resurslardan samarali foydalanim bo'lmaydi.
8. Oligopoliyalar o'rtaqidagi raqobat ko'pincha narx yordamida amalga oshiriladi.

¹⁵ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o'qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

9. Raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch.
10. Raqobatni qanday tarzda amalga oshirilishiga ko‘ra halol yoki g‘irrom raqobatga bo‘linadi.
11. Bozor iqtisodiyotining muhim afzalligi uning raqobatga asoslanganlidir.
12. Bozor iqtisodiyotida reklama qilish-qilmaslikning ahamiyati yo‘q.¹⁶

1-Masala

“Mukammal raqobatga asoslangan tarmoqda 20 ta firma faoliyat yuritadi. Mahsulotning bozor bahosi 40. Agar uzoq muddatli davrda tarmoqning minimal o‘rtacha xarajatlari 30, umumiy xarajatlar esa 60 bo‘lsa, tarmoqning raqobatli muvozanatga yaqinlashuvi ro‘y beryapti.” U holda baho va taklif qanday o‘zgaradi?

2-Masala

“Mukammal raqobatli firma yiliga 20 ming dona telefon ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishning o‘rtacha xarajatlari 21500 so‘m. O‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar 17500 so‘m, bozor bahosi 25000 so‘m bo‘lsa, firma qancha foyda ko‘radi?”

3-Masala

“Jadvaldagи raqamlarga diqqat qiling. Keyingi yillar ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Ular asosida qanday xulosa chiqarish mumkin?” Fikringizni izohlang.

Respublikada YaIMda monopoliyalar ulushi %da.

	2008	2009	2010	2011
Yalpi ichki mahsulotda monopol mahsulotlar hissasi	25,7	22,9	21,7	20,5
Sanoat mahsulotlaridagi ulushi	14,9	14,3	13,8	14,3

Respublikamizda 2012-yil monopol korxona va mahsulotlar soni quyidagicha bo‘lgan deylik:

¹⁶ Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasи” fanining ikki chigal tuguni va uning echimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil

Mahsulot nomi	Korxona soni	Mahsulot soni
1. Non va bulka mahsulotlari	21	43
2. Ko‘mir	6	7
3. Oziq-ovqat mahsulotlari	92	35
4. Gaz	5	6
5. Yengil sanoat	43	87
6. Mahalliy sanoat	12	17
7. Neft-kimyo sanoati	27	50
8. Mashinasozlik	30	60
9. Qurilish materiallari	71	193
10. Xizmatlar	338	659
11. Boshqa tarmoqlar	108	238
Jami	753	1532

Sizning fikringizcha qaysi sohalarni tabiiy monopoliyaga kirlitsak, to‘g‘ri bo‘ladi? Unga ko‘ra, korxonalar va mahsulotlar bo‘yicha tabiiy va sun’iy monopoliyalar hissasini aniqlang.

Tabiiy monopoliyalar sun’iy monopoliyalardan qanday farqlanadi, izohlang. Javobingizni asoslab bering.

4-Masala

Quyidagilarni diqqat bilan o‘qing.

- a) AQShda tibbiyat va xuquqshunoslik bo‘yicha xususiy ish ochish uchun hukumat organlaridan litsenziya olish zarur.
- b) O‘zbekistonda tabiiy resurslar davlat mulki hisoblanadi. Undan tashqari ulardan juda ko‘plarini qayta tiklab bo‘lmaydi.
- c) Mualliflik huquqi bo‘yicha qonunchilik rivojlangan mamlakatlarda firma odatda o‘z mahsulotini patent yordamida himoya qiladi, shuningdek, undan nusxa ko‘chirishni ham faqat o‘zi amalga oshiradi yoki uning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Ko‘rsatilgan misollarni tahlil qiling va quyidagi savollarga javob bering:

- 1) Tarmoqqa kirishga qo‘yiladigan to‘siqlar deganda nima tushuniladi?
- 2) To‘siqlar, baryerlar muammosi nimada?
- 3) Baryerlarni qanday tasniflash mumkin?

5-Masala

“Siz katta merosga ega bo‘ldingiz va o‘z ishingizni ochishga qaror qildingiz. Siz velosiped ishlab chiqaruvchi zavod qurmoqchisiz. Tarmoqqa kirish uchun qanday to‘siqlarni yengib o‘tishingizga to‘g‘ri keladi:

- a) ishlab chiqarish quvvati yoki masshtab effekti;
- b) moliyaviy to‘siqlar;
- c) litsenziya;
- d) hukumat ijro organlari yoki qonun chiqaruvchi organlar bilan aloqalar;
- e) pora berish zaruriyati;
- f) reklama kompaniyasi;
- g) faoliyat yuritayotgan boshqa firmalar tomonidan g‘irrom raqobat olib borish.

Ko‘rsatilgan to‘siqlar O‘zbekiston uchun ham rivojlangan mamlakatlar: GFR, AQSh, Fransiya uchun ham umumiymi?”

3. Testlar

1. Har qanday bozorning asosiy elementlarini ayting:

- a) narx va narx signallari;
- b) talab va taklif, narx signallari;
- c) narx, talab va taklif va raqobat;
- d) narx signallari va raqobat;
- e) narx signallari.

2. Nomukammal raqobat bozorining qanday modellari va shakllari mavjud?

- a) sof monopoliya;
- b) oligopoliya;
- c) monopolistik raqobat va monopsoniya;
- d) a), b) va c);
- e) monopsoniya

3. Monopol bozor modelining raqobatbardosh modelga nisbatan kamchiliklari nimada?

- a) mahsulot ishlab chiqarishni cheklaydi, ishlab chiqaruvchining iste’molchi ustidan diktaturasini amalga oshiradi;
- b) narx har doim raqobatbardosh narxdan yuqori;

- c) resurslardan samarasiz foydalanish;
- d) yuqoridagilarning barchasi;
- e) mahsulot ishlab chiqarishni cheklaydi.

4. Qisqa muddatda mukammal raqobat bozoridagi firmada ishlab chiqarish to‘xtatiladi, agar:

- a) marjinal xarajatlar ma’lum mahsulot uchun mahsulot narxidan yuqori;
- b) mahsulot narxi ma’lum bir mahsulot uchun o‘rtacha tannarxdan past bo‘lsa;
- c) mahsulot narxi ma’lum mahsulot uchun o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlardan past bo‘lsa;
- d) mahsulot narxi minimal o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlardan past bo‘lsa;
- e) mahsulot narxi marjinal daromaddan past bo‘lsa.

5. Mukammal sharoitlarda firmaning iqtisodiy foydasi qisqa muddatda raqobat:

- a) har doim nolga teng;
- b) agar marjinal sotishdan tushgan daromad marjinaldan oshsa ijobjiy ishlab chiqarish xarajatlari;
- c) oddiy foydaga teng;
- d) tarmoqdagi firmalar soni kamayishi bilan kamayadi;
- e) ijobjiy, salbiy yoki nolga teng bo‘lishi mumkin

6. Mukammal raqobatbardosh firmaning taklif egri chizig‘i qisqa muddatli davr egri chiziq kesimiga to‘g‘ri keladi:

- a) marjinal xarajatlar egri chizig‘idan yuqori bo‘lgan o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar;
- b) marjinal xarajatlar egri chizig‘idan yuqori bo‘lgan o‘rtacha xarajatlar;
- c) o‘rtacha o‘zgaruvchan xarajatlar egri chizig‘idan yuqori bo‘lgan marjinal xarajatlar;
- d) o‘rtacha xarajatlar egri chizig‘idan yuqori bo‘lgan marjinal xarajatlar;
- e) bozor narxlari darajasidan yuqori bo‘lgan marjinal xarajatlar.

7. Mukammal raqobat bozorida uzoq muddatda:

- a) bozorga kirishda to‘siqlar bo‘lmasa, firma foydasi nolga teng;

- b) firma foydasi uzoq muddatli o‘rtacha xarajatlar darajasi bilan belgilanadi;
- c) firma foydasi doimo nolga teng;
- d) firma taklifi minimaldan boshlanadigan ortib boruvchi funktsiyadir
marjinal xarajatlar.

8. Sof monopoliya bozori quyidagi mezonlarga javob bermaydi:

- a) firma narxni to‘liq nazorat qiladi;
- b) sanoatda faqat bitta korxona faoliyat yuritadi;
- c) firma mahsulotiga bo‘lgan talab egri chizig‘i gorizontal chiziqliqqa o‘xshaydi;
- d) boshqa firmalarning sanoatiga kirish blokланади;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q.

9. Bozor kuchi quyidagi sabablarga ko‘ra paydo bo‘lishi yoki oshishi mumkin:

- a) resurslardan eksklyuziv foydalanish huquqi;
- b) kompaniyaning asosiy raqobatchisini egallab olishi;
- c) xaridorlar guruhi o‘rtasida paydo bo‘ladigan brendga sodiqlik;
- d) firmalar o‘rtasida kartel shartnomasini tuzish;
- e) yuqorida aytilganlarning barchasi to‘g‘ri.

10. Monopoliya kompaniyasi:

- a) bozor talabi egri chizig‘ini hisobga olgan holda foydani maksimal darajada oshiradigan narx va ishlab chiqarish kombinatsiyasini tanlaydi;
- b) istalgan hajmdagi mahsulotni sotishi mumkin;
- c) o‘z mahsulotiga istalgan narxni belgilashi mumkin;
- d) narx marjinal xarajatga teng bo‘lganda foydani maksimal darajada oshiradi ($P = MC$);
- e) narx belgilashda ishtirok etmaydi.

7-MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA TADBIRKORLIK KAPITALI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Tadbirkorlik faoliyati – shakli va ko‘lamidan qat’i nazar, foyda olish va undan samarali foydalanishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat.

Aktsiyadorlik jamiyati – ko‘proq foyda olish maqsadida aktsiyalar chiqarish orqali mehnat, mehnat qurollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital)larini birlashtirgan uyushma.

Aktsiya – bu uning egasi aktsiyadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma’lum hissasini qo‘sghanligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘oz.

Aktsiya kursi – qimmatli qog‘ozlar bozorida aktsiya sotiladigan narx. **Obligatsiya** – uni sotib olishga qo‘yilgan kapital miqdorini belgilangan foiz bilan qaytarish majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz.

Ta’sischilik foydasi – sotilgan aktsiyalar va aktsiyadorlik korxonasiga haqiqatda qo‘yilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

Dividend – aktsiya egasi o‘zlashtiradigan daromad turi.

Tadbirkorlik kapitali – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lari.

Aylanma kapital – unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to‘liq iste’mol qilinadigan, o‘z qiymatini yaratilgan mahsulotga to‘liq o‘tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo‘qotadigan qismi.

Asosiy kapital – unumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida

qatnashib, o‘zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo‘lib-bo‘lib o‘tkazib boradigan va xizmat muddati davomida o‘zining ashyoviy-buyum shaklini o‘zgartirmaydigan qismi.

Amortizatsiya normasi – amortizatsiya ajratmalarini yillik summasining asosiy kapital qiymatiga nisbatining foizdagi ifodasi.¹⁷

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) “Tadbirkorlik qobiliyatini ishga solish, faoliyatga aylantirishning tashkiliy shakli.
- b) Risk qilgan holda mablag‘larni samarali sarflab, faoliyat yuritishning tashkiliy shakli.
- c) Maksimal darajada daromad olish maqsadida ishlab chiqarish omillari (yer, kapital, mehnat)ni eng samarali nisbatini topib ishga tushirish.
- d) Bir yoki bir necha korxona va faoliyat turini amalga oshiruvchi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt.
- e) Raqiblar faoliyatini kuzatish asosida, ular erishgan natijadan foydalanib ish yuritish strategiyasi.
- f) Tadbirkorlik qilish qobiliyatiga ega inson.
- g) Yangiliklarni joriy qilishga, boshqalar qo‘llamagan usullarni qo‘llashga asoslangan strategiya.
- h) Mulkiy maqomi, tashkiliy-huquqiy asoslari, xo‘jalik yuritish, boshqarish uslublariga ko‘ra faoliyat yuritishning namoyon bo‘lishi.
- i) Kapitalning ko‘p yil xizmat qilib, bir necha ishlab chiqarish siklida (doiraviy aylanish) da qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan tovarga asta-sekinlik bilan o‘tkazadigan, ishlab chiqarish jarayonida o‘z xossasini o‘zgartirmaydigan qismi.
- j) Aylanma kapital va muomaladagi kapitalning birgalikdagi ifodasi.
- k) Asosiy kapitalning mahsulot yaratish uchun miqdorining bahosi, ya’ni mahsulotga ko‘chgan, xarajatlarda ifodalangan qismi.
- l) Kapitalning bir ishlab chiqarish sikli (doiraviy aylanish) da qatnashib, o‘z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga to‘la o‘tkazadigan, ishlab chiqarish jarayonida o‘z xossasini o‘zgartiradigan qismi.

¹⁷ D.Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi. To‘ldirilgan, 2-nashr o‘quv qo‘llanmasi. TMI., T.: 2005 y. 438 b.

m) Asosiy kapitalning ishlab chiqarish jarayonida faol qatnashadigan qismi; odatda mashina, mexanizmlar, asbob-uskuna kabilar kiritiladi.

n) Asosiy kapitalning faoliyat yuritish uchun sharoit yaratuvchi, ancha uzoq xizmat qiluvchi, ishlab chiqarishda passiv qatnashuvchi qismi.”¹⁸

T/N

1. “Y. Shumpeter tadbirkorning novatorligiga alohida e’tibor berib, tadbirkor ishlab chiqarish omillarini yangi nisbatlarini izlovchi, iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi kishi deb ta’riflaydi.

2. Tadbirkorlikni a) iqtisodiy kategoriya, b) xo‘jalik yuritish uslubi, d) iqtisodiy fikr yuritishning o‘ziga xos tipi sifatida qarab o‘rganish zarur.

3. Tadbirkorning mustaqilligini ta’minalash huquqiy jihatdan asoslangan va himoyalangan bo‘lishi shart emas.

4. Iqtisodiy kategoriya sifatida tadbirkorlikning obyekti maksimal darajada darommad olish maqsadida ishlab chiqarish omillarini samarali nisbatini topib ishga tushirishdir.

5. Tadbirkorlik qilishni hamma eplaydi, qiyini hujjatlarni rasmiylashtirish.

6. Kichik korxonaning muhim afzalligi uni tez tashkil etish mumkinligi, kapital aylanish tezligining yuqoriligi, bozor talabiga tezda moslashuvchanligi.

7. Tikuvchilik korxonalarining asosiy xomashyosi material. Shuning uchun uni asosiy kapitalga misol qilib keltirish mumkin.

8. Amortizatsiya normasi asosiy kapitalni jismoniy eskirishini hisobga olgan holda belgilanadi.”¹⁹

1-Masala

“Mulkdor bilan tadbirkor tushunchasi birmi? Quyidagi javoblardan qaysi biri to‘g‘ri?

A) Yo‘q. Bu ko‘proq yakka egalik asosida tashkil etilgan korxona shakliga xos. Korporatsiyalarda mulkdor bilan tadbirkor tamomila farq qiladi. Siz biron - bir firma aksiyasiga ega bo‘lishingiz bilan

¹⁸ Мамарахимов Б.Э. Теоретические аспекты воспроизводства рабочей силы // Экономика и предпринимательство. № 7 (120) 2020 г. с. 1124

¹⁹ Мамарахимов Б.Э. Теоретические аспекты воспроизводства рабочей силы // Экономика и предпринимательство. № 7 (120) 2020 г. с. 1124

hamkorlikdagi mulkka sherik bo‘lasiz. Tadbirkorlikka esa hech qanday aloqangiz yo‘q.

B) Ha. Mulkdor bo‘lgandan keyin tadbirkor bo‘ladi. Mulkka yakka egalik qilish shart emas. Tadbirkor o‘zi mulkka ega bo‘lgandagina tadbirkor bo‘lishi mumkin. Tadbirkorlik bilan shug‘ullanar ekan, mulkdor bo‘lishi shart.”

2-Masala

“Iqtisodiyot nazariyasidan ma’lumki, tadbirkorlik risk bilan bog‘liq. O‘ylab ko‘ringchi, bu risk aniq nima bilan bog‘liq, deb o‘ylaysiz?

- a) pul yo‘qotish bilan;
- b) obro‘-e’tiborni yo‘qotish bilan;
- c) bozor iqtisodiyotiga xos xususiyat - noaniqlik uning doimiy yo‘ldoshi ekanligi bilan;
- d) axborot asimmetriyasi bilan;
- e) mol-mulkni yo‘qotish bilan;
- f) to‘g‘ri qaror qabul qila bilmaslik bilan;
- g) qat’iyat yetishmasligi bilan.

Bulardan qaysi biri siz uchun shaxsan katta ahamiyatga ega? Tadbirkorlik bilan shug‘ullanadigan bo‘lsangiz qaysi biriga ko‘proq ahamiyat bergen bo‘lardingiz?”

3-Masala

“Firmada sizning ulushingiz 500000 so‘m. Sizdan boshqa teng huquqli 19 ta sherik bor. Firmanın ustav kapitalı 10 mln. so‘m. Firma 50 mln. so‘mlik zarar ko‘rdi. Unga bankrotlik xavf solib turibdi. Agar korxona bankrotlikka uchrasa, sizning zimmangizga tushadigan mablag‘ni hisoblang:

- a) agar mas’uliyati cheklanmagan;
- b) aksionerlik jamiyati bo‘lsa.”

4-Masala

“2020-yili «Toshqishloqmash» OAJ 1630 mln. so‘mlik mahsulot sotdi. «O‘zqishloqmash» OAJda esa 764 mln. so‘mlik mahsulot sotildi. Asosiy kapital (asosiy fond)ning o‘rtacha qiymati muvofiq ravishda 3476 va 845 mln. so‘m. Ishlab chiqarish quvvati esa 3167 so‘m va 1421 mln. so‘m.

Korporatsiyalarning kapital (fond) unum dorligi, kapital(fond) sig‘imi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasini hisoblang. Natijani taqqoslang va ularning faoliyatiga baho bering. Ana shu iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yuqori darajada bo‘lishi uchun sizningcha nimalar qilish kerak?” Fikringizni asoslab bering.

5-Masala

“Asosiy kapitalning qiymati 40000 so‘m kapitalni ta’mirlash uchun sarflar 15000 so‘m xizmat davri 10 yil. Amortizatsiya normasini aniqlang”.

6-Masala

“Korxonaning aylanma kapital qiymati – 40000 ming so‘m. MD=135000 ming so‘m. Material sig‘imini aniqlang.”

7-Masala

“Tijorat firmasi bir yilda savdo sotiq ishini yuritish uchun 15 mln. doll. joriy sarf qilgan, shuning evaziga 1,4 mln. foyda ko‘rgan. Binobarin foyda normasi 9,3 % ni tashkil etadi. Firma 20 mln. doll. kapital sarfladi. 1,4 mln. doll. foyda oldi. Ushbu masalada qo‘yilgan kapitalning foyda keltirish darajasini aniqlang.”²⁰

3. Testlar

1. Kompaniyani boshqarishda asosiy narsa nima?

- a) direktor va ishchi;
- b) prognozlash va rejallashtirish;
- c) reklama va reklama beruvchi;
- d) samaradorlik;
- e) ishlab chiqarish.

2. Korxona daromadining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismi:

- a) foyda;
- b) dividendlar;
- c) foiz;

²⁰ T.Jo‘raev, D.Tojibaeva Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar) –T.: “Fan va texnologiya” 2012. 333 b.

- d) annuitet to‘lovlari;
- e) to‘g‘ri javob yo‘q

3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va pul muomalasi bu erda hal qiluvchi rol o‘ynashini ishonchli tarzda ko‘rsatadi:

- a) iste’mol tovarlari bozorlari;
- b) omillar bozori;
- c) pul va qimmatli qog‘ozlar bozorlari;
- d) o‘zaro bog‘liq bozor segmentlari;
- e) jaxon bozori.

4. Korxonaning foydasi nimadan iborat?

- a) tushum minus xarajatlar;
- b) daromad minus doimiy va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari;
- c) bu yalpi daromad va yalpi xarajatlar o‘rtasidagi farq;
- d) o‘rtacha daromadlar va o‘rtacha xarajatlar o‘rtasidagi farq;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Quyidagilardan qaysi biri qimmatli qog‘ozlarga kiradi?

- a) ulush;
- b) bog‘lanish;
- c) veksel, bank sertifikati;
- d) yuqoridagilarning barchasi;
- e) aksiya.

6. Birja indeksi nima?

- a) aksiya bahosining umumiyligi ko‘rsatkichi;
- b) mamlakatning yetakchi korxonalarini aksiyalarining o‘rtacha bahosi;
- c) bu unga kiritilgan qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblangan o‘rtacha statistik ko‘rsatkichi;
- d) mamlakatning yetakchi sanoat kompaniyalari aksiyalarining o‘rtacha bahosi;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

7. Etarli biznes-reja quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- a) barcha javoblar to‘g‘ri;
- b) taklif qilingan variant uchun biznes-rejaning barcha bo‘limlari va muqobil variantlar uchun batafsil hisob-kitoblarni o‘z ichiga olmaydi;
- c) barcha hisob-kitoblar, sertifikatlar va boshqa materiallar;

d) asossiz yoki hisob-kitoblarsiz har bir bo‘lim uchun qisqacha xulosalar;

e) sertifikatlar.

8. Moliyaviy barqarorlik tahlili quyidagilarga qaratilgan:

a) foydani oshirish va oqilona taqsimlash siyosatini ishlab chiqish;

b) ishlab chiqarishni kengaytirishda korxona siyosatini belgilash;

c) korxonaning ishonchlilagini uning to‘lov qobiliyati nuqtai nazaridan baholash;

d) qimmatli qog‘ozlar siyosatini shakllantirish;

e) moliyaviy bozorning shakllanishi.

9. Biznes-reja quyidagi ikki yo‘nalishga ega:

a) ichki va tashqi;

b) uzoq muddatli va qisqa muddatli;

c) strategik va taktik;

d) texnik va iqtisodiy;

e) ijtimoiy va iqtisodiy.

10. Loyiha ijtimoiy ahamiyatga ega deb tan olingan. Bunday loyihaning iqtisodiy samaradorligini baholashning birinchi bosqichi nimadan iborat:

a) ijtimoiy samaradorlikni baholash;

b) Ijtimoiy ahamiyatini baholash;

c) loyihaning moliyaviy imkoniyatlarini baholash;

d) o‘z kapitalining samaradorligini baholash;

e) to‘g‘ri javob yo‘q.

8-MAVZU. ISH HAQI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Ish haqi – ishchilar va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdoorligiga muvofiq oladigan milliy mahsulot ulushini pul bilan ifodalash.

Vaqtbay ish haqi – Bu ishlagan vaqtga (kun, hafta, oy) qarab to‘lanadigan ish haqi.

Ishbay ish haqi – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmiga qarab to‘lanadigan ish haqi.

Real ish haqi – Bu nominal ish haqi miqdori yoki nominal ish haqining xarid qobiliyati bilan sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori.

Nominal ish haqi – pul shaklida olingan ish haqi summasi.

Ishbay-mukofotli haq to‘lash tizimi – bajarilgan ish uchun haq to‘lashni erishilgan turli natija ko‘rsatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo‘shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.

Ishbay-progressiv haq to‘lash tizimi – ishchining belgilab qo‘yilgan me’yor doirasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun belgilangan tarif bo‘yicha, me’yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) bo‘yicha ish haqi to‘lanishini ko‘zda tutuvchi tizim.

Tarif tizimi – me’yoriy belgilangan stavkalar va tarif koeffitsientlari to‘plamiga asoslangan mehnatga haq to‘lash shakli, unga muvofiq xodimlarning ish haqi darajasi belgilanadi va o‘zgartiriladi.

Tarif-malaka ma’lumotnomalari – ayrim kasblar va mehnat turlarining batafsil ta’rifi, ishchi va mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni ta’riflash uchun qo‘yiladigan razryadlar majmui.

Tarif setkasi – turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmui bo‘lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to‘lash bilan keyingi razryadli ishchilar mehnatiga haq to‘lashning o‘zaro nisbatini ko‘rsatadi.

Tarif stavkalari – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo‘lgan ishchilarning mehnatiga to‘lanadigan haq miqdori majmui.

Mehnat shartnomalari – korxona ma’muriyati va xodimlar o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini aks ettiruvchi va tartibga soluvchi, unda ish haqi stavkalari, qo‘srimcha ish haqi stavkalari, dam olish va tanaffus kunlari, pensiya jamg‘armasiga va sog‘lijni saqlashga ajratmalar, narxlarning o‘zgarishini hisobga olgan holda iste’mol savatchasi qiymatini tartibga solish ko‘rsatilgan hujjat.

Kasaba uyushmasi – ish beruvchi va ishga yollanuvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlarining shakllanishi, amalga oshirilishi va tartibga solinishida ishga yollanuvchilarning manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti.²¹

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

Quyidagi javoblardan to‘g‘risini tanlang:

- a) “Insonning (jismoniy va aqliy energiyasi) kuchi, energiyasini sarflab, jamiyat tomonidan tan olingan natijaga erishishga qaratilgan maqsadli faoliyatidir.
- b) Mehnat omilidan foydalanish jarayonida yuzaga chiqadigan munosabatlardir.
- c) pul shaklidagi ish haqi.
- d) Mehnat bozoridagi ish kuchiga talab va taklifning muvozanat bahosidir.
- e) Odamlar yillar davomida to‘plagan bilim, malaka, tajriba tarzida bo‘lib, uni egasidan ajratib bo‘lmaydi.
- f) pul shaklida olingan ish haqiga sotib olish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdorida ifodalanishi.

²¹ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

g) Mehnat haqi bo‘yicha milliy iqtisodiyotda band bo‘lganlarni mehnat razryadi va ular bo‘yicha tarif koeffitsiyenti. Har bir razryadga muvofiq gorizontal razryadlar ham bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

h) Ishchi-xizmatchilar jamoasi bilan firmalar o‘rtasida tuzilgan shartnoma.”²²

1-Masala

“AQShda ish haqi va maosh 4005 mlrd. dollarni, renta 28 mlrd. dollarni, protsent 407 mlrd dollarni, xususiy tadbirkorlarning daromadi esa 473 mlrd. dollarni tashkil etdi. Ularning umumiylar daromadga nisbatan ulushini hisoblang.

O‘zbekistonda hozirgi paytda ish haqi aholining umumiylar daromadlarining deyarli 1/3 qismini tashkil etadi. Ularni taqqoslang. Ish haqining ulushi yuqoriligi nimani ko‘rsatadi, izohlang.”

2-Masala

“Firma ishchilarni raqobat asosida ishga qabul qiladi. Agar bir dona mahsulotning bozordagi narxi 5500 so‘m bo‘lsa, firma nechta ishchini ishga qabul qiladi? Hisoblang, jadvalni to‘ldiring va javobingizni izohlang.”

Ishchilar soni	Mahsulot hajmi, dona	Mehnat haqiga xarajatlar, ming so‘m	Me’yoriy mahsulot, ming so‘m
0	0		
1	15	30	
2	35	60	
3	50	90	
4	60	120	
5	66	150	
6	67	180	
7	68	210	
8	69	240	
9	70	270	
10	71	300	

²² Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ikki chigal tuguni va uning echimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil

3-Masala

“AQShda bilim olish uchun sarflangan xarajatlar, so‘ngra olinadigan daromadlar o‘rtasidagi bog‘lanish quyidagicha: o‘rta ta’limga nisbatan bilim olish muddatini 2 baravar ko‘payishi, o‘qishni tugatgach daromadning 5 martaga ko‘payishiga olib keladi.

Bu fikrni tahlil qiling va quyidagi savollarni izohlang: «Inson kapitali» nima? Inson kapitaliga investitsiya deganda nimani tushunasiz?”

4-Masala

“Odiljonning oldida ikki yo‘l bor. To‘rt yil davomida birjada yetakchi mutaxassis bo‘lib ishlab yiliga 720 ming so‘m daromad topish. Ikkinchisi - bir yil «Bank va moliya akademiyasi»da o‘qish. O‘qish uchun 1 mln. so‘m to‘lanadi. O‘qishni tugatgach unga bo‘lim boshlig‘i o‘rmini va’da qilishyapti. Keyinchalik yanada yuqori lavozimlarga ko‘tarilishi mumkin. Uch yil davomida uning maoshi har yili 960 ming so‘m bo‘lishi mumkin. Sizningcha Odiljon qaysi yo‘lni tanlagani ma’qul. Bank foizi darajasi yiliga 20% bo‘lsin.”

5-Masala

“Nima sababdan yaxshi ta’milangan oilalarning ko‘pchiligidagi ayollar to‘la bo‘limgan ish kuni ishlashadi yoki umuman ishlashmaydi. Oiladagi bolalar soni, uy yumushlari kam ta’milangan shunday oilalarnikidan ko‘p emas. Bu yerda qaysi effekt ustun: o‘rin bosishmi yoki daromad samarasimi?”²³

T/N

1. “Qachonki yollangan ishchilar soni ular yaratgan me’yoriy mahsulot hajmi bilan ish haqi stavkasiga teng bo‘lsa, raqobatli bozorda ish yuritayotgan firma o‘z foydasini maksimallashtirishga erishadi.
2. Raqobatli bozorda faoliyat yuritayotgan firma uchun mehnat taklifi mutlaq noelastik bo‘ladi.
3. Agar tovar va xizmatlarga chakana baholar nominal ish haqi stavkasiga nisbatan tezroq o‘ssa, u holda real ish haqi pasayadi.
4. Firma monopolistik mehnat bozorida ish haqi stavkasini o‘rnatadi.

²³ “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan Ishchi daftari: noiqtisodiy yo‘nalishlari uchun uslubiy qo‘llanma. – T.: 2017. 275 b.

5. Ishlagan vaqtiga qarab to‘lanadigan ish haqi vaqtbay yoki donabay ish haqi deb ataladi.

6. Hozirgi paytda keng qo‘llaniladigan ish haqi tizimiga

- * guruhiy (jamoa) ishbay mukofotli;
- * vaqtbay mukofotli ish haqi to‘lash;
- * tabaqlashgan ish haqi to‘lash;
- * ishbay progressiv ish haqi to‘lash;
- * vaqtbay progressiv ish haqi to‘lash;
- * «ishni analitik baholash» tizimi va boshqalar kiradi.

7. Ish haqi bir tomondan yollangan ishchining mehnat unumдорligи va intensivligini oshirishga undaydi. Ikkinchи tomondan, samarali mehnatni rag‘batlantiradi va motivatsiyalaydi.

8. Amerikalik iqtisodchi Jeyms Byuken «Inson kapitali» fundamental tadqiqoti, inson kapitali nazariyasiga oid ishlari uchun 1992-yili iqtisod sohasida Nobel mukofotini olgan.”²⁴

3. Testlar

1. Ishlovchining bo‘sh vaqtini ko‘proq qadrlashi evaziga mehnat taklifining kamayishi

- a) baho samarasi;
- b) o‘rin bosish samarasi;
- c) daromad samarasi;
- d) miqdor samarasi;
- e) alohida manfaatlar samarasi deb ataladi.

2. Ish haqi - bu

- a) ishchi kuchining normal takror ishlab chiqarilishini ta’minlash uchun xodimga mavjud bo‘lgan yashash vositalari hajmining pul ifodasi;
- b) har qanday faoliyat uchun haq: bonuslar, to‘lovlар, sovg‘alar;
- c) mehnat birligidan ma’lum vaqt davomida foydalanganlik uchun to‘lanadigan narx;
- d) mehnatga haq to‘lash;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

3. Ishchilarning mehnatiga haq to‘lashning tarif tizimi o‘z ichiga oladi:

- a) tarif stavkalari, tarif va malaka ma’lumotnomasi;

²⁴ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasи katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

- b) tarif stavkaları, tarif jadvalları, tarif va malaka ma'lumotnomasi;
- c) tarif stavkaları, rasmiy ish haqi, tarif jadvalları;
- d) rasmiy maoshlar, bonuslar, tarif va malaka ma'lumotnomasi;
- e) tarif va malaka ma'lumotnomasi.

4. Ish haqi shakllari

- a) parcha-bonus;
- b) vaqtbay va ishbay;
- c) asosiy va qo'shimcha;
- d) vaqt bonusi;
- e) to'g'ri javob yo'q.

5. Ish haqini qo'llash shartlari:

- a) bajarilgan ishlarni aniq qayd etishning mumkin emasligi;
- b) ishlab chiqarish jarayonini qat'iy tartibga solish;
- c) ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ishchilarni rag'batlantirish zarurati;
- d) ishchi funktsiyalari uskunaning ishlashini kuzatish uchun qisqartiriladi;
- e) ishchilarni rag'batlantirish zarurati.

6. Ishbay ish haqi nima asosida belgilanadi?

- a) ish haqi stavkasi va ishlagan soatlari;
- b) stavkalar va ishlagan soatlari;
- c) ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxi va miqdori;
- d) tarif stavkasi va ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.
- e) ish vaqtiga qarab.

7. Ish haqi fondi tuzilishiga nima kiritilmaydi?

- a) ta'til to'lovi;
- b) bir martalik bonuslar;
- c) sayohat xarajatlari;
- d) xodim sabab bo'lgan ishlamay qolgan vaqt uchun to'lov;
- e) b va c javoblar

8. Tarif koeffitsientlari quyidagicha belgilanadi:

- a) vaqtli ish haqini hisoblash;
- b) qisman ish haqini hisoblash;
- c) tarif jadvali elementlarini hisoblash;
- d) ish haqini hisoblash;
- e) to'g'ri javob yo'q.

9. O‘rtacha ish haqi bu:

- a) ishlagan 1 soatlik ish haqi;
- b) ishlab chiqarish birligiga ish haqi;
- c) bitta xodimning ish haqi;
- d) bajarilgan ish miqdori uchun ish haqi;
- e) barch javoblar to‘g‘ri.

10.Qo‘srimcha ish haqi o‘z ichiga oladi:

- a) mukofotlari;
- b) kasblarni birlashtirish uchun qo‘srimcha to‘lovlar;
- c) tungi ish uchun qo‘srimcha ish haqi;
- d) ta’til to‘lovi;
- e) bo‘nuslar.

9-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O'LCHAMLARI. YALPI MILLIY MAHSULOT VA UNING HARAKAT SHAKLLARI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Makroiqtisodiyot—moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini umumiyl qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Milliy hisoblar tizimi—milliy mahsulotni ishlab chiqarish, taqsimlash va ulardan foydalanishni, turli tarmoqlar o‘rtasidagi aloqadorlikni tavsiflaydigan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM)—milliy iqtisodiyotda bir yil mobaynida yuzaga keladigan va bevosita xaridorlarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi summasi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM)—yil davomida mamlakat hududida ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor narxlaridagi qiymati.

Sof ichki mahsulot (SIM)—yil davomida jonli mehnatning unumli harakati orqali yaratilgan yangi mahsulotdir.

Milliy daromad—yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo‘lib, hozirgi hisoblar tizimida SIMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Shaxsiy daromad—milliy daromaddan ijtimoiy sug‘urta ajratmalar, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo‘liga beriladigan ijtimoiy to‘lovlar summasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

Nominal YaIM—joriy bozor narxlarda hisoblangan YaIM.

Real YaIM—narxlarning o‘zgarishini hisobga olib, o‘zgarmas yoki qiyoziy narxlarda hisoblangan YaIM.

Qo‘shilgan qiymat—ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste’mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining miqdori.

Oraliq mahsulot—barcha jalb qilingan ishlab chiqarish omillari birligiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi.

Pirovard mahsulot—ishlab chiqarish jarayoni tugatilgan, shaxsiy va unumli iste'mol qilishga mos bo'lgan mahsulotlar.

Xufyona iqtisodiyot—YaIMni ishlab chiqarish, tarqatish va undan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.²⁵

1-Masala

“Aytaylik, mamlakatning real YaMM 2019-yil 3,5 mlrd. dollar, 2020-yili esa 4,5 mlrd. dollarni tashkil etdi. Aholisi esa shu davr ichida 2 mln. kishidan 2,3 mln. kishiga ko'paydi.

a) YaIMni o'sish sur'ati;

b) YaIMni aholi jon boshiga o'sish sur'atini hisoblang;

YaIM hajmi, o'sish sur'ati va aholi jon boshiga o'sish sur'atiga ko'ra qanday xulosa chiqarish mumkin?” Fikringizni izohlang.

2- Masala

“YaIM 2019-yili 18 mlrd. dollarni 2020-yili esa 25 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shu davrda narxlar 25% o'sgan. Nominal va real YaIM o'sish sur'atini hisoblang.” Iqtisodiy o'sishga qanday omillar ta'sir qiladi?

3- Masala

“O'zbekistonda 2020-yili yaratilgan YaIM hajmi joriy baholarda 77790,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu 2019-yilga ishlab chiqarilgan YaIMdan 15959,4 mlrd. so'mga ko'p. Aholi esa 29,5 mln. kishiga yetdi. 2019-yili esa 29,1 mln. kishi edi. Narx o'rtacha 7,6% ga ortdi desak, nominal va real YaIM o'sish sur'ati, YaIMning aholi jon boshiga qanday o'zgorganini hisoblang.” Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilyapti? Izohlang.

4-Masala

“Mamlakatda 1000 birlik real yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish uchun 400 birlik resurslar sarflandi, resurslar narxi 8000 so'm bo'lsin, deylik. Narx o'zgarmay, resurslar unumdorligi 2 barobar o'sdi. Bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlar qanday o'zgaradi? U taklif egri chizig'ini qanday o'zgartiradi? Narx va ishlab chiqarishning real hajmini-chi?”

²⁵ Z.T.Gaibnazarova, Sh.A. Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2020 yil. T.: 528 b.

5-Masala

“To‘qimachilik tarmog‘ida 1 yilda tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ish haqqi miqdori 30 mln so‘mni, to‘langan soliqlar va to‘lovlar miqdori 20 mln so‘mni, foyda miqdori 20 mln so‘mni tashkil etdi. Bunda foydalangan ishlab chiqarish vositalari qiymati 70 mln so‘mni tashkil etdi, shundan 40 mln so‘mi xom ashyo, yonilg‘i materiallar uchun va 30 mln. so‘m amortizatsiya uchun sarflandi.” Tarmoqdagi ichki milliy mahsulot miqdorini aniqlang.

6- Masala.

“Paxtani qayta ishlash tarmog‘ida ish haqqi 50 mln so‘mni, to‘langan soliqlar 25 mln so‘mni, foyda 30 mln so‘mni amortizatsiya ajratmalari 40 mln so‘mni va xom ashyo materiallar sarfi 140 mln so‘mni tashkil etdi.” Tarmoqdagi JIM miqdorini va IMM miqdorini aniqlang.

7-Masala.

“Yalpi ichki maxsulot qiymatini aniqlashda qo‘llaniladigan usullarni tushintirib bering.”

8-Masala.

“Korxonada 1-yil jalb qilingan kapital miqdori 120 ming so‘m, ishchilar soni 100 ta 2-yil esa jalb qilingan kapital miqdori 150 ming so‘m, ishchilar soni 120 ta, olingan umumiyl mahsulot miqdori 1-yil 100 ming so‘m, 2-yil esa 130 ming so‘m, qo‘shilgan omillar unumdarligini aniqlang.”

9-Masala.

“Ishlab chiqarishga sarflangan resurs harajatlari 850 ming so‘m, olingan foyda 255 ming so‘m bo‘lganda ishlab chiqarish samaradorligini aniqlang.”

10-Masala.

“Korxonada oyiga 1500 dona mahsulot ishlab chiqariladi. Mahsulot birligining bahosi 500 so‘m, ishlab chiqarish xarajatlari 350 so‘m bo‘lsa,” korxonaning yalpi foydasi necha so‘mni tashkil qiladi?

11-Masala.

“Nominal YaMM 480 mlrd. So‘mdan 600 mlrd so‘mgacha, YaMM Deflyatori esa 120% dan 150% gacha ko‘tarildi. Bunday xolatda real YaMM xajmini aniqlang.”

12-Masala.

“Mamlakat xalq xo‘jaligida 2003 yilda 4210,5 mlrd. dollarlik YaMM ishlab chiqarilgan, 2002- yilda esa YaMM qiymati 3213,6 mlrd. dollarni tashkil etgan. 2003-yilga YaMM narx indeksini aniqlang.”

13-Masala.

“Nominal YaMM 500 mlrd. So‘mdan 450 mlrd. So‘mgacha, YaMM deflyatori esa 125 % dan 100 % gacha kamaygan bunday xolatda real YaMM xajmini aniqlang.”

14-Masala.

“Milliy iqtisodiyotda 3294,5 mlrd. So‘m, asosiy kapitalga qilingan xarajatlar 1136 mlrd. So‘m bo‘lganda SMM miqdorini aniqlang”.²⁶

3. Testlar

1. Makroiqtisodiyot qaysi darajadagi iqtisodiyot?

- a) butun xalq xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyot;
- b) iqtisodiyotning davlat sektori;
- c) iqtisodiyotning xususiy sektori;
- d) butun milliy va jahon iqtisodiyoti;
- e) jaxon iqtisodiyot.

2. Yalpi milliy mahsulot tushunchasi:

- a) yil davomida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida vujudga kelgan barcha tovarlar qiymati;
- b) oraliq mahsulotlar qiymati;
- c) yil davomida ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor bahosida hisoblangan hajmi;
- d) investitsiya va iste’mol tovarlari baxosi;

²⁶ Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ikki chigal tuguni va uning echimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil

e) ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor bahosida hisoblangan hajmi;

3. Pirovard mahsulot ma’nosi:

a) qaytadan ishlab chiqarilgan mahsulot;

b) sotish uchun xarid qilinadigan tovarlar;

c) iste’mol uchun tayyor bo‘lgan, sotilgan yoki sotiladigan tovar va xizmatlarning bozor bahosidagi hajmi;

d) iste’mol qilingan mahsulot;

e) sotib olingan mahsulot.

4. Nominal YaMM nima?

a) YaMMning ishlab chiqarish, tarqatish va foydalanishning rasmiy hisob-kitoblardan yashirin qismi;

b) ishlab chiqarish, qayta ishslash va qayta sotish uchun sotib olingan mahsulotlar;

c) joriy baholarda hisoblangan YaMM;

d) baholarning o‘zgarishini hisobga olib doimiy baholarda hisoblangan YaMM;

e) ishlab chiqarish uchun sotib olingan mahsulot.

5. Real YaMM nima?

a) baholarning o‘zgarishini hisobga olib doimiy baholarda hisoblangan YaMM;

b) ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste’mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati;

c) joriy bozor narxlarida hisoblangan YaMM;

d) ulgurji narxlarda hisoblangan YaMM;

e) barcha javoblar to‘g‘ri

6. Yalpi ichki mahsulot qiymatini aniqlashda qaysi usuldan foydalaniadi?

a) xarajatlar;

b) qo‘shilgan qiymat, xarajatlar, maksimumlar;

c) daromadlar, xarajatlar, qo‘shilgan qiymat;

d) daromadlar, xarajatlar, qo‘shilgan qiymat, maksimumlar;

e) daromadlar.

7. Milliy daromad nima?

a) Yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo‘lib, SMM dan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi;

b) ishlab chiqarish, qayta ishslash va qayta sotish uchun xarid qilingan qiymat;

c) Milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilgan resurslar miqdoriga yoki xarajat birligiga to‘g‘ri keladigan nisbiy miqdori;

d) to‘g‘ri javob yo‘q;

e) qayta ishslash uchun xarid qilingan qiymat.

8. Qaysi omil ta’sirida yalpi talab o‘zgaradi?

a) narx darajasining o‘zgarishi;

b) investitsion sarflardagi o‘zgarishlar;

c) inflyatsiya darajasi;

d) barcha javoblar to‘g‘ri;

e) xarajatlar o‘zgarishi.

9. YaIMni xarajatlar bo‘yicha hisoblashda quyidagi ko‘rsatkichlar umumlashtiriladi:

a) aholining iste’mol xarajatlari (C);

b) milliy iqtisodiyotga yalpi xususiy investitsiyalar (I);

c) tovarlar va xizmatlarni davlat xaridlari (G);

d) sof eksport (NX) + C+ I+ G;

e) to‘g‘ri javob yo‘q.

10. Daromad bo‘yicha hisoblangan YaIM:

a) ish haqi va ijara haqi;

b) foiz va foyda;

c) amortizatsiya, bilvosita soliqlar;

d) hammasi birgalikda olingan.

e) amortizatsiya.

10-MAVZU. IQTISODIYOTNING SIKLLILIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Topqirlilik mashqi
4. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Iqtisodiy inqiroz – asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning keskin tushib ketishi.

Iqtisodiy sikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchi inqirozga o‘tguncha qayta takrorlanib turadigan to‘lqinsimon xarakati.

Turg‘unlik (depressiya) – ishlab chiqarishning turg'un holatini anglatuvchi iqtisodiy tsiklning bosqichi, bu davrda iqtisodiy faoliyatning tiklanishi uchun shart-sharoitlarning paydo bo‘lish imkoniyati yaratiladi.

Jonlanish – iqtisodiy siklning ishlab chiqarish darajasi barqaror jonlanib borishiga o‘tishini tavsiflovchi fazasi.

Yuksalish – bu iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishish, ishlab chiqarishning inqirozgacha bo‘lgan darajadan oshib ketishi va samarali talabning kengayishi bilan tavsiflangan iqtisodiy tsiklning bosqichidir.

Tarkibiy inqirozlar – iqtisodiyotning ba’zi tarmoqlari va sohalari rivojlanishi natijasidagi chuqrur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.

Agrar inqirozlar – qishloq xo‘jaligida ro‘y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo‘lib, siklli tavsifga ega bo‘lmaydi va sanoat sikllariga nisbatan ancha uzoq davom etadi.

Ishchi kuchi – insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi.

Ishchi kuchini takror hosil qilish - bu iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishish, ishlab chiqarishning inqirozgacha bo‘lgan darajadan oshib ketishi va samarali talabning kengayishi bilan tavsiflangan iqtisodiy tsiklning bosqichidir.

Yalpi ishchi kuchi - bu qiymat va foydalanish qiymatini yaratishda ishtirok etuvchi va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda harakat

qiladigan jamiyat yoki yagona mamlakat miqyosidagi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui.

Ishchi kuchiga bo'lgan talab - turli ish beruvchilar tomonidan ish haqining hozirgi darajasida mehnat miqdori va sifatiga qo'yiladigan talab.

Ishchi kuchiga bo'lgan taklif - bu ish haqining hozirgi darajasida ma'lum bir vaqtida ishga olishga tayyor bo'lgan mehnatga layoqatli mehnat miqdori.

Aholining tabiiy o'sishi – bu aholining emigratsiya va immigratsiyadan tashqari harakati.

Emigratsiya – fuqarolarning o'z mamlakatlaridan boshqa mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tishi.

Immigratsiya – xorijiy fuqarolarning doimiy yashash uchun mamlakatga ko'chib kelishi.

Ishsizlik – ishslashga tayyor, lekin ish bilan ta'minlanmagan mehnatga layoqatli ishchi kuchi.

Friksion ishsizlik – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o'rinalar

bo'shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.

Tarkibiy ishsizlik – ishlab chiqarish tarkibi va yalpi talabning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik.

Tsiklik ishsizlik – iqtisodiy tsiklning inqiroz bosqichida yuzaga keladigan ishsizlik.

Ishsizlik darajasi – ishsizlar sonining umumiyligi ishchi kuchiga nisbatan ulushi.

Ouken qonuni – ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi

o'rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.²⁷

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1-Masala

“Mamlakatda band bo'lganlar 15 mln. kishi edi. Ishsizlar 3 mln. kishini tashkil etadi. Bir oy o'tgach 15 mln. ishlab turganlardan 0,5 mln.

²⁷ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

kishi ishdan bo‘shatildi; mehnat birjasidan rasman ishsiz, deb ro‘yxatdan o‘tgan 1 mln. kishi ish qidirishni to‘xtatdi. Ishsizlik darajasini, band bo‘lganlar soni, ishsizlar sonini aniqlang”.

2-Masala

“Mamlakatda iqtisodiy faol aholi 11 mln. kishini tashkil etadi. Undan 2 mln. kishi ishlamaydi. Yaratilgan YaIM 16 mlrd. dollarni tashkil etadi. Agar ishsizlikni tabiiy darajasi mamlakat uchun 5 % ni tashkil etsa, Ouken qonuniga binoan potensial YaIM ni hisoblang. Ishsizlik tufayli qancha YaIM kam yaratilgan? Ouken qonuni nimani ifodalaydi, koeffitsiyenti-chi? Izohlang”.

3-Masala

“Mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlarini ishga solinishining me’yordagi darajasiga nisbatan ish bilan ta’milanganligi 75% ni tashkil etadi. Iqtisodiyotda potensial YaIM ishlab chiqarish quvvatlarini 90% band bo‘lishiga to‘g‘ri keladi.

Yilning oxiriga kelib yaratilgan mahsulot 600 mlrd. dollarni, ishsizlik iqtisodiy faol aholiga nisbatan 11,5 % ni tashkil etadi. Agar ishlab chiqarish quvvatlari qisqarmagan bo‘lib, Ouken qonuni bo‘yicha hisoblangan koeffitsiyent shu mamlakat uchun ham to‘g‘ri desak:

- a) potensial YaIMni.
- b) To‘la bandlik ta’milanganmagani sababli yo‘qotilgan YaIM hajmini potensial YaIM ga nisbatan.
- v) Tsiklli ishsizlik tufayli yo‘qotilgan YaIM hajmini (mlrd. dollar va % da).
- g) Ishsizlikni tabiiy darajasini hisoblang”.

4-Masala.

“Agar mamlakatda ishchi kuchi 12,5 mln kishini, ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil qilsa, ishsizlik darajasi necha foizni tashkil qiladi”?

5-Masala

“Ihsizlikning tabiiy darajsi 4% ni, haqiqiy darajasi 9,3 % ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo‘yicha YaMM ning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi”?

6-Masala.

“Milliy iqtisodiyotda nominal YaMM 560 mlrd so‘mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqligi tufayli YaMM ning orqada qolishi 9,65 % ni tashkil qilsa iqtisodiyot qancha mahsulot yo‘qotgan bo‘ladi”?

7-Masala.

“Ishsizlik darajasi 7,5 % yoki ko‘zda tutilgan 4 % tabiiy darajadan 3,5% yuqori bo‘lgan. Bunda YaMM ning orqada qolishi qanchaga teng”?

8-Masala.

“Mamlakatda yil boshida ish bilan bandlar soni 180 mln kishi, ishsizlar soni esa 20 mln kishi. Yil davomida xar oyda o‘rtacha 1% ishchilar turli sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shagan, ishsizlar sonidan 20 % esa ishga joylashgan. Ishsizlikning tabiiy darajasini aniqlang.”

9-Masala.

“Ishchi kuchi 15,5 mln kishini, ishsizlik darajasi 11,6% ni tashkil etsa ishsizlar sonini aniqlang.”

10-Masala.

“Artur Ouken qonuniga binoan ishsizlik darajasining 1 foizga oshishi YaMM ning necha foizga kamayishiga olib keladi?”

11-Masala.

“Milliy iqtisodiyotda nominal YaMM 330 mlrd so‘m, ishsizlikning necha foizli tabiiy darajasiga erishilganda iqtisodiyot 29 mlrd so‘mlik mahsulotni yo‘qotgan bo‘ladi?”

12-Masala.

“Mamlakatda nominal YaMM 650 mlrd so‘mni, ishsizlikning tabiiy darajasidan ortiqligi tufayli YaMM ning orqada qolishi 9,65 % ni tashkil qilsa, iqtisodiyot qancha mahsulot yo‘qotgan?”


13-Masala.

“Mamlakatda ishsizlikning tabiiy darajasi 9,5 yoki ko‘zda tutilgan 5 % tabiiy darajadan 4,5 % yuqori bo‘lgan. Bunday xolatda YaMMning orqada qolishi qanchaga teng?”

14-Masala.

“Iqtisodiyotni inqirozga uchraganligi sababli o‘z ish o‘mini yo‘qotganlar ishsizlikning qaysi kategoriyasiga mansub?”²⁸

3. Topqirlilik mashqi.



Eniga

2. mikro va makro darajadagi iqtisodiyotlarni, funktional iqtisodiyotni, ko‘plab infratuzilmalarni o‘z ichiga olgan yaxlit iqtisodiyot
8. mamlakat miqyosida iqtisodiyotning o‘zaro aloqada va ta’sirda harakat qiladigan sohalari, tarmoqlari, hududiy tuzilmalarini bir butun qilib birlashtirgan milliy xo‘jalik tizimi

Bo‘yiga

1. ishlab chiqarish jarayoni yakunlangan, shaxsiy va unumli iste’mol qilishga tayyor bo‘lgan mahsulotlar
3. milliy iqtisodiyotda bir yil davomida vujudga keltirilgan va bevosita iste’molchilarga borib tushadigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlaridagi summasi

²⁸ Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ikki chigal tuguni va uning echimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil

4. ... – bu korxona yalpi mahsuloti bozor narxidan joriy moddiy xarajatlar chiqarib tashlangandan qolgan qismidir.

5. mahsulotlar va iqtisodiy resurslarni, xususan ishchi kuchini sotib olishga davlatning qilgan barcha sarflari

6. mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan mahsulot va xizmatlar umumiy hajmi

7. joriy narxlarda hisoblangan YaIM²⁹

4. Keyslar

1. O‘zbekistonda mehnat resurslari va iqtisodiyotda band aholining soni (shartli misol: 2020-yil, ming kishi)

1-jadval

Ko‘rsatkichlar	Aholining o‘rtacha miqdori	Mehnat resurslari	Iqtisodiy faol aholi	Iqtisodiyotda bandlar
O‘zbekiston	29993.5	17663,1	12850,1	12223.8
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1711.8			600.2
Andijon	2756.4			1176.3
Buxoro	1729.7			804.4
Jizzax	1205.0			402.9
Qashqadaryo	2831.3			1036.6
Navoiy	888.4			418.5
Namangan	2458.7			872.1
Samarqand	3380.7			1314.4
Surxondaryo	2260.6			843.0
Sirdaryo	750.6			334.8
Toshkent	2695.7			1215.5
Farg‘ona	3329.7			1398.8
Xorazm	1653.8			643.4
Toshkent sh.	2340.9			1162.2

“Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘yicha mehnat resurslari va iqtisodiy faol aholi miqdorini aniqlang. Jadvalni keyingi yil ma’lumotlari bilan to‘ldiring. Tahlil qilib, xulosa chiqaring. Mehnat resurslari bilan iqtisodiy faol aholining farqini ko‘rsating.”

²⁹ <https://spisok-literaturi.ru/cross/kategorii-gotovyh-crossvordov/ekonomika/milliy-iqtisodiyot-uzb.html>

Keys

2. Quyidagilar berilgan:

Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm
1. Foizlar	12
2. Yalpi xususiy investitsiyalar	55
3. Ish haqi va maosh	218
4. Korporatsiya foydasi	113
5. Biznesga egri soliqlar	22
6. Renta to'lovleri	20
7. Korporatsiya foydasiga soliq	50
8. Tovar va xizmatlar sof eksporti	7
9. Tovar va xizmatlarning davlat xaridlari	90
10. Sof xususiy investitsiyalar	45
11. Mulkdan daromadlar	21
12. Davlat korxonalariga sof subsidiyalar	2
13. Aholiga transfert to'lovleri	23
14. Aholi iste'mol xarajatlari	280

Ular asosida:

- a) YaIMni daromad va xarajatlari bo'yicha hisoblang;
- b) sof milliy mahsulot hajmini hisoblang;
- c) milliy daromad hajmini hisoblang. YaIMni hisoblashning qanday usullari bor? YaMM YaIMdan nimasi bilan farq qiladi? Izohlang.

Keys

3. Yil davomida mamlakatning yalpi xarajatlari va daromadlari tarkibi quyidagicha bo'lgan:

Ko'rsatkichlar	mlrd. so'm
1. Davlatning tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflari	670
2. Aholining shaxsiy iste'mol sarflari	2475
3. Mulkdan olingan daromadlar	520
4. Material, aylanma vositalar zaxirasining o'sishi	45
5. Tugallanmagan ishlab chiqarish	30
6. Iste'mol qilingan kapital xarajatlari (amortizatsiya)	370
7. Yollanma ishchilarning ish haqi	2170
8. Biznesga egri soliqlar	344
9. Sof ichki investitsiyalar	570

10. Transfert to‘lovlari	220
11. Korporatsiya daromadiga soliqlar	257
12. Qo‘yilgan kapitalga olingan foizlar	210
13. Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	170
14. Chet el ishlab chiqarish omillari bilan yaratilgan sof daromad	5 460
15. Sof eksport	276
16. Ijtimoiy sug‘urta, ishsizlarga yordam va boshqa to‘lovlari	200
17. Aholining uy-joy qurishga sarflari	18
18. Renta to‘lovlari	115
19. Dividendlar	

Ular asosida:

a) YaIM, YaMM, b) sof milliy mahsulot, milliy daromad hajmini aniqlang; d) sof milliy mahsulot va milliy daromad qanday iqtisodiy ko‘rsatkich, ularning o‘zgarishi nimani bildiradi. **Izohlang.**

Keys

5. “Quyidagi berilganlar asosida mamlakatda yaratilgan YaIMni xarakatlar va daromadlar bo‘yicha hamda sof milliy mahsulot, milliy daromad, shaxsiy daromad, uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromadni hisoblang. Shaxsiy daromad va uy xo‘jaliklari ixtiyoridagi daromad nimasi bilan farqlanadi? Sizningcha nima sababdan rivojlangan mamlakatlarda ish haqining ulushi yuqori? Fikringizni izohlang.”³⁰

Ko‘rsatkichlar	mlrd. so‘m		
1.Davlatning tovar va xizmatlar sotib olish uchun sarflari	72 245		
2. Aholining shaxsiy iste’mol sarflari	15		
3. Pensiya fondiga ajratmalar	7		
4. Iste’mol qilingan kapital sarflari (amortizatsiya)	16 17		
5. Dividendlar	141		
6. Import	18		
7. Yollanma ishchilarning ish haqi	13		

³⁰ T.Jo‘raev, D.Tojibaeva Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar) –T.: “Fan va texnologiya” 2012. 333 b.

8. Biznesga egri soliqlar	12		
9. Sof ichki xususiy investitsiyalar	19		
10. Transfert to‘lovlari	13		
11. Korporatsiya daromadiga soliqlar	21		
12. Qo‘yilgan kapitalga olingan foizlar			
13. Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	15		
14. Ishsizlarga yordam ko‘rsatadigan fondlarga ajratma	14		
15. Eksport	9		
16. Ijtimoiy sug‘urta badallari			
17. Ijara haqi	26		
18. Individual soliqlar (jismoniy shaxslarga soliqlar)			
19. Individual mulkdan daromad			

4. Testlar.

1. Stagnatsiya - bu

- a) bozordagi keskin vaziyat;
- b) xalqaro bitim;
- c) iqtisodiyotdagi tang holat;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q;
- e) iqtisodiy inqiroz.

2. Agrar inqirozlarning asosiy xususiyatlari nimalarda namoyon bo‘ladi?

- a) mahsulotlarning nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishida;
- b) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydaning kamayishida;
- c) tsiklli xarakterga ega bo‘lmaslikda va nisbatan uzoq davom etishida;
- d) ishlab chiqarishning qisqarishida;
- e) narxlarning pasayishi.

3. Iqtisodiy inqirozlarning asosiy mazmuni nimada?

- a) ishsizlikning ko‘payishi;
- b) narxlarning oshishida;
- c) ishlab chiqarilgan tovarlar massasining to‘lovga qobil talabidan oshib ketishi yoki kam bo‘lishida;

- d) ishlab chiqarish hajmining keskin kamayib ketishida;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

4. Iqtisodiy tsikl qanday harakatni ifodalaydi?

- a) iqtisodiyotnnig yuqorilab boruvchi chiziq shaklidagi harakati;
- b) milliy iqtisodiyotning bir iqtisodiy inqirozidan ikkinchi inqiroz boshlangunga qadar takrorlanib turadigan harakati;
- c) ishlab chiqarishning xajmining o‘zgarishi;
- d) takror ishlab chiqarish bosqichlarining o‘zgarishi;
- e) ishlab chiqarish jarayoni o‘zgarishlari.

5. Ishsizlikning tabiiy darajasi 4%ni, haqiqiy darajasi 9,3 %ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo‘yicha YaMMning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi?

- a) 5,3 %;
- b) 13,3 %;
- c) 13,25 %;
- d) 23,2 %;
- e) 10 %.

6. Ish haqi qiymati aniqlanadi:

- a) ishchi kuchi egasining fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan yashash vositalarining narxi;
- b) hukumat tomonidan belgilangan eng kam ish haqi;
- c) mehnat sotuvchisining hayotini ta’minlash va uning mehnat qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan yashash xarajatlari;
- d) ishchining barcha ehtiyojlarini qondirishi uchun zarur bo‘lgan yashash vositalarining narxi;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

7. Ishsizlarga quyidagilar kiradi:

- a) daromad keltiradigan faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan 18 yoshga to‘lgan shaxslar;
- b) daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan va unga intilmayotgan mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar;
- c) ish joyi bo‘lmagan, uni qidirayotgan, lekin bandlik xizmatida ro‘yxatdan o‘tmagan mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar;
- d) korxonaning moliyaviy qiyinchiliklari tufayli to‘liq bo‘lmagan ish kunida ishlaydigan shaxslar;

e) qonuniy ishda ishlamaydigan xodimlar.

8. Mehnat bozori - bu:

a) ishchi kuchi sotuvchilari va uning xaridorlari o‘rtasidagi talab va taklif vositasida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;

b) mehnat birjasи;

c) yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasidagi ishchilarni yollash va ishdan bo‘shatish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi;

d) mehnat shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq har qanday iqtisodiy munosabatlar;

e) yuridik va jismoniy shaxslarning bir joyda to’planishi.

9. Agar ishsizlik haddan tashqari ishlab chiqarishning iqtisodiy inqirozi natijasida yuzaga kelsa, u holda u quyidagi shaklni oladi:

a) friksion ishsizlik;

b) turg‘un ishsizlik;

c) davriy ishsizlik;

d) yashirin ishsizlik;

e) ochiq ishsizlik.

10. Ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish nuqtai nazaridan davlat uchun muhimroqdir:

a) ishsizlik nafaqasini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash;

b) fuqarolarning ish bilan ta’milanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

c) ishchi kuchining hududiy harakatchanligini rag‘batlantirish;

d) ishsizlarni tayyorlash va qayta tayyorlash;

e) qayta tayyorlash.

11-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Keys
4. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – davlatning jamiyat a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlovchi, umumiyligida iqtisodiy muvozanatga erishishga yo’naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha faoliyati.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o‘zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.

Davlatning iqtisodiy vazifalari – iqtisodiy tizimning amal qilishiga shart-sharoit yaratish va iqtisodiyotni tartibga solish hamda iqtisodiy o’sishni ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari – tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy vositalari birligi.

Bevosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish tavsifidagi ma’muriy vositalari.

Bilvosita usullar – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.³¹

³¹ И.К. Станковская, И.А.Стрелец. Экономическая теория. Учебник. Ростов на Дону.-2017 430 стр.

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1-Masala

“Quyidagi jadvalda to‘rtta iste’ molchining ma’lum bir mahsulotga talabining individual hajmi berilgan.”

	Narx (ming so‘m), talab hajmi, dona	10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1	Abduhamid	0	0	0	1	2	3	4	5	6	7
2	Odiljon	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
3	Olimjon	0	0	1	2	3	4	5	6	7	8
4	Erkinjon	0	1	2	3	4	5	6	7	8	7

- a) agar bu sof xususiy ne’mat bo‘lsa, bozor talabi hajmini aniqlang;
- b) agar u sof ijtimoiy ne’mat bo‘lsa, unga jamoa talabi miqdorini aniqlang.”

2-Masala

“Sof ijtimoiy ne’matlar taklifi quyidagicha

Narx	23	20	17	14	11	8	5	2	X
Taklif hajmi	9	8	7	6	5	4	3	2	X

Birinchi masalada berilganlardan foydalanib:

- a) sof ijtimoiy ne’matlarning samarali hajmini aniqlang.
- b) agar u xususiy sektorda ishlab chiqarilganda hajmi qancha bo‘lar edi?”³²

3. Keys

1. “Kichik shaharchada 240 ming aholi yashaydi. Ular teng uch guruhdan (80 ming kishidan) iborat deylik. Ijtimoiy ne’mat: yoritish uchun chiroq o‘rnatish qadr-qimmati har bir guruh uchun turlicha. Har bir guruh turli miqdorda chiroq o‘rnatish tarafдорлари: A guruh uchun individual talab $p = 1-0,01Q$ formulasida ifodalangan. Bu yerda: p – narx, Q – shaharchada chiroqlar miqdori.

Ikkinci V guruh uchun $p = 2-0,02Q$. Uchinchi S guruh uchun esa, $p = 3-0,03Q$.

Yo‘lga chiroqlar o‘rnatishdagi marjinal (me’yoriy) xarajatlar doimiy bo‘lib, 240 ming so‘mni tashkil qiladi. Shaharchada yo‘lga o‘rnatiladigan chiroqlarning optimal miqdori nechta?”

³² “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan Ishchi daftari: noiqtisodiy yo‘nalishlari uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: 2017. 275 b.

4. Testlar

1. Quyidagilardan qaysi biri davlatning iqtisodiyotga to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuvini ifodalamaydi?

- a) amortizatsiya siyosatini yuritish;
- b) huquqiy normativlar ishlab chiqish;
- c) ma’muriy tartibga solish;
- d) iqtisodiyot sektorida faoliyat yuritish;
- e) qonunlar qabul qilish.

2. Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, bu ...

- a) iqtisodiyotning erkin bo‘lishi uchun sharoit yaratish;
- b) milliy pulning qadri tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- c) ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlab, iqtisodiyotni falaj holatiga yo‘l qo‘ymaslik;
- d) aholini hayot kechirish farovonligini oshirish;
- e) iqtisodiy samaradorlikka erishish.

3. «Monetar qoida» ga muvofiq:

- a) davlat yalpi talab bilan yalpi taklif o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashi kerak;
- b) davlat real YAMMning potensial o‘sish sur’atiga mos ravishda pul taklifining o‘sish sur’atini ta’minlash va u amal qilayotgan qonunchilikda o‘z ifodasini topishi kerak;
- c) davlat byudjetining xarajat va daromadlarini muvofiqlashtirishni ta’minlash kerak;
- d) davlat naqd pullar va boshqa moliyaviy aktivlar o‘rtasidagi doimiy nisbatlarni ushlab turishi kerak;
- e) davlat inflyatsiyani eng past darajada ushlab turishga mas’ul.

4. Sof ijtimoiy tovarlar ...

- a) faqat davlat tomonidan ishlab chiqariladi;
- b) ulardan bir iste’molchi foydalanishi bilan boshqalar uchun kamayib qolmaydi;
- c) iste’mol qilishni faqat bu tovarlarga pul to‘laganlar bilan cheklab bo‘lmaydi;
- d) b) va c) javob to‘g‘ri;
- e) a) va b) javob to‘g‘ri.

5. Davlat qarzi nima?

- a) davlatning xorijiy davlatlardan qarzi;
- b) davlatning sof eksportdagi ulushining qisqarishi;
- c) davlat byudjetidagi taqchillikning o‘sishi;

d) davlatning o‘z fuqarolari, banklar, korxonalar, shuningdek xorijiy mamlakatlardan qarzi;

e) iqtisodiy inqiroz.

6. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari, bu...

a) tovar va xizmatlarning davlat tomonidan xarid qilinishi;

b) davlat transfert to‘lovlari;

c) ochiq bozordagi operatsiyalar;

d) foydaga solinadigan soliqlar;

e) subsidiya.

7. Davlatning soliqlarni tartibga solish siyosati quyidagilardan qaysi birida ifodalanadi?

a) monetar siyosatda;

b) pul taklifi o‘zgartirishga qaratilgan siyosatda;

c) tashqi iqtisodiy siyosatda;

d) fiksal siyosatda;

e) ijtimoiy siyosatda.

8. Davlatning xarajatlar va soliqlar bilan bog‘liq bo‘lgan siyosati, bu...

a) ijtimoiy-iqtisodiy siyosat;

b) monetar siyosat;

c) fiskal siyosat;

d) ijtimoiy siyosat;

e) real siyosat

9. Davlat daromadlarini qayta taqsimlashni qanday amalga oshiradi?

a) pul-kredit siyosati orqali;

b) transfert to‘lovlari orqali;

c) daromadlar siyosati orqali;

d) monopoliyalarga qarshi olib boradigan siyosat orqali;

e) soliqlar va transfert to‘lovlari orqali

10. Fiskal siyosatning asosiy dastagi qaysi?

a) foiz stavkasi;

b) soliqlar;

c) hisob stavkasi;

d) ayirboshlash kurslari;

e) to‘g‘ri javob yo‘q

12-MAVZU. JAHON XO‘JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI

Reja:

1. Asosiy tushunchalar
2. Mavzuga doir masala va topshiriqlar
3. Testlar

1. Asosiy tushunchalar

Jahon xo‘jaligi – xalqaro mehnat taqsimoti asosida savdo-ishlab chiqarish, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy va boshqa aloqalar orqali o‘zaro manfaatdorlik maqsadida birlashgan turli mamlakatlar xo‘jaliklari tizimi.

Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning

baynalminallahuvi – mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jabhalarini qamrab olish jarayoni.

Xalqaro mehnat taqsimoti – alohida olingen mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Globallashuv – jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar – jahonning turli mamlakatlari o‘rtasidagi xo‘jalik aloqalari majmui.

Kapitalning xalqaro harakati – kapitalning chet elda joylashtirilishi va harakat qilishi.

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi – ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta’milanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko‘chib o‘tishi.

Emigratsiya – aholining bir mamlakatdan doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga chiqib ketishi.

Immigratsiya – aholining shu mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

Eksport – tovarlarni chet ellik mijozlarga sotish bo‘lib, bunda mazkur mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar mamlakatdan tashqariga chiqariladi.

Import – chet ellik mijozlardan tovarlar (xizmatlar) sotib olib, ularni mamlakatga kiritish.

Reeksport – biror bir mamlakat boshqa mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni o‘z iste’moli uchun emas, balki uchinchi mamlakatga qayta sotish uchun xarid qilishi.

Reimport – iste’molchi mamlakatdan reeksport tovarlarni sotib olish.

Xalqaro valyuta tizimi – xalqaro valyuta munosabatlarining davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan shakli.

Valyuta kursi – bir mamlakat valyutasining boshqa mamlakat valyutasida ifodalangan narxi.

To‘lov balansi – mamlakat rezidentlari (uy xo‘jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o‘rtasida ma’lum vaqt oralig‘ida (odatda bir yilda) amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar natijasining tartiblashtirilgan yozuvi.

Iqtisodiy bitimlar – qiymatning har qanday ayirboshlanishi, ya’ni tovarlar ko‘rsatilgan xizmatlar yoki aktivlarga mulkchilik huquqining bir davlat rezidentlaridan boshqa davlat rezidentlariga o‘tishi bo‘yicha kelishuvlar.³³

2. MAVZUGA DOIR MASALA VA TOPSHIRIQLAR

1. “Quyidagi operatsiyalarning qaysi biri O‘zbekiston iqtisodiyoti nuqtai nazaridan kapital eksportiga tegishli.

a) O‘zbekiston Milliy Banki Tojikiston yirik kompaniyasiga 100 ming \$ dollar ssuda berdi.

v) O‘zbekiston importeri Rossiya «Zil» zavodidan olingan ehtiyyot qismlarni to‘lash uchun yirik Rossiya bankidan qisqa muddatli qarz oldi;

g) Toshkentdagi konditer fabrikasi Rossiyaning shokolad ishlab chiqaruvchi korporatsiyasining aktsiyalarini sotib oldi.”

2. “Quyida keltirilgan ma’lumotlar asosida «Delta» mamlakatining to‘lov balansini tuzing, har bir operatsiyani «kredit» va «debet»ga ajrating.

Neft eksporti _____ 6 mln.doll

Don Importi _____ 5 mln.doll.

³³ Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.

Qurol-asloha eksporti _____ 2 mln.doll.
Mamlakatga kelgan turistlardan _____ 6 mln.doll.
Mamlakatdan chet elliklarga o‘tkazilgan pullar _____ 2 mln.doll.
Frantsiya xususiy korparatsiyalarining aktsiyalarini sotib olish_6 mln.doll.
Chet el fuqarolaridan oltin sotib olish _____ 1 mln.doll.”

3. “Yuqoridagi masala (№2) ma’lumotlari asosida joriy balans va kapital harakati balansi bo‘limlari ko‘rsatilgan holda to‘lov balansini tuzing.”

4. “Valyuta bozorida 1 AQSH dollarining kursi 900 so‘mdan 1000 so‘mga

ko‘tarildi. Bu eksport va import miqdoriga qanday ta’sir qiladi?”

5. Tasavvur qiling, “AQSH va Angliya valyutalarining almashuv kursi 2 doll. AQSH da inflyatsiya sur’ati yiliga 3%, Angliyada esa - 10%.”

Jamg‘armani bu valyutalarning qaysi birida saqlash maqsadga muvofiq?

6. “Ikkita bir xil velosipedning bittasi Rossiyada ishlab chiqarilgan va narxi 4 mln. rubl, ikkinchisi AQSH da ishlab chiqarilgan bo‘lib narxi 2 ming doll. AQSH valyutasining nominal almashuv kursi 5000 rub/1 AQSH doll.ni tashkil etadi. Bunday holatda real almashuv kursi qanday bo‘ladi?”

7. Rossiya mototsikli narxi inflyatsiya tufayli 6 mln. rubl. bo‘lib qoldi. Agar valyuta nominal kursi o‘zgarmay qolsa, real almashuv kursi qanday bo‘ladi?”

8. “Quyidagi valyuta kurslarining qaysi biri O‘zbekiston iqtisodiyoti nuqtai nazaridan so‘mning to‘g‘ri kotirovkasi hisoblanadi.
1000 so‘m / 1 AQSH doll. yoki 0,001 AQSH doll./ 1 so‘m.”³⁴

³⁴ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

3. Testlar

1. Jahon xo‘jaligining tarkib topishida dunyoning hudud jihatidan bo‘lib olinishi, katta mustamlaka imperiyalar tashkil bo‘lishi muhim rol o‘ynagan. Bu jarayon qachon nihoyasiga yetgan?

- a) XVIII asr oxirlarida;
- b) XVIII asr oxiri XIX-asr boshlarida;
- c) XIX asr o‘rtalaridan boshlanib XIX-asr oxirida;
- d) XIX asr oxiri XX-asr boshlarida;
- e) XX asr boshidan boshlanib XX-asr o‘rtalarida;

2. Jahon xo‘jaligi tarkibidagi rivojlanish jihatidan yetakchi bo‘lgan mamlakatlarga ...

- a) aholi jon boshiga yaratilgan YAIM yuqoriligi;
- b) dunyo mineral resurslarini iste’mol qilishdagi ulushi yuqoriligi;
- c) YAIMda axborot kommunikatsiya xizmatining ulushi yuqoriligi;
- d) sanoat mahsulotida yuqori darajadagi intellektual salohiyatni talab qiluvchi tovarlar ulushining ko‘pligi;
- e) YAIMda agrar sektor ulushining yuqoriligi xos emas.

3. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar:

- a) Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti darajasida;
- b) barcha mamlakatlar bilan ko‘p tomonlama hamkorlik asosida;
- c) ko‘p tomonlama hamda ikki tomonlama hamkorlik asosida;
- d) barcha mamlakatlar bilan ikki tomonlama hamkorlik asosida;
- e) musulmon davlatlari doirasidagi hamkorlik asosida olib boriladi.

4. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar qanday tamoyillarga asoslanadi?

- a) umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlar mushtarakligiga;
- b) milliy va davlat manfaatlari birligiga;
- c) milliy va guruhiy manfaatlar uyg‘unligiga;
- d) umuminsoniy va qo‘shti mamlakatlar manfaati mushtarakligiga;
- e) turli qatlamlar manfaatlarini bir qilib, umumlashtirishga.

5. O‘zbekistonning jahon bozoriga kirib borishiga nima to‘sqinlik qilishi mumkin?

- a) chet el investorlarini jalg etish;
- b) pirovard mahsulotni ishlab chiqarishni ko‘paytirish;

- c) sanoatni mahalliylashtirish;
- d) noraqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish;
- e) mamlakat eksport salohiyatini kengaytirish.

6. Hozirgi paytda korporatsiyalarning asosiy maqsadi:

- a) foydani eng yuqori darajaga ko‘tarish;
- b) ishlab chiqarishni eng yuqori darajaga ko‘tarish;
- c) bozor hajmini eng yuqori darajaga ko‘tarish;
- d) ish bilan ta’millashni eng yuqori darajaga ko‘tarish;
- e) resurslarni ishga solishni eng yuqori darajaga ko‘tarish.

7. Xalqaro savdo tashkilotiga a’zo bo‘lgan mamlakatlar o‘zaro savdo qilganda boj to‘lovlar tovar qiymatining ...

- a) 10%;
- b) 15%;
- c) 8%;
- d) 5%;
- d) 12% dan oshmasligi kerak;
- e) 20 %.

8. Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHOS) qachon tuzilgan?

- a) 2001 yil 15 iyun;
- b) 2000 yil 15 iyun;
- c) 2002 yil 15 iyun;
- d) 2003 yil 15 iyun;
- e) 1999 yil 15 iyun;

9. Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatiga baho berishda qaysi ko‘rsatkich asosiy hisoblanadi?

- a) eksport hajmi;
- b) import hajmi;
- c) sof eksport hajmi;
- d) barterli ayriboshlash hajmi;
- e) bir-birini qoplovchi to‘lovlar hajmi.

10. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli nima?

- a) boj ittifoqi;
- b) to‘lov ittifoqi;
- c) erkin savdo zonalari;
- d) umumiy bozor;
- e) iqtisodiy va to‘lov ittifoqi.

AMALIYOT UCHUN MASALALAR TO‘PLAMI.

1. To‘qimachilik tarmog‘ida 1 yilda tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ish haqqi miqdori 30 mln so‘mni, to‘langan soliqlar va to‘lovlar miqdori 20 mln so‘mni, foyda miqdori 20 mln so‘mni tashkil etdi. Bunda iste’mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati 70 mln so‘mni tashkil etdi, shundan 40 mln so‘mi xom ashyo, yonilg‘i materiallar uchun va 30 mln so‘m amortizatsiya uchun sarflandi. Tarmoqdagi ichki milliy mahsulot miqdorini aniqlang.
2. Yalpi ichki mahsulot qiymatini aniqlashda qo‘llaniladigan usullarni tushintirib bering.
3. Agar mamlakatda ishchi kuchi 12,5 mln kishini, ishsizlar soni 1,3 mln kishini tashkil qilsa, ishsizlik darajasi necha foizni tashkil qiladi?
4. Ishchi kuchi 15,5 mln kishini, ishsizlik darajasi 11,6% ni tashkil etsa ishsizlar sonini aniqlang.
5. Firma 130 ming dollar, harajat qilib 10 ming dollar iqtisodiy foyda ko‘rgan. Harajatlar tarkibiga 5 ming dollarlik normal foyda kirgan. Korxonaning foyda normasini aniqlang.
6. Korxanining ijara xaqi 15000 sug‘urta puli 5000 so‘m. Qarz yuzasidan majburiyatlar 2000 so‘m amortizatsiya 1000 so‘m. Yoqilg‘i, energiya 15000 so‘m. Transport xizmat sarflari 5000 so‘m, ishchi – xizmatchilar ish haqi 250000 so‘m. Korxonaning umumiy harajatlari necha so‘mdan iborat.
7. Ish kuchining nominal ish haqi 574000 so‘m. Iste’mol byumlari va xizmat bahosi 40000 so‘m. Ishchi kuchining real ish haqini aniqlang.
8. Ish kuchining nominal ish haqi 607000 so‘m. Iste’mol byumlari va xizmat bahosi 40000 so‘m. Ishchi kuchining real ish haqini aniqlang. Asosiy kapitalning qiymati 40000 so‘m kapitalni ta’mirlash uchun sarflar 15000 so‘m xizmat davri 10 yil. Amortizatsiya normasini aniqlang.

9. Kalishga bo‘lgan talab 150 dona bo‘lganda, har bir juft kalish narxi 40 so‘mni

tashkil qilsin, talab 250 dona bo‘lganda bir juft kalish narxi 37 so‘m bo‘lsin.

Yoysimon elastik koeffitsientini hisoblang.

10. Toshkent fond birjasida 1 oktyabrdagi 1 donasi 1000 so‘m bo‘lgan 20.000 ta

aktsiyani 31 oktyabrgacha sotish bo‘yicha bitim imzolanadi. Oktyabr oyida aktsiya

kursi 1200 so‘mga chiqdi. Bu holatda kim va qancha miqdorda yutdi? (sotuvchimi yoki xaridormi?) Oktyabr oyida aktsiya kursi 900 so‘mgacha pasaysa nima bo‘ladi?

11. Tovar pullardan qog‘oz va kredit pulga o‘tishning afzalligi nimada? Tovar pullarga qisman qaytish mumkinmi?

12. Siz «Panasonik» firma magazinidan videomagnitofonni 500 ming so‘mga sotib olishingiz mumkin. Xuddi shunday magnitofon «Otchopar» bozoridagi audio-video texnika rastasidan 400 ming turadi. Boshqa sharoitlar teng. Bu farqning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

13. Olimjon Neksiya avtomobilini o‘tgan yili bozorda 5000000 so‘mga sotmagan edi. Bu yil esa 5600000 so‘m narx belgilandi. U mashinasini sotdi. Agar o‘tgan yilga nisbatan narx 20 % ga oshgan bo‘lsa, Olimjon mashinasini sotib to‘g‘ri qildimi?

14. Hafta davomida 60 ming so‘mdan 100 dona kostyum - shim sotildi. Ikkinci haftada esa kostyum-shim narxi 5 ming so‘mga pasaytirildi. Sotilgan kostyum-shim miqdori 150 donaga yetdi. Uchinchi haftada esa 109 ta sotildi. To‘rtinchi haftaga o‘tgach, atigi 50 dona sotildi. Talab elastikligini hisoblang. Elastiklik ko‘rsatkichidan kelib chiqib ishlab chiqarishga qanday topshiriq ketadi, izohlang.

15. Aytaylik iste’molchining budgeti 10 ming so‘m. U bozordan go‘sht xarid qilmoqchi. Qo‘y go‘shtinig kilosi 2500 so‘m, mol go‘shti esa 2000 so‘m. Agarda puli 1500 so‘mga ko‘paysa yoki aksincha 5000 so‘mga kamaysa, xaridor o‘z pulini go‘sht olish uchun qanday sarflashi mumkin? Uni mumkin bo‘lgan variantlarini ko‘rsating, grafikda tasvirlangan javobingizni izohlang.

16. Mukammal raqobatli firma yiliga 20 ming dona telefon ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishning o‘rtacha xarajatlari 21500 so‘m. O‘rtacha o‘zgaruvchi xarajatlar 17500 so‘m, bozor bahosi 25000 so‘m bo‘lsa, firma qancha foyda ko‘radi.

17. Erkinjonlarning 6 sotix tomorqasi bor. U har kuni tomorqada 30 minutdan ishlar edi. Endi u kuniga 1 soatdan ishlashga qaror qildi. Endi oladigan hosil 2 marta ko‘payadimi? O‘z fikringizni asoslang.

18. Aytaylik, 200 dona mahsulot ishlab chiqarish uchun 200 ming so‘m, 201 donasiga 201 ming so‘m, 202 donasiga 202 ming so‘m sarflanadi. Hozirgi paytda 201 ta mahsulot ishlab chiqarganda firma foydasini maksimal darajaga yetkazadi. Firmaga shoshqaloq xaridor murojaat qildi. Qo‘sishimcha bitta 202 mahsulot uchun u 3000 so‘m to‘lashga tayyor ekanligini uqtirdi. Agar qo‘sishimcha bitta mahsulot ishlab chiqarish va sotish firmaning boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishi va sotishiga xalaqit bermasa, u 202 mahsulotni ishlab chiqarishga rozi bo‘lishi kerakmi? Javobingizni izohlang.

19. Olimjon firmada injener bo‘lib, oyiga 500 ming so‘m maosh olardi. U kichik korxona tashkil qildi. Buning uchun 1500 ming so‘m bankdagi jamg‘armasini olib ishlatdi. Undan tashqari bankdan 3000 ming so‘m kredit oldi. Undan 3000 ming so‘mni uskunalar sotib olishga sarfladi. Agar yillik kredit prosenti 20 %, bankdagi saqlayotgan puliga yillik foiz 12 % bo‘lsa, iqtisodiy va buxgalteriya xarajatlarini hisoblang.

20. YaIM 2019-yili 18 mlrd. dollarni 2020-yili esa 25 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shu davrda narxlar 25 % o‘sgan. Nominal va real YaIM o‘sish sur’atini hisoblang. Iqtisodiy o‘sishga qanday omillar ta’sir qiladi?

21. Agar iqtisodiyotda milliy daromad 90 trln. so‘mni, bisnesga egri soliqlar

milliy daromadga nisbatan 5 foizni tashkil etsa va iste’mol qilingan kapital hajmi

24,5 trln. so‘m bo‘lganda YaIM ni aniqlang.³⁵

Keysni yaratish usuli

Keys ustida ishlayotganda, uning muallifi yoki tuzuvchisi hisobga olishi kerak bo‘lgan ba’zi muhim mezonlarni eslab qolishingiz kerak. Keyslar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak.

- Barcha ishtirokchilar tomonidan tushunish oson.
- Ishtirokchilar tomonidan haqiqatda hal qilingan vazifalarning yetarligi, ularning kundalik faoliyati.
- zamonaviy haqiqatga moslashish va zamonaviy ta’lim oldida turgan muammolar.

³⁵ D.Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi. To‘ldirilgan, 2-nashr o‘quv qo‘llanmasi. TMI., T.: 2005 y. 438 b.

- Aql.
- Xayrixohlik.
- Axloq va xushmuomalalik. Ishtirokchilarning improvizatsiyasi va ijodkorligi uchun joy va imkoniyatlarni taqdim etish, ijodiy bo'lish imkoniyati. Keys ma'lum bir tuzilishga ega. Mana shunday tuzilishning variantlaridan biri uchun namuna.

Keys namunasi

Komponentlar

Sarlavha sahifasi (sarlavha, muallif, sana)

1. Keys: kirish (keys qahramoni, hikoya, davomiyligi) asosiy qism (axborotning asosiy qismi, ichki intriga, muammo) yakuniy qism (vaziyat "to'xtab qolishi" mumkin, tegishli yechimni talab qiladi)
2. Keys uchun savollar
3. Ilova (keys uchun qo'shimcha ma'lumotlar: jadvallar, statistika, qo'shimcha tafsilotlar)
4. Xulosa (mumkin bo'lgan yechimning qisqacha tavsifi)
5. Keysni tahlil qilish bo'yicha uslubiy tavsiyalar (keysni hal qilishda muallifning yondashuvi)

Vaziyatni taqdim etishning tavsiya etilgan uslubi: birinchi shaxs – keys qahramoni, taqdim etilayotgan vaziyatning muallifi yoki guvohidan hikoya. Masalan: "Madina yoshlar bilan ishlash sohasida yangi boshlovchi mutaxassis sifatida birinchi marta ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. Jamoa murakkab va xilma xildir. Talabalarning aksariyati tasodifan ushbu universitetni ham, ushbu mutaxassislikni ham tanladilar. Tomoshabinlar yonidan o'tib, u iboralarni eshitdi...". Keys ustida ishlayotgan shaxsga vaziyatning mohiyatini aniqlash, aktyorlarni, hissiy holatni, tashkilotning xususiyatlarini, harakat sodir bo'ladigan joyni va hokazolarni aniqlashga imkon beradigan ma'lumotlarni taqdim etish muhimdir.

Keys "Ilova" mavjudligini nazarda tutadi. Bu qo'shimcha va birinchi qarashda ortiqcha ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hajm jihatidan ta'sirchan ma'lumot bo'lishi mumkin. Masalan, bu statistik ma'lumotlar, ta'lim muassasalarining bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisobotlari, vasiylik organlaridan oilaning xususiyatlari, ilmiy maqolalar, shaxsiy kundaliklardan parchalar bo'lishi mumkin. Ushbu ma'lumotlar bizga bir nechta yechimlarni taklif qilishimizga imkon beradi va talabalar

e'tiborini, ularning fikriga ko'ra, eng muhim jihatlarga qaratishga imkon beradi.

Keys ustida ishlashni boshlashda ishning maqsadini shakllantirish, uning taklif etilayotgan o'quv intizomidagi o'rnini aniqlash kerak.

Keysni yechish natijasida o'quvchilar egallashlari mumkin bo'lgan ko'nikma va malakalar ro'yxatini tuzibgina qolmay, balki o'quvchilarda shakllantiriladigan malakalar ro'yxatini ham aniqlash zarur.

Keysni ishlab chiqishda talabaga ishni hal qilishga, ma'lum ko'nikmalarni ishlab chiqishga yordam beradigan savollarni shakllantirish tartibi muhim ahamiyatga ega. Savollar ochiq bo'lishi kerak va yashirin yoki aniq javoblarni o'z ichiga olmaydi. Masalan: "muammoli vaziyat qanday?", "Ushbu vaziyatni hal qilishning muqobillari qanday?", "Kim qaror qabul qilishga qodir/javobgar?", "Vaziyatni hal qilish uchun nima qilingan (tegishli shaxsni nomlanishi)?" va hokazo.

Keys ishlab chiquvchiga, shuningdek, uning fikriga ko'ra, eng afzalroq bo'lgan echimini tavsiflash tavsiya etiladi. Bu taklif qilingan yechim yagona to'g'ri degani emas. Talabalar ishlab chiqilgan o'z yechimi bilan bir qatorda taklif qilingan muqobil variantlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Bu taklif qilingan vaziyatga mumkin bo'lgan yechimlarni tushunishni kengaytiradi.

Bizning fikrimizcha, guruhdagi keysni tahlil qiladigan o'qituvchi yoki moderator uchun uslubiy tavsiyalarga ega bo'lish muhimdir.

Quyidagi keysni misol tariqasida keltiramiz. Ma'lumki, qo'shma korxona, boshqa har qanday korxona kabi, marketing bo'limi va marketing tadqiqotlari guruhini tashkil qilmasdan faoliyat ko'rsata olmaydi. Marketing faoliyat masalasi kutib tura olmasligi sababli qo'shma korxona prezidenti iqtisodiy masalalar bo'yicha vise-presidentga korxona marketing faoliyatini boshqarish tuzilmasini ishlab chiqish, marketing bo'limi bajarishi lozim bo'lgan funksiyalarni hisobga olgan holda bo'lim uchun kadrlarni tanlab olish vazifasini topshirdi.

O'z navbatida vise-prezident marketing bo'limi rahbariga boshqaruv tuzilmasini ishlab chiqish, bo'lim faoliyati turlarini aniqlash va bundan kelib chiquvchi vazifalarni belgilash vazifasini topshirdi:

1. Bo'limni boshqarish tuzilmasini ishlab chiqish.
2. Kadrlarni tanlash va o'qitish.
3. Marketing bo'limida ichki faoliyat turlarini aniqlash.
4. Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlash, material sarfi va yuklama xarajatlarni hisobga olish tartibini belgilash.

5. Tovar zahiralari va ularning aylanmasi tezligi, tovarzahiralari nazorat qilish usullarini tahlil qilish.
6. Rejallashtirish va nazorat maqsadida marketing tadqiqotlaribyudjetini ishlab chiqish:
 - ◆ byudjetni ishlab chiqish maqsadlari;
 - ◆ byudjetni tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkil etish;
 - ◆ qo'shma korxonaning boshqa bo'limlari bilan marketingbo'limining aloqasi;
 - ◆ kassa byudjeti va undan naqdi pulni boshqarishda foydalanish.
7. Kapital xarajatlар rejasini baholash:
 - ◆ ishlab chiqarishning asosiy vositalariga qo'yilmalar hajmi;
 - ◆ kapital xarajatlarni rejallashtirish;
 - ◆ kapital qo'yilmalar hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar;
 - ◆ kapital xarajatlarni tejashni baholash usullari.
8. Korxonaning marketing faoliyati haqida hisobot tuzish jarayonini ishlab chiqish. Vaziyatli masalani qo'shma korxonaning marketing bo'limi va ekspertlar yig'ilishida ko'rib chiqish hamda uning faoliyati bo'yicha marketing tadqiqotlari asosida tavsiyalar ishlab chiqish zarur. Vaziyatni tahlil qilish va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish uchun 24 soat vaqt ajratiladi.

FANDAN NAZORAT SAVOLLARI

1. Iqtisodiyot tushunchasi va uning bosh muammosi.
2. Iqtisodiyotning doimiy muammolari.
3. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatida shakllanishi.
4. Iqtisodiyot nazariyasidagi asosiy oqimlar.
5. Iqtisodiyot nazariyasi faniningpredmeti.
6. Iqtisodiy munosabat tushunchasi va uning turlari.
7. Iqtisodiy hodisa – jarayonlar va ularning tartiblanishi.
8. Iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar.
9. Iqtisodiy qonunlar tizimi va ularning amal qilish mexanizmi.
10. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ilmiy bilish usullari.
11. Iqtisodiyot nazariyasining fan sifatidagi vazifalari.
12. Iqtisodiyot nazariyasi - barcha iqtisodiy fanlarning metodologik asosi va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi ekanligi.
13. Hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurining shakllanishida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolarini bilishda iqtisodiyot nazariyasi fanini o‘rganishning ahamiyati.
14. Iqtisodiyot nazariyasi fani rivojida iqtisodiy g‘oyalarning tutgan o‘rni va roli.
15. Merkantistik ta’limotning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va mohiyati.
16. Iqtisodiyot nazariyasi fani rivojida merkantilizm birinchi iqtisodiy maktab ekanligi.
17. Turli mamlakatlarda merkantilizm ta’limotining o‘ziga xos xususiyatlari.
18. Iqtisodiyot nazariyasi fanida Antuan Monkretennenning “Siyosiy iqtisod” trakti g‘oyalarining mazmuni.
19. Iqtisodiyot nazariyasi fanida merkantilizmning tarixiy o‘rni va roli.
20. Iqtisodiyot nazariyasi fanida klassik iqtisodiy mактабning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoitlari va uning tavsifi.
21. Angliya klassik iqtisodiy maktabi asoschisi Uilyam Pettining iqtisodiy g‘oyalarining mazmuni.
22. Uilyam Pettining boylik, qiymat, pul va daromadlar to‘g‘risidagi nazariya-larining mazmuni.

23. Fiziokratlarning sof mahsulot, kapital to‘g‘risidagi iqtisodiy nazariyalarining mohiyati.
24. Iqtisodiyot nazariyasi fanida F. Kene “Iqtisodiy jadval” asari mazmuni va ahamiyati.
25. Iqtisodiyot nazariyasi fanida Adam Smit iqtisodiy ta’limotining o‘rni va roli.
 - A. Smitning iqtisodiy ta’limotida bozor iqtisodiyoti mehanizmi nazariyasining mohiyati.
26. Klassik iqtisodiy maktabning rivojlanishida David Rikardo iqtisodiy ta’limotining roli va tutgan o‘rni.
27. D. Rikardonning qiymat, pul, renta, kapital, ish haqi va foyda to‘g‘risidagi iqtisodiy nazariyalarining tarihiy ahamiyati.
28. Iqtisodiyot nazariyasi fani rivojida J.B.Sey iqtisodiy ta’limotining roli va tarihiy o‘rni.
29. Hozirgi zamon iqtisodiyot fanida Marjinalizmning tutgan o‘rni va roli.
30. Jamiyat ehtiyojlari, ularning mazmuni va turlari.
31. Ehtiyojlarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.
32. Ehtiyojlarning tarkibi, aholi, korxona va jamiyat ehtiyojlari.
33. Ehtiyojlarni iqtisodiy taraqqiyot darajasi va jamiyatning iqtisodiy tabiatiga bog‘liq bo‘lishi.
34. Moddiy, sotsial-ma’naviy va mehnat ehtiyoji mazmuni.
35. Ehtiyojlarning tabaqalanishi, sabablari va omillari.
36. Ehtiyojlarning cheksizligi va ularni qondirish xususiyatlari.
37. Iqtisodiy resurslar tushunchasi.
38. Iqtisodiy resurslarning turlari va tarkibi.
39. Resurslarning makroiqtisodiy doiraviy aylanish jarayoni va uning mohiyati.
40. Iqtisodiy resurslar, mahsulotlar va pul mablag‘larining doiraviy aylanish jarayoni va uning mohiyati.
41. Cheklangan resurslar sharoitida cheksiz ehtiyojlarni qondirish muammosi.
42. Ehtiyojlarni qondirishning muqobil turlari va ulardan eng samaralisini tanlash.
43. Ehtiyojlarni qondirish usullari.
44. Ehtiyojlarning qondirilish darajasi va uning ko‘rsatkichilari.
45. Iste’molning oqilona me’yori va ehtiyojlarning qondirish darajasi.

46. Ehtiyojlarning qondirilish darajasiga ta'sir etuvchi omillar.
47. Iste'mol jarayonining mohiyati, unumli va shaxsiy iste'mol.
48. Ehtiyojlarning qondirilishi.
49. Iqtisodiy faoliyat mazmuni va uning turlari.
50. Mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va nafla ishlar bajarish faoliyatlarining mazmuni.
51. Ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mazmuni va uning o'ziga xosligi.
52. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, uning maqsad va vazifalari
53. Iqtisodiyot nazariyasi fanida "ishlab chiqarish omillari" nazariyasining mohiyati.
54. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayoni va uning mazmuni.
55. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanishi, «mahsulot», «tovar», «xizmat» tushunchalari.
56. Tovar va uning xususiyatlari.
57. Tovarning qadr-qiymati va nafliligi.
58. Naflilik va qiyomat nazariyalari.
59. Tovar nafliligining narxga ta'siri.
60. Tovar va xizmatlar qadr-qiymatini tushunishning muqobilligi.
61. Tovarning qiymati to'g'risidagi klassik va marginal nazariyalari.
62. Iqtisodiyot nazariyasi fanida yangi klassik oqimlar mazmuni.
63. A.Marshalning qiyomat va narxning shakllanish nazariyasi.
64. Pul - tovar ayirboshlash rivojlanishining mahsuli ekanligi.
65. Pulning xususiyatlari va asosiy vazifalari.
66. Hozirgi zamon pulining mazmuni va tabiatи.
67. O'zbekistonda milliy pul-so'mning muomalaga kiritilishi va uning ahamiyati.
68. Milliy so'mni qadrini mustahkamlashning shartlari va yo'llari.
69. Bozor iqtisodiyoti tushunchasi.
70. Bozor iqtisodiyotining tub belgilari va ularning iqtisodiy mazmuni.
71. Iqtisodiyotni tartiblashda davlat va bozor mehanizmini uyg'unlashtirishning o'ziga hosligi.
72. Bozor iqtisodiyotida sotsial adolat qoidalari.

73. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlarning yuqori chegarasi va uning rag‘batlantiruvchilik roli.
74. Madaniylashgan bozor iqtisodiyoti, uning xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlar.
75. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va kamchiliklari.
76. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning asosiy yo‘llari.
77. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning sobiq sotsialistik, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar yo‘llari.
78. Buyruqli iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning xususiyatlari.
79. Iqtisodiyotni erkinlashtirishning mohiyati va mezonlari.
80. Iqtisodiyot sub’ektlarining tabaqlashuvi.
81. Milliy mustaqillikni ta’minlashning iqtisodiy asoslari.
82. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning besh tamoyili.
83. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning bosqichlari va ularning xususiyatlari.
84. O‘zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirishning ahamiyati.
85. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor vazifalari.
86. Bozor tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni.
87. Bozorning vazifalari va ularning mazmuni.
88. Bevosita va bilvosita bozor aloqalari va ularning mohiyati.
89. Bozorning ob’ektlari va sub’ektlari.
90. Bozorni turkumlanishining jihatlari va mazmuni.
91. Tartibsiz, tartiblanadigan bozor va ularning mohiyati hamda belgilari.
92. Bozor infratuzilmasi va uning unsurlari.
93. O‘zbekistonda milliy bozor va uning infratuzilmasini shakllantirish muammolari.
94. Talab tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni.
95. Individual va bozor talabining iqtisodiy mazmuni.
96. Talab qonuni va uning mohiyati.
97. Talab elastikligi va uning ko‘rsatkichi.
98. Talab miqdoriga ta’sir qiluvchi omillar.
99. Taklif tushunchasi va uning iqtisodiy mazmuni.
100. Taklif qonuni va uning mohiyati.
101. Taklif miqdoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.
102. Taklif va ishlab chiqarish hajmining o‘zaro bog’liqligi.
103. Taklif elastikligi va uning ko‘rsatkichi.

104. Bozor muvozanati va uni ta'minlash omillari.
105. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati va asosiy belgilar.
106. Tadbirkorlik faoliyatining shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.
107. Individual tadbirkorlikning mohiyati va uning iqtisodiyotda tutgan o'rni.
108. Iqtisodiyotda jamoa va davlat tadbirkorligi mazmuni.
109. Ishlab chiqarish, tijorat va moliyaviy sohalardagi tadbirkorlik.
110. Tadbirkorlarning tashkiliy - huquqiy shakllari va ularning iqtisodiy mazmuni.
111. Iqtisodiyotda shaxsiy egalik, sherikchilik va korporatsiyalarning tutgan o'rni va roli.
112. Tadbirkorlikda, kichik va yirik korxonalarini uyg'unlashtirish.
113. Aksionerlik jamiyati va aksionerlik kapitalining mohiyati.
114. Aksionerlik jamiyatini tashkil qilinishi va faoliyatining asosiy tamoyillari.
115. Tadbirkorlik kapitalining mohiyati va doiraviy aylanishining bosqichlari.
116. Kapitalning aylanishi va uning ko'rsatkichlari.
117. Asosiy va aylanma kapital hamda ularning mohiyati.
118. Mehnatga haq to'lashning mohiyati va uning mazmuni.
119. Ish haqining iqtisodiy mazmuni.
120. Nominal va real ish haqi.
121. Real ish haqining darajasi va dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.
122. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi darajasining tabaqalanishi.
123. Ish haqi va unda tarif tizimining tutgan o'rni.
124. Raqobatning mohiyati va turlari.
125. Raqobatning iqtisodiy asoslari va maqsadi.
126. Raqobat va uning rivojlanish bosqichlari.
127. Raqobat sub'ektlarining iqtisodiy mazmuni.
128. Raqobat strategiyasi va uning ro'yobga chiqarilishi.
129. Sof va cheklangan raqobatning mohiyati va uning namoyon bo'lishi.
130. Monopolistik raqobatning mohiyati va uning namoyon bo'lishi.
131. Oligopolistik raqobatning mohiyati va uning namoyon bo'lishi.
132. Sof monopolistik raqobatning mohiyati va uning namoyon bo'lishi.

133. Tarmoqlararo raqobat va tarmoqlar ichidagi raqobat.
134. Raqobat usullari: narx yordamida va narxsiz raqobat.
135. Raqobat iqtisodiyotni xarakatlantiruvchi kuch ekanligi.
136. Antimonopol qonunchilik va uning asosiy yo‘nalishlari.
137. O‘zbekiston Respublikasining antimonopol qonunchiligi va raqobatchilik muxitining vujudga kelishi.
138. Milliy (makro) iqtisodiyot tushunchasi va uning makroiqtisodiy o‘lchamlari.
139. Iqtisodiy islohotlarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va roli.
140. Makroiqtisodiyot sub’ektlari va ularning mazmuni.
141. Makroiqtisodiyotning asosiy mezoni va ko‘rsatkichlari.
142. YaIM va o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi.
143. Milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarning maqsadi.
144. Yalpi ichki mahsulot va uning harakat shakllari.
145. Nominal va real yalpi ichki mahsulot.
146. Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari.
147. Jahon moliyaviy istisodiy inqirozining yalpi milliy mahsulot va iqtisodiy farovonlikka ta’siri.
148. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri.
149. Ishsizlik va uning turlari.³⁶

³⁶ K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.

FANDAN TEST SAVOLLARI

1. Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti nimadan iborat?

- a) ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish;
- b) iqtisodiy munosabatlarni va ijtimoiy xo‘jaliklarni samarali yuritishning iqtisodiy qonun-qoidalarini o‘rganish;
- c) huquqiy munosabatlarni o‘rganish;
- d) tabiiy jarayon va hodisalarni o‘rganish.

2. Iqtisodiy nazariya usuli:

- a) analiz va sintez, induksiya va deduksiya;
- b) analogiya va ilmiy abstraksiya, iqtisodiy va matematik usullar;
- c) funksional tahlil usuli, limitli tahlil usuli
- d) yuqoridaqilarning barchasi.

3. Iqtisodiyot nazariyasining asosiy vazifalari:

- a) kognitiv;
- b) uslubiy va amaliy;
- c) prognostik;
- d) a, b, c

4. Ehtiyoj - bu...

- a) talab;
- b) hayotiy vositalarga bo‘lgan zaruriyat;
- c) iste’mol jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vosita;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

5. Ishlab chiqarish nima?

- a) bu odamlarning tovar yaratishga qaratilgan faoliyati;
- b) odamlarning turli tovarlarni yaratish uchun ishlab chiqarish omillaridan foydalanish faoliyati;
- c) bu odamlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan maqsadli faoliyati;
- d) bu xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda odamlarning o‘zaro ta’siri jarayonidir.

6. Asosiy ishlab chiqarish omillari:

- a) mehnat va kapital;
- b) kapital, tadbirkorlik;

- c) mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik, bilim;
- d) mehnat, yer, kapital, tadbirkorlik.

7. Milliy mahsulotning takror ishlab chiqarish jarayoni qanday?

- a) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish;
- b) ishlab chiqarish va ayirboshlash;
- c) ishlab chiqarish va iste'mol qilish;
- d) ayirboshlash va iste'mol qilish.

8. Pulning qaysi vazifasi narxning shakllanishi bilan bog'liq?

- a) muomala vositasi;
- b) qiymat o'lchovi;
- c) jamg'arma vositasi;
- d) jahon puli.

9. Monopollashgan bozor deganda:

- a) oligopolistik bozor tushuniladi;
- b) sof monopoliya bozori tushuniladi;
- c) ozchilik sotuvchilar bilan xaridorlar hukmron bo'lgan bozor tushuniladi;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

10. Bozor iqtisodiyotining asosiy sub'ektlari:

- a) firma, korxona, uy xo'jaliklari;
- b) uy xo'jaligi, korxona, davlat;
- c) korporatsiya, fermer xo'jaligi, davlat;
- d) davlat, korporatsiya, korxona.

11. Bozor regulatori amal qilishi uchun:

- a) oligopoliyaga yo'l berish kerak;
- b) erkin bozor raqobatiga yo'l berilishi zarur;
- c) monopoliyaga imkon berish lozim;
- d) noto'g'ri javob yo'q.

12. Tovar (bozor) xo'jaligini vujudga kelishining asosiy shartlari:

- a) mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi;
- b) xususiy mulk asosida ijtimoiy mehnat taqsimoti va ishlab chiqaruvchilarning yakkalanishi;
- c) ortiqcha mahsulotlarning paydo bo'lishi va ishlab chiqaruvchilarning xususiy mulk asosida yakkalanishi;
- d) resurslarning erkin almashinushi +a, b, c

13. Bozorni tartibga solish mexanizmi:

- a) talab, taklif, baho, raqobat;
- b) monopoliya, oligopoliya, monopsoniya;
- v) tadbirkorlik, biznes, foyda;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

14. Agar talab kamayib, taklif ortib ketsa, u holda:

- a) muvozanat miqdori kamayadi;
- b) muvozanat bahosi pasayadi;
- c) a) va b) to‘g‘ri.
- d) barcha javoblar noto‘g‘ri.

15. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning qanday modellari mavjud?

- a) Osiyocha model;
- b) Sobiq sotsiolistik mamlakatlar modeli;
- c) Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlari modeli;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

16. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tish qaysi yo‘l bilan boryapti?

- a) Turkiya modeli asosida;
- b) «karaxt qilib davolash», yo‘li bilan;
- c) evolyutsion yo‘l bilan;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri.

17. Boshqa narsalar teng bo‘lsa, taklifning ko‘payishi quyidagilarga olib keladi:

- a) muvozanatli narx va miqdorning oshishiga;
- b) muvozanat bahosi va muvozanat hajmining pasayishiga;
- c) narxning oshishiga va miqdorning kamayishiga;
- d) narxning pasayishi va jismoniy sotish hajmining oshishi.

18. Talab- bu...

- a) ehtiyoj;
- b) pul bilan ta’minlangan ehtiyoj;
- c) tovar qiymatining puldagi ifodasi;
- d) hammasi to‘g‘ri.

19. Yalpi xarajatlar:

- a) doimiy va aniq xarajatlar miqdori;
- b) ishlab chiqarishning har bir aniq darajasidagi doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlar yig‘indisi;
- c) o‘rtacha ishlab chiqarish xarajatlari yig‘indisi;

d) yuqoridagilarning barchasi.

20. Bozor iqtisodiyoti quyidagilar tomonidan boshqariladi:

- a) iqtisodiy jarayonlarning stixiyali kuchlari;
- b) eng muvaffaqiyatli tadbirkorlar;
- c) tovar iste'molchilari va ishlab chiqaruvchilari;
- d) bozor iqtisodiyoti sub'ektlari faoliyatida namoyon bo'ladigan iqtisodiy qonunlar.

21. Taklif- bu...

- a) iste'molchi sotib olishga qodir bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdori;
- b) ishlab chiqaruvchi bozorga sotishga chiqaradigan tovarlar va xizmatlar miqdori;
- c) tovar va xizmatlarning sotuvidan olinadigan daromad;
- d) to'g'ri javob yo'q.

22. Taklifga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- a) sotuvchilar va xaridorlarning miqdori;
- b) tovar va resurslarning narxi, talab va raqobat;
- c) bozordagi monopolistlar va monopolistik raqobat;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

23. Taklif qonuni- bu...

- a) narx oshishi bilan taklif ham oshadi va aksincha;
- b) narx oshishi bilan taklif kamayadi va aksincha;
- c) narx pasayishi bilan taklif oshadi va aksincha;
- d) to'g'ri javob yo'q.

24. Bozor muvozanati- bu...

- a) talab va taklif miqdorining tengligi;
- b) talabning taklifdan ortda qolishi;
- c) haddan tashqari ko'p ishlab chiqarish;
- d) narx bilan tovarlar miqdori o'rtaсидаги bevosita yoki to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik.

25. Tovar va xizmatlarning nafligi nima?

- a) bahoga ega bo'lishi;
- b) ehtiyojni qondirish layoqati;
- c) iste'mol xususiyatiga ega bo'lishi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

26. Raqobat turlari:

- a) sof (erkin) raqobat, monopolistik, oligopoliya va monopoliya;
- b) firmalararo, bozorlararo va sof monopoliya;

- c) mintaqaviy, kontsernlararo, funktsional va yashirin;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

27. Korxonaning foydasi nimadan iborat?

- a) tushum minus xarajatlar;
- b) daromad minus doimiy va o‘zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari;
- c) bu yalpi daromad va yalpi xarajatlar o‘rtasidagi farq;
- d) o‘rtacha daromadlar va o‘rtacha xarajatlar o‘rtasidagi farq.

28. Monopsoniya- bu...

- a) tarmoqda u qadar ko‘p bo‘lмаган korxonalarning hukmronlik qilishi;
- b) bozorda u qadar ko‘p bo‘lмаган исте’molchilarning hukmronligi;
- c) tanho исте’molchining hukmronligi;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

29. Oligopsoniya- bu...

- a) erkin raqobat;
- b) bozorda ko‘plab sotuvchilar o‘z mahsulotlarini taklif qiladilar;
- c) hammasi to‘g‘ri;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

30. Narx - bu...:

- a) oldi-sotdi vositasi;
- b) ishchi kuchining bahosi;
- c) qiymatning va naflililikning puldagi ifodasi;
- d) qo‘sishimcha qiymat.

31. Baholar oralig‘idagi farqlarning puldagi miqdoriy ifodasi qanday nom bilan ataladi?

- a) baho ko‘rsatkichi;
- b) baho diapazoni;
- c) baho chegarasi;
- d) yuqoridagi barcha nom bilan.

32. Aktsiyaning daromad keltirishiga ko‘ra qanday turlari mavjud?

- a) oddiy va imtiyozli;
- b) yutuqli va yutuqsiz;
- c) birlamchi va ikkilamchi;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

33. Dividend - bu...

a) aktsioner jamiyati so‘f foydasining aktsionerlarga tegadigan bir qismi;

b) qimmatli qog‘oz;

c) iqtisodiy yordam;

d) to‘g‘ri javob yo‘q.

34. Narx quyidagilarga asoslanadi:

a) o‘z resurslari xarajatlari;

b) ishlab chiqaruvchining mahsulot ishlab chiqarishda qilgan xarajatlari;

c) ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zarur mehnat xarajatlari;

d) mahsulot ishlab chiqarish uchun korxona tomonidan qoplanadigan moddiy va pul resurslari xarajatlari.

35. Kompaniyani boshqarishda asosiy narsa nima?

a) direktor va ishchi;

b) prognozlash va rejorashtirish;

c) reklama va reklama beruvchi;

d) samaradorlik

36. Doimiy xarajatlar 72 ming so‘m, o‘zgaruvchan xarajatlar 188 ming so‘m bo‘lganda 520 dona mahsulot ishlab chiqarilsa, mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan umumiylar necha so‘mni tashkil qiladi?

a) 5000 so‘m;

b) 500 so‘m;

c) 5 so‘m;

d) 550 so‘m.

37. Korxonada oyiga 1500 dona mahsulot ishlab chiqariladi.

Mahsulot birligining bahosi 500 so‘m, ishlab chiqarish xarajatlari 350 so‘m bo‘lsa, korxonaning yalpi foydasi necha so‘mni tashkil qiladi?

a) 275000;

b) 225000;

c) 235000;

d) 215000.

38. Asosiy kapital nima?

a) ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib o‘zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo‘lib-bo‘lib o‘tkazib boradi;

- b) ishchi kuchini yollash, renta va foiz to‘lovlari;
- c) bu unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to‘liq iste’mol qilinadigan o‘z qiymatini yaratilgan mahsulotga o‘tkazadigan va ashyoviy buyum shaklini ham yo‘qotadigan qismi;
- d) hamma javoblar to‘g‘ri.

39. Aylanma kapital nima?

- a) ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib o‘zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo‘lib-bo‘lib o‘tkazib boradi;
- b) ishchi kuchini yollash, renta va foiz to‘lovlari;
- c) bu unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to‘liq iste’mol qilinadigan o‘z qiymatini yaratilgan mahsulotga o‘tkazadigan va ashyoviy buyum shaklini ham yo‘qotadigan qismi;
- d) hamma javoblar to‘g‘ri.

40. Amortizatsiya qanday jarayonni aks ettiradi?

- a) asosiy kapitalning jismoniy eskirishini;
- b) asosiy kapitalning eskirishiga muvofiq ularning mahsulotga ko‘chgan qiymatini pul shaklida hisoblab borishini va o‘rnini qoplash maqsadida pul fondlari jamg‘arish jarayonini;
- c) asosiy kapitalning jismoniy va ma’naviy eskirish jarayonini;
- d) yuqoridagilarning barchasini.

41. Foyda nima?

- a) yalpi daromad minus yalpi xarajatlar;
- b) yalpi daromad minus o‘zgaruvchan xarajatlar;
- c) yalpi daromadning narxga nisbati;
- d) mahsulotning bir birligidan olinadigan daromad.

42. Mamlakatda ish haqining umumiylar darajasiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

- a) foydalanilgan umumiylar miqdori;
- b) foydalanilgan tabiiy resurslar miqdori;
- c) mehnat unumdorligi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

43. Kasaba uyushmalari ish haqi darajasini oshirishga qanday yo‘llar bilan erishishi mumkin?

- a) ishchi kuchiga talabni oshirish orqali;
- b) ishchi kuchi taklifini qisqartirish orqali;
- c) mehnat unumdorligini oshirish orqali;
- d) yuqoridagi barcha yo'llar bilan.

44. Makroiqtisodiyot qaysi darajadagi iqtisodiyot?

- a) butun xalq xo'jaligi darajasidagi iqtisodiyot;
- b) iqtisodiyotning davlat sektori;
- c) iqtisodiyotning xususiy sektori;
- d) butun milliy va jahon iqtisodiyoti.

45. Pirovard mahsulot ma'nosi:

- a) qayta ishlanadigan mahsulot;
- b) sotish uchun xarid qilinadigan tovarlar;
- c) iste'mol uchun tayyor bo'lgan, sotilgan yoki sotiladigan tovar va xizmatlarning bozor bahosidagi hajmi;
- d) iste'mol qilingan mahsulot.

46. Real YaMM nima?

- a) baholarning o'zgarishini hisobga olib doimiy baholarda hisoblangan YaMM;
- b) ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste'mol qilingan xom-ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining bozor qiymati;
- c) joriy bozor narxlarida hisoblangan YaMM;
- d) ulgurji narxlarda hisoblangan YaMM.

47. Yalpi ichki mahsulot qiymatini aniqlashda qo'llaniladigan usullar?

- b) xarajatlar
- b) qo'shilgan qiymat, xarajatlar, maksimumlar
- c) daromadlar, xarajatlar, qo'shilgan qiymat
- d) daromadlar, xarajatlar, qo'shilgan qiymat, maksimumlar.

48. Milliy daromad nima?

- a) Yangidan vujudga keltirilgan qiymat bo'lib, SMM dan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo'li bilan aniqlanadi;
- b) ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan qiymat;
- c) Milliy ishlab chiqarish real hajmining foydalanilgan resurslar miqdoriga yoki xarajat birligiga to'g'ri keladigan nisbiy miqdori;
- d) to'g'ri javob yo'q.

49. Qaysi omil ta'sirida yalpi talab o'zgaradi?

- a) narx darajasining o'zgarishi;
- b) investitsion sarflardagi o'zgarishlar;
- c) inflyatsiya darajasi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

50. Jamg'arish normasi qanday aniqlanadi?

- a) jamg'arish fondining butun milliy daromad hajmiga nisbatining foizdagi ifodasi;
- b) shaxsiy daromadning iste'mol darajasiga nisbatining foizdagi ifodasi;
- c) aholi umumiy daromadlarining tirikchilik ne'matlari va xizmatlar uchun foydalanadigan qismi;
- d) to'g'ri javob yo'q.

51. Innovatsiya -

- a) yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqarishga mablag'larni yo'naltirish;
- b) eksport uchun mablag'larni yo'naltirish;
- c) xalq xo'jaligi tovarlari importini kuchaytirish;
- d) to'g'ri javob yo'q.

52. Ekstensiv iqtisodiy o'sishga qanday erishiladi?

- a) ishlab chiqarish omillari miqdorining oshirilishi tufayli;
- b) ishlab chiqarish omillarini sifat jihatdan rivojlantirish tufayli;
- c) ishchi kuchiga yuqori darajadaoylik maoshi to'lash tufayli;
- d) rivojlangan texnika-texnologiyadan foydalanish tufayli.

53. Quyidagi nisbatlardan qaysi biri retsession farqni ifodalaydi?

- a) SMM>yalpi taklif;
- b) SMM <yalpi taklif;
- c) SMM>yalpi sarflar;
- d) to'g'ri javob yo'q.

53. Stagnatsiya - bu

- a) bozordagi keskin vaziyat;
- b) xalqaro bitim;
- c) iqtisodiyotdagi tang holat;
- d) to'g'ri javob yo'q.

54. Iqtisodiy inqirozlarning asosiy mazmuni nimada namoyon bo'ladi?

- a) ishsizlikning oshishida;

- b) narxlarning o'sishida;
- c) ishlab chiqarilgan tovarlar massasining to'lovga qobil talabidan oshib ketishi yoki kam bo'lishida;
- d) ishlab chiqarish hajmining keskin kamayib ketishida.

55. Ishsizlikning tabiiy darajasi 4 % ni, haqiqiy darajasi 9,3 % ni tashkil qilsa, Ouken qonuni bo'yicha YaMMning orqada qolishi necha foizni tashkil qiladi?

- a) 5,3 %;
- b) 13,3 %;
- c) 13,25;
- d) 23,2.

56. Byudjet - bu

- a) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul shaklidagi daromad va sarf-xarajatlari;
- b) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi sarf-xarajatlari;
- c) davlat, korxona, muassasaning qonuniy tartibda tasdiqlangan davrga mo'ljallangan pul ifodasidagi daromadlari;
- d) to'g'ri javob yo'q.

57. Inflyatsiya - bu

- a) Milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi;
- b) eksportni importga nisbatan nihoyatda ortib ketishi;
- c) muomaladagi pul massasining tovarlar massasidan yuqoriligi natijasida tovarlar bilan ta'minlanmagan pullarning ko'payib ketishi;
- d) barcha javoblar to'g'ri.

58. Deflyatsiya - bu.....

- a) milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishini bildiradi;
- b) eksportning importga nisbatan nihoyatda ortib ketishini bildiradi;
- c) narx-navoning pasayishini, pul qadrining ortishini bildiradi;
- d) ijtimoiy mahsulotning pasayishi va ishsizlikning ko'payishini bildiradi.

59. Kreditning mazmuni qaysi bandda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) O'z mulki bo'lgan pul resurslarini istalgan vaqtida, xech qanday xarajatlarsiz foydalanish;

b) o‘zgalar pul mablag‘ini ma’lum muddatga haq to‘lash sharti bilan qarzga olish va muddati kelganda qaytarish;

c) davlat yoki mahalliy byudjet xisobidan qaytarmaslik sharti bilan taqsimlangan mablag‘.

d) to‘g‘ri javob yo‘q.

60. O‘zbekiston Respublikasining bank tizimi necha bo‘g‘indan iborat?

a) Markaziy bank, tijorat va xususiy banklar;

b) Markaziy bank va tijorat banklari;

c) davlat, xususiy, chet el va tijorat banklari;

d) to‘g‘ri javob yo‘q.

61. Pul emissiyasi nima ma’noni anglatadi?

a) pullarni almashtirish;

b) iqtisodiyotga qo‘sishimcha pul massasini chiqarish;

c) iqtisodiyotdan qo‘sishimcha pul massasini yig’ib olish;

d) to‘g‘ri javob a va b.

62. Devalvatsiya -

a) biror davlat pul birligi qadrining oshishi;

b) boshqa mamlakatlar valyutasiga nisbatan milliy yoki xalqaro pul birligi kursining pasayishi;

c) fuqarolarning bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to‘lov;

d) to‘g‘ri javob yo‘q.

63. Respublikada ijtimoiy himoyalashning asosiy yo‘nalishini ko‘rsating.

a) axolining kam ta’minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash;

b) faol ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;

c) daromadlarning eng kam va o‘rtacha darajasini muntazam oshirib berish;

d) barcha javoblar to‘g‘ri.

64. O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosatning tub mohiyati nimalarda ko‘rinadi?

a) ijtimoiy tabaqalar o‘rtasida mumkin qadar tenglik tamoyilining joriy qilinishida;

b) millatlararo hamjihatlikni va xalqaro totuvlikni vujudga keltirishda;

- c) kam ta'minlangan ijtimoiy tabaqalarning manfaatlarini himoya qilish orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda;
- d) ish haqi darajasini oshirishda.

65. Subsidiya nima?

- a) baholar orasidagi farqni davlat tomonidan qoplab berilishi;
- b) moliyaviy nochor korxonalarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash vositasi;
- c) ijtimoiy fondlarga to'lovlar;
- d) bozorning muvozanat nuqtasi.

66. «Transfert to'lovlar» - deganda:

- a) bozor sektoriga qabul qilingan ishchilarning ish haqi;
- b) davlat sektoridagi xodimlarning daromadlari;
- c) kichik mulkdorlar daromadi (foyda, renta, foiz, dividend);
- d) kam ta'minlangan aholi qatlamlariga, nogironlarga, qariyalarga, boquvdagi kishilarga, ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar.

67. O'zbekiston tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarni shakllantirishda qanday tamoyillarga amal qilmoqda?

- a) faqat umuminsoniy manfaatlarni inobatga olish;
- b) faqat milliy manfaatlar asosida ish yuritish;
- c) sinfiy va umuminsoniy manfaatlarga asoslanish;
- d) umuminsoniy va milliy manfaatlarning mushtarakligi asosida ish yuritish;

68. OPEK tashkilotiga a'zo davlatlari ishslash faoliyatları sohalari qanday?

- a) metallurgiya sohasida;
- b) mashinasozlik sohasida;
- c) neftni ishlab chiqarish va sotish bilan;
- d) yengil sanoat sohasida.

69. Import - ...

- a) iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yish uchun tuzilgan shartnoma;
- b) xorijiy mamlakatlarga sotilgan mahsulot, ish va xizmatlarning umumiyligi miqdori;
- c) mahalliy rezidentlar orqali xorijdan sotib olingan tovar va xizmatlar umumiyligi miqdori;
- d) to'g'ri javob yo'q.

70. Jahon valyuta tizimi o'zining rivojida nechta bosqichdan iborat?

- a) 6 ta;

- b) 3 ta;
- c) 4 ta;
- d) to‘g‘ri javob yo‘q.

71. Valyuta kurslarining o‘zgarishiga qanday omil ta’sir ko‘rsatadi?

- a) mamlakatlar milliy daromadining o‘zgarishi;
- b) xalqaro narxlardagi nisbiy o‘zgarishlar;
- c) milliy valyutalarga talab va taklifning o‘zgarishi;
- d) barcha javoblar to‘g‘ri;

72. Korxona daromadining aksiyadorlar o‘rtasida taqsimlanadigan qismi:

- a) foyda;
- b) dividendlar;
- c) foiz;
- d) annuitet to‘lovleri.

73. Ish haqi

- a) ishchi kuchining normal takror ishlab chiqarilishini ta’minlash uchun xodimga mavjud bo‘lgan yashash vositalari hajmining pul ifodasi;
- b) har qanday faoliyat uchun haq: bonuslar, to‘lovlar, sovg‘alar;
- c) mehnat birligidan ma’lum vaqt davomida foydalanganlik uchun to‘lanadigan narx;
- d) mehnatga haq to‘lash.

74. Iqtisodiy foyda:

- a) tadbirkorning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga xos bo‘lgan noaniqlik bilan bog‘liq tavakkalchiliklari uchun to‘lanadigan haq;
- b) yangilik uchun mukofot;
- c) bozorda monopol hokimiyatga ega bo‘lganlik uchun mukofotlar;
- d) a), b), c).

75. Iqtisodiy foyda quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- a) cheklangan resurslardan samarali foydalanishga ko‘maklashish;
- b) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish;
- c) texnik yangiliklarni joriy etish;
- d) resurslarni mahsulotga talab yuqori bo‘lgan tarmoqlarga o‘tkazish

76. Quyidagilardan qaysi biri korxonaning aylanma mablag‘lari tarkibiga kiradi?

- a) ish haqini to‘lash uchun mo‘ljallangan mablag‘lar;
- b) jihozlar;
- c) xomashyo, yordamchi materiallar, yoqilg‘i;
- d) bank hisobvaraqlaridagi mablag‘lar;

77. Uskunaning muddatidan oldin eskirishidan qanday yo‘qotishlarni oldini olish mumkin?

- a) kapital qurilish;
- b) kapital ta’mirlash;
- c) korroziyaga qarshi choralar;
- d) texnologiyadan foydalanish intensivligini oshirish?

78. Jahon xo‘jalik munosabatlari tizimida yetakchi o‘rinni quyidagilar egallaydi:

- a) xalqaro mehnat migratsiyasi;
- b) fan va texnika sohasida almashinuv;
- c) kapital va xorijiy investitsiyalar harakati;
- d) tovarlar va xizmatlarning xalqaro savdosi.

79. Jahon bozori deganda quyidagilar tushunilishi kerak:

- a) dunyodagi eng yirik tovar birjalarida amalga oshiriladigan operatsiyalar;
- b) dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi tovar va xizmatlar aylanmasi sohasi;
- c) sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi talab va taklif orqali vositachilik qilinadigan iqtisodiy munosabatlar;
- d) eksport va import jami.

80. Eksport bu:

- a) tovarlar va boshqa boyliklarni bir hududdan boshqa hududga olib chiqish;
- b) ushbu hududga boshqa hududlardan tovarlar va boshqa boyliklarni olib kirish;
- c) tashqi bozorlarda sotish uchun ma‘lum bir mamlakatdan tovarlar va boshqa boyliklarni olib chiqish;
- d) import qiluvchi mamlakatning ichki bozorida sotish uchun chet eldan tovarlar va boshqa qimmatliklarni olib kirish.

81. Xorijiy investorlar uchun qaysi omillar mamlakatdagi investitsiya muhitini yaxshilashi va qaysi biri yomonlashishi

mumkin?

- a) uzoq muddatli soliq imtiyozlarini joriy etish;
- b) mamlakatda davlat mulkining ustunligi;
- c) foydani repatriatsiya qilish shartlarini soddalashtirish;
- d) bojxona rejimlarining beqarorligi?

82. Iqtisodiy tsikl - bu:

- a) iqtisodiyotdagи makroiqtisodiy muvozanatning buzilishi;
- b) bozor iqtisodiyotining beqarorligi;
- c) real YaIMda ifodalangan tadbirkorlik faolligi (biznes tsikli) darajasining davriy tebranishlari;
- d) mehnat bozoridagi nomutanosiblik.

83. Davomiyligi bo'yicha tsikllar quyidagilarga bo'linadi:

- a) qisqa muddatli (Kitchin tsikllari);
- b) o'rta muddatli (Juglar tsikllari);
- c) uzoq muddatli (katta Kondratieff tsikllari);
- d) a), b), c) javoblar to'g'ri.

84. Iqtisodiy inqiroz deganda:

- a) ishlab chiqarish hajmining pasayishi;
- b) umumiyligida bozor taklifi bozor talabidan yuqori, bu esa umumiyligida ishlab chiqarishni keltirib chiqaradi;
- c) ishlab chiqarish darajasining pasayishiga olib keladigan ishlab chiqarish resurslarining etishmasligi;
- d) bozorda tovar taqchilligi, bu taqchillikka va narxlarning oshishiga olib keladi.

85. Jon Keyns nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy inqirozga quyidagilar sabab bo'ladi:

- a) ishlab chiqarish resurslariga narxlarning oshishi;
- b) yalpi talabning qisqarishi;
- c) iste'molga marjinal moyillikning pasayishi;
- d) soʻf eksportning kamayishi.

86. Keyns nazariyasiga ko'ra, inqirozga qarshi siyosat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) muomaladagi pul massasining cheklanishi;
- b) davlat byudjeti taqchilligini kamaytirish;
- c) davlat xarajatlarining o'sishi;

d) soliqlarni undirishni kuchaytirish.

87. Iqtisodiyotdagi tsiklik tebranishlar quyidagicha ko‘rib chiqilishi kerak:

- a) kompaniyaning moddiy va moliyaviy yo‘qotishlari;
- b) bozor iqtisodiyotining kamchiliklari;
- c) iqtisodiy taraqqiyot omillaridan biri;
- d) ishsizlikning kuchayishi va ishchilarning qashshoqlashishi.

88. Depressiya bosqichidan chiqish uchun quyidagi shaklda surish kerak:

- a) ishlab chiqaruvchilarga soliqlarni kamaytirish;
- b) xorijiy investitsiyalarning o‘sishi;
- c) yangi ishlab chiqarish texnologiyalari;
- d) davlatning iqtisodiyotga aralashuvi.

89. Agar ishsizlik haddan tashqari ishlab chiqarishning iqtisodiy inqirozi natijasida yuzaga kelsa, u holda u quyidagi shaklni oladi:

- a) friksion ishsizlik;
- b) turg‘un ishsizlik;
- c) davriy ishsizlik;
- d) yashirin ishsizlik.

90. Ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish nuqtai nazaridan davlat uchun muhimroqdir:

- a) ishsizlik nafaqasini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash;
- b) fuqarolarning ish bilan ta’milanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- c) ishchi kuchining hududiy harakatchanligini rag‘batlantirish;
- d) ishsizlarni tayyorlash va qayta tayyorlash.

91. Inflyatsiyani tezlashtirmaydigan ishsizlik darajasi nima deyiladi?

- a) to‘liq bandlik darajasi;
- b) muvozanatli ishsizlik;
- c) ishsizlikning tabiiy darajasi;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

92. Iqtisodiyotda pul taklifi (pul massasi) quyidagilarni ta’milaydi:

- a) hukumat;
- b) mamlakat Moliya vazirligi;
- c) Markaziy bank;
- d) Markaziy bank mamlakat hukumati bilan kelishilgan holda.

93. Iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun davlat quyidagi yo'llar bilan mablag‘ to‘playdi:

- a) soliqlar;
- b) kreditlar;
- c) pul muomalasi;
- d) barcha sanab o‘tilgan usullar.

94. Mamlakatning davlat byudjeti jamlanma moliyaviy reja sifatida:

- a) mamlakat hukumati tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi;
- b) hukumat tomonidan tuziladi va mamlakatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi;
- c) mamlakatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi;
- d) ijro hokimiyatining barcha tarmoqlari tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi.

95. Davlat byudjeti taqchilligi deganda quyidagilar tushunilsin:

- a) byudjet daromadlarining xarajatlardan oshib ketishi;
- b) byudjet xarajatlарining daromadlardan oshib ketishi;
- c) byudjetning daromad va xarajatlar qismlarining tengligi;
- d) yuqoridagilarning hech biri.

96. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat:

- a) soliq stavkalarini oshirish orqali byudjet daromadlarini oshiradi;
- b) emissiya hisobiga byudjet daromadlarini oshiradi;
- c) byudjet xarajatlarini minimal talab darajasigacha qisqartiradi;
- d) byudjetni minimal zarur chegaralar doirasida ushlab turish, unga bozor hal qila olmaydigan muammolarni hal qilish imkonini beradi.

97. Davlat qarzi bu:

- a) shu kungacha to‘plangan davlat budgeti taqchilligi summasi (davlat budgeti profitsiti summasini olib tashlagan holda);
- b) yillik davlat byudjetining xarajatlar qismining ushbu byudjetning daromad qismidan oshib ketishi;

- c) davlatning boshqa davlatlar oldidagi qarzi miqdori;
- d) davlatning banklar va boshqa moliya institutlari oldidagi qarzlari miqdori.

98. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning quyidagi funksiyalaridan qaysi biri asosiy hisoblanadi?

- a) nazorat qilish;
- b) bozor tizimining samarali faoliyat yuritishi uchun qulay huquqiy baza va ijtimoiy muhitni ta'minlash;
- c) daromad va boylikni qayta taqsimlash;
- d) resurslarni qayta taqsimlash.

99. Davlatning iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qilishning qaysi iqtisodiy vositalardan foydalanishni nazarda tutadi:

- a) fiskal siyosat;
- b) pul-kredit siyosati;
- c) davlat iqtisodiy dasturlash va prognozlash;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

100. Inson taraqqiyoti indeksiga (BMT Inson taraqqiyoti indeksi) qanday ko'rsatkichlar kiradi?

- a) aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot;
- b) o'rtacha umr ko'rish;
- c) ta'lim darajasi;
- d) hammasi birgalikda olingan.

101. Ushbu ro'yxatdan xarajat moddalarini tanlang:

- a) ish haqi;
- b) dividendlar;
- c) uy ijara to'lovi;
- d) renta.

102. Quyidagilardan qaysi biri qimmatli qog'ozlarga kiradi?

- a) aktsiya;
- b) obligatsiya;
- c) veksel, bank sertifikati;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

103. Birja indeksi nima?

- a) aksiya bahosining umumiy ko'rsatkichi;

b) mamlakatning yetakchi korxonalarini aksiyalarining o‘rtacha bahosi;

c) bu unga kiritilgan qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblangan o‘rtacha statistik ko‘rsatkich;

d) mamlakatning yetakchi sanoat kompaniyalari aksiyalarining o‘rtacha bahosi.

104. Iqtisodiyotda daromadlar taqsimotidagi tengsizlik qanday ko‘rsatkichlar yordamida o‘lchanadi?

a) Doy Jons indeksi;

b) Jini indeksi;

c) Lorents egri chizig‘i;

d) b) va c).

105. Xorijiy investorlar uchun qaysi omillar mamlakatdagi investitsiya muhitini yaxshilashi va qaysi biri yomonlashishi mumkin?

a) uzoq muddatli soliq imtiyozlarini joriy etish;

b) mamlakatda davlat mulkining ustunligi;

c) foydani repatriatsiya qilish shartlarini soddalashtirish;

d) bojxona rejimlarining beqarorligi?

106. Iqtisodiy o‘sish nima?

a) resurslardan samarali foydalanish;

b) mehnat unumдорligini oshirish;

c) ma‘lum vaqt oralig‘ida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hisobiga to‘liq bandlik holatida real YaIMning o‘sishi;

d) innovatsiyalardan foydalanish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish.

107. Balanslangan byudjet nima (yoki defitsit qoidalari);

a) umumiy daromad va xarajatlar o‘rtasidagi muvozanat;

b) davlat taqchilligi hajmini cheklash (YaIMdagi ulush);

c) joriy hisobdagi daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi muvozanat (ya’ni, qarz olishga faqat kapitalning chiqib ketishini moliyalashtirish uchun ruxsat beriladi);

d) yuqoridagilarning barchasi.

108. Qaysi ko‘rsatkichlar davlat qarzi yuki darajasini ko‘rsatadi?

- a) YaIMga nisbatan qarz;
- b) eksportga qarz;
- c) eksportga nisbatan davlat qarziga (foiz to‘lovlariiga) xizmat ko‘rsatish.
- d) a), b), v).

109. Qanday inflyatsiya o‘rtacha deb ataladi?

- a) yiliga 10 % gacha;
- b) yiliga 10 % dan 100 % gacha;
- c) yiliga 100 % dan ortiq;
- d) yiliga 1000 % va undan yuqori.

110. Inflyatsiyaning asosiy sababi nima?

- a) ishlab chiqarish xarajatlarining o‘sishida, ish haqining o‘sishi mehnat unumdorligining o‘sishidan ustun bo‘lganda;
- b) yalpi talabdagagi tarkibiy o‘zgarishlar bilan yalpi taklifning tarkibiy o‘zgarishlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikda;
- c) firmalarning monopol hokimiyatini saqlab qolishda, kasaba uyushmalari monopoliyasining mavjudligida;
- d) yuqoridagilarning barchasi.

**TALABALARING MUSTAQIL ISH MAVZULARI TO‘PLAMI
VA UNGA QO‘YILGAN TALABLAR**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va mulkchilik munosabatlari.
2. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari
3. Narxning mohiyati va shakllanish xususiyatlari
4. Korxona (firma) xarajatlari va foydasi
5. Agrar munosabatlari va agrobiznes
6. Yalpi talab va yalpi taklif
7. Iste’mol, jamg‘arma va investitsiyalar
8. Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy o‘sish va milliy boylik
9. Milliy iqtisodiyotning muvozanatli va mutanosibli rivojlanishi.
10. Ishchi kuchi, uning bandligi va ishsizlik
11. Moliya tizimi va moliyaviy siyosat
12. Pul-kredit tizimi. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi roli

13. Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning roli
14. Aholi turmush darajasi va daromadlari
15. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirib borishi.
16. Jahon bozori, xalqaro valyuta va kredit munosabatlari
17. Iqtisodiy rivojlanishda yalpi maxsulotning tarkibi va tutgan o‘rni.
18. Yalpi xususiy investitsiyalar va ularni yalpi ichki maxsulotlarini daromadlar bo‘yicha hisoblash usullari
19. Ishlab chiqarishda, YaIM qo‘shilgan qiymat asosida hisob-kitob olib boorish qaysi sohalarga xosligi.
20. O‘zbekistonda bandlik va mehnat bozorini rivojlantirish istiqbollari.
21. O‘zbekistonda mehnat bozorini rivojlantirish yo‘llari.
22. Mehnat bozorini rivojlantirishda davlat siyosati.
23. O‘zbekiston Respublikasida demografik vaziyat va uni taxlil qilish yo‘llari.
24. Axoli va mehnat resurslarini bashorati – ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishni taxlili.
25. Axolini ish bilan bandligini tartibga solishda xorij tajribasi.
26. Innovatsion rivojlanishini iqtisodiy o‘sishga bo‘lgan ta’siri
27. O‘zbekistonda investitsiya siyosati strategiyasi.
28. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri xususiyatlari
29. Globalizatsiya – jaxon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyasi sifatida
30. Bozor iqtisodiyotining rivojlanishida ijtimoiy-siyosat prinsiplari va xususiyatlari
31. Jaxon xo‘jaligida xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning tutgan o‘rni
32. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish yo‘llari va shakllari

33. Raqobatbardoshlik turlari va raqobatbardosh bozorlar
34. O‘zbekistonda raqobat muhitini shakllanishi
35. Pul-kredit siyosati va uning bozor iqtisodiyotida rivojlantirish yo‘llari
36. Bozor iqtisodiyotida pulning vazifasi va roli
37. Davlat korxonalari va ularni xususiyashtirish yo‘llari
38. Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishda davlatning tutgan o‘rni
39. Davlat korxonalarining O‘zbekiston Respublikasi sharoitida davlat tasarrufidan chiqarish yo‘llari
40. Milliy iqtisodiyot va uning o‘lchamlari
41. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi va ularni rivojlantirish usullari
42. Yalpi ichki maxsulot (YaIM), yalpi milliy maxsulot va uning xarakat shakllari (misollarda)
43. Iqtisodiy o‘sishni mazmuni, turlari va ko‘rsatkichlari (O‘zbekiston Respublikasi sanoatida)
44. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish shakllari va ularni kichik biznesda tutgan o‘rni
45. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni ustuvor tarmoqlarga yo‘naltirish usullari
46. Iqtisodiy o‘sish modellari
47. Makroiqtisodiy muvozanatlik, uning turlari va shart-sharoitlari.

Mustaqil ishlash jarayonida barcha g‘oya va ma’lumotlarni yodda saqlab qolishga urinmang. Materialning eng asosiy bo‘lgan ma’lumotlar mazmun va mohiyatini bilib olishga harakat qiling.

Mustaqil ishni ustida ishslashda quyidagilarga amal qiling:

1. Mustaqil ish ustida ishslashdan avval bu ishni bajarishdan maqsad, uning mazmuni, mohiyati nimada ekanligini shartli ravishda o‘zingiz uchun shakllantirib oling. Mustaqil ish bajarishda uni shunchaki bajarish (misol yechish, muammoni hal etish, taqdimot qilish)dan ko‘ra oldinga qo‘yilgan maqsad sari intilish maqsadga

muvofiqdir.

2. Oldinga qo‘yilgan maqsad sari harakat qilishda turli vazifalarni, mashqlarni bajarishda o‘zingizni sinab ko‘rish uchun yana bir necha qo‘shimcha amallarni bajaring.

3. Shundan so‘ng darslikka e’tiborni qaratib, amallarni nazariy materiallar talabiga javob berishini tekshirib ko‘ring. Alohida ahamiyatli qismlariga katta e’tibor bering.

4. Kitobdagagi nazariy materialni o‘qib, savollarga javob bering, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalaning.

5. Mavzuga oid yozma ish va taqdimotni bajaring: Kutubxonadan va Internetdan qo‘shimcha adabiyot oling; Mavzuning qoralamasini tayyorlang; Yozma ish va taqdimot rejasini tuzing; Taqdimotni himoyaga tayyorlang.

Mustaqil o‘qib-o‘rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda talabalar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

- fan (modul)lar bo‘yicha mustaqil o‘qib-o‘rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to‘liq o‘zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)-ga yo‘l qo‘ymasligi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishslash kompetentligiga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini rivojlantirishga intilishi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetensiyasini o‘zlashtirishi.

Mustaqil ishga qo‘yilgan baho (ballar) bo‘yicha e’tirozlar bo‘lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to‘rt) soat (1 sutka) davomida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

GLOSSARIY

1. **Iqtisodiy faoliyat** – bu cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda, insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan yashash vositalarini ishlab chiqarish va iste’molchiga etkazishga qaratilgan o‘zaro ta’sirda ishlaydigan turli xil faoliyat turlari majmui.
2. **Iqtisodiyot** – mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jaliklardan, xo‘jaliklararo, davlatlararo birlashmalar, korporatsiyalar, konsernlar, qo‘shma korxonalar, moliya va bank tizimlaridan, davlatlar o‘rtasidagi turli iqtisodiy munosabatlardan iborat o‘ta murakkab tizim.
3. **Ishlab chiqarish** – kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne’matlarni yaratish jarayoni.
4. **Taqsimlash** - ishlab chiqarish omillari va natijalarini iqtisodiyotning turli qismlari va sub’ektlari o‘rtasida taqsimlash jarayoni.
5. **Ayirboshlash** – jamiyat a’zolarining iqtisodiy faoliyat turlari yoki ishlab chiqarish natijalari bo‘yicha o‘zaro almashish jarayoni.
6. **Iste’mol** – ehtiyojlarni qondirish asosida mahsulot va xizmatlarning ishlatalishi jarayoni.
7. **Ehtiyoj** – bu insonning va umuman, butun insoniyatning hayoti va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ehtiyoj, yashash vositalariga bo‘lgan ehtiyoj.
8. **Moddiy ehtiyoj** – moddiy ko‘rinishdagi ne’matlar vositasida qondiriluvchi zarurat.
9. **Ma’naviy ehtiyoj** – insonning shaxs sifatida kamol topishi, dunyoqarashi va ma’naviyatining shakllanishi uchun taqozo etiladigan nomoddiy ne’mat va xizmatlarga bo‘lgan zarurat.
10. **Ehtiyojlarning o‘sib borish qonuni** – ehtiyojlarning turlari kengayib, miqdoran o‘sib, sifat jihatidan takomillashib borishi.
11. **Iqtisodiy resurslar** – tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish iste’mol jarayonlarida foydalanish mumkin bo‘lgan barcha vosita va imkoniyatlar majmui.
12. **Iqtisodiyot nazariyasining predmeti** - cheklangan iqtisodiy resurslar, qoidalar va qonunlar sharoitida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish uchun hayotiy muhim tovarlarni (va

xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan, davlat iqtisodiyotini samarali boshqarish uchun iqtisodiy munosabatlarni o'rganadi.

13. Iqtisodiy qonunlar - iqtisodiy hayotning turli jahhalari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi doimiy, takrorlanuvchi, barqaror, sabab-natijaviy munosabatlar va o'zaro bog'liqligi.

Iqtisodiy kategoriylar - doimiy takrorlanib turuvchi iqtisodiy jarayonlar va real hodisalarning alohida tomonlarini ifodalovchi ilmiy-nazariy tushunchalardir.

14. Metodologiya - bu ilmiy bilimlarning printsiplari, usullari, qoidalari va muayyan ko'nikmalari tizimi.

15. Ilmiy abstraktsiya usuli - bu tahlilga xalaqit beradigan ikkilamchi hodisalarning diqqatini chalg'itish va fikrlarni o'rganilayotgan asosiy hodisaning mohiyatiga aylantirishdir.

16. Ishlab chiqarish omillari – ishlab chiqarish jarayonida bevosita qo'llaniluvchi barcha resurslar.

17. Ishchi kuchi – insonning mehnat qilishga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi.

18. Mehnat qurollari – inson uning yordamida tabiatga, mehnat predmetlariga ta'sir qiladigan vositalar.

19. Mehnat predmetlari – bevosita mehnat ta'sir qiladigan, ya'ni mahsulot tayyorlanadigan narsalar.

20. Ishlab chiqarish jarayoni - bu insoniyat jamiyatining mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishga qaratilgan maqsadli faoliyatdir.

21. Ijtimoiy takror ishlab chiqarish - ishlab chiqarish jarayonlarining jamiyat miqyosida doimiy yangilanishi va uzlusiz amalga oshirilishi.

22. Oddiy takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish miqyoslarining o'zgarmagan holda takrorlanishi.

23. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish doirasini muntazam ravishda oshirib borishga asoslangan holdagi takrorlanishi.

24. Ishlab chiqarishning umumiyl natijasi – mamlakat bo'yicha yaratilgan yalpi ichki mahsulotning yil davomidagi yig'indisi.

25. Ishlab chiqarishning pirovard natijasi – ishlab chiqarish sohasidagi o'z harakatini tugatgan, jamiyat a'zolarining

ehtiyojlarini yoki bevosita (iste'mol fondi orqali), yoki bilvosita, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish (jamg'arish fondi) orqali qondirishga tayyor mahsulot.

26. **Sof mahsulot** – ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining tannarxi chegirib tashlanganidan keyin qolgan qismi.
27. **Zaruriy mahsulot** – ishchi va xizmatchilarining ish vaqtiga tarkibiga kiruvchi, zaruriy ish vaqtida davomida zarur mehnat hisobidan yaratilgan, mehnat kuchini saqlash va normal takror ishlab chiqarish uchun zarur bo'lган mahsulotdir.
28. **Qo'shimcha mahsulot** – sof mahsulotning zaruriy mahsulotdan ortiqcha qismi, ya'ni qo'shimcha ish vaqtida qo'shimcha mehnat bilan yaratilgan mahsulot.
29. **Qo'shimcha mahsulot massasi** – yil davomida olingan qo'shimcha mahsulotlar yig'indisi.
30. **Qo'shimcha mahsulot normasi** – qo'shimcha mahsulot massasining zaruriy mahsulotga nisbati.
31. **Ishlab chiqarish funksiyasi** – ishlab chiqarish omillari va ularning natijalari o'rtaсидаги bog'liqlikdir.
32. **Natural ishlab chiqarish** – ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish, xo'jalik ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqarish.
33. **Tovar** – biron-bir naflilikka va qiymatga ega bo'lган, ayrboshlash uchun yaratilgan mahsulot.
34. **Tovar ishlab chiqarish** – mahsulotlarni o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish, ayrboshlash uchun va boshqalarining ehtiyojini qondirish uchun ishlab chiqarish.
35. **Naflilik** – tovarning kishilarning biron-bir narsaga bo'lган ehtiyojini qondirish layoqati.
36. **Ijtimoiy zaruriy naflilik** – talab miqdoriga mos keladigan miqdordagi naflilik.
37. **Qiymat** – tovarda gavdalangan ijtimoiy-zaruriy mehnat.
38. **Almashuv qiymati** - bu bir turdag'i foydalanish qiymatlari boshqa turdag'i foydalanish qiymatlariga almashtiriladigan miqdoriy munosabatdir.
39. **Ijtimoiy zaruriy ish vaqtি** – bu ma'lum bir ijtimoiy normal ishlab chiqarish sharoitida va ma'lum bir jamiyatda o'rtacha malaka darajasi va mehnat zichligi bilan mahsulot ishlab chiqarish uchun

zarur bo‘lgan vaqt.

- 40.Qiymat qonuni** – tovar ishlab chiqarish va ayrboshlash uning qiymati asosida amalga oshishini, qiymatning o‘zi esa ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari orqali o‘lchanishini ifodalovchi sabab-oqibat bog‘liqligi.
- 41.Aniq mehnat** – ma’lum maqsadga qaratilgan, muayyan bir shaklda sarflanadigan va aniq turdagи iste’mol qiymatlarni, naflilikni vujudga keltiradigan mehnat.
- 42.Abstrakt mehnat** – turli tovarlarda gavdalangan mehnatning aniq shaklidan qat’iy nazar umuman inson mehnatining sarflanishi, ijtimoiy mehnatning bir qismi.
- 43.Mehnat unumdorligi** – aniq mehnatning vaqt birligi ichida mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatidir. U ma’lum vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt orqali o‘lchanadi.
- 44.Mehnat intensivligi** – vaqt birligi ichida mehnatning sarflanish tezligi yoki jadalligining oshib borishi.
- 45.Pul** – hamma tovarlarni sotish va sotib olish mumkin bo‘lgan umumiyliekvivalent rolini bajaruvchi maxsus tovar.
- 46.Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayrboshlash va pul muomalasi qonunlari va qoidalari asosida tashkil etiladigan va tartibga solinadigan iqtisodiy tizimdir.
- 47.Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotini amal qilishini tartibga solish va iqtisodiy jarayonlarni uyg‘unlashtirishni ta’minlaydigan dastak va vositalar.
- 48.Bozor** – bu pul orqali ayrboshlash jarayonida ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmuidir.
- 49.Bozor ob’ekti** – bular xo‘jalik faoliyati natijalari va xo‘jalik resurslari, tovarlar, pul mablag’lari va ayrboshlash munosabatlarida ishtirok etuvchi ularga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlardir.
- 50.Bozor sub’ekti** – ayrboshlash munosabatlari qatnashchisi.
- 51.Uy xo‘jaliklari** – iqtisodiyotning asosan iste’mol sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi bozorga ishchi kuchi yetkazib beruvchi asosiy tarkibiy birlik.
- 52.Tadbirkorlik sektori** – iqtisodiyotning turli sohalarida daromad (foyda) olish maqsadida faoliyat ko‘rsatuvchi birlamchi bo‘g‘ini.
- 53. Aktsiyadorlik jamiyati** – ko‘proq foyda olish maqsadida aktsiyalar

chiqarish orqali mehnat, mehnat qurorollari va boshqa ishlab chiqarish vositalari hamda pul resurs (kapital) larini birlashtirgan uyushma.

54. **Aktsiya** – bu uning egasi aktsiyadorlik jamiyati kapitaliga o‘zining ma’lum hissasini qo‘sghanligi va uning foydasidan dividend shaklida daromad olish huquqi borligiga guvohlik beruvchi qimmatli qog‘oz.
55. **Aktsiya kursi** – qimmatli qog‘ozlar bozorida aktsiya sotiladigan narx.
56. **Obligatsiya** – uni sotib olishga qo‘yilgan kapital miqdorini belgilangan foiz bilan qaytarish majburiyatini tasdiqllovchi qimmatli qog‘oz.
57. **Ta’sischilik foydasi** – sotilgan aktsiyalar va aktsiyadorlik korxonasiga haqiqatda qo‘yilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.
58. **Dividend** – aktsiya egasi o‘zlashtiradigan daromad turi.
59. **Tadbirkorlik kapitali** – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan barcha moddiy vositalar, tovarlar va pul mablag‘lari.
60. **Aylanma kapital** – unumli kapitalning bir doiraviy aylanish davomidagi ishlab chiqarish jarayonida to‘liq iste’mol qilinadigan, o‘z qiymatini yaratilgan mahsulotga to‘liq o‘tkazadigan va ashyoviy-buyum shaklini ham yo‘qotadigan qismi.
61. **Asosiy kapital** – unumli kapitalning ishlab chiqarish (xizmat ko‘rsatish) jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o‘zining qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga (xizmatga) bo‘lib-bo‘lib o‘tkazib boradigan va xizmat muddati davomida o‘zining ashyoviy-buyum shaklini o‘zgartirmaydigan qismi.
62. **Davlat sektori** – maqsadi foyda olish emas, balki asosan iqtisodiyotni tartibga solish funksiyasini amalga oshirish bo‘lgan byudjet tashkilotlari va muassasalari majmuasi.
63. **Bank** – iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.
64. **Ssuda kapitali bozori** – pul ko‘rinishidagi kapitalning foiz to‘lash sharti bilan qarzga berish bo‘yicha oldi-sotdi munosabati.
65. **Qimmatli qog‘ozlar bozori** – turli ko‘rinishdagi qimmatli

qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilar) ning oldi-sotdi munosabati.

66. **Bozor infratuzilmasi** – bu bozor aloqalarini o‘rnatish va tekshirish bir maromda amal qilishiga hizmat ko‘rsatuvchi tizimdir.
67. **Birja** – namunalar (yoki standartlar) asosida ommaviy tovarlar bilan muntazam savdoni amalga oshiruvchi savdo muassasasi.
68. **Tovar birjası** - oldindan belgilangan qoidalar asosida ulgurji savdoni tashkil etish shakli.
69. **Fond birjası** – qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdisi bo‘yicha rasmiy jihatdan tashkil etilgan va muntazam amal qiluvchi bozor shakli.
70. **Valyuta birjası** – milliy valyutalar kurslari bo‘yicha ularning erkin oldi- sotdisi amalga oshiriladigan, rasmiy jihatdan tashkil etilgan bozori shakli.
71. **Mehnat birjası** - ishchilar va tadbirkorlar o‘rtasida oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishda vositachilik qiluvchi muassasa.
72. **Broker (makler)** – bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma.
73. **Auksion** – maxsus tovarlarni sotish uchun oldindan belgilangan joyda tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan savdo muassasasi.
74. **Savdo yarmarkasi** – muayyan belgilangan vaqtida va joyda o‘tkaziluvchi hamda o‘tkazilish jarayonida ulgurji savdo bitimlari tuziluvchi tovar namunalari ko‘rgazmasi.
75. **Savdo uyi** – o‘z ichiga tashqi savdo kompaniyasi bilan bir qatorda ishlab chiqarish, bank, sug‘urta, transport, ulgurji-chakana va boshqa turdagи firmalarni oluvchi keng tarmoqli savdo kompaniyasi.
76. **Supermarket** – bu xaridorning o‘ziga - o‘zi xizmat ko‘rsatishiga mo‘ljallangan keng tarmoqli savdo korxonasi.
77. **Talab** – pul bilan ta’minlangan, to‘lovga qodir ehtiyoj; ma’lum vaqt oralig‘ida, narxlarning mavjud darajasida iste’molchilarning tovar va xizmatlar ma’lum turlarini sotib olishga qodir bo‘lgan ehtiyoji.
78. **Yakka talab** – har bir alohida iste’molchi (masalan, shaxs, oila, korxona, firma) ning tovarning shu turiga bo‘lgan talabi.
79. **Bozor talabi** – bir qancha (ko‘pchilik) iste’molchilarning shu turdagи tovar yoki xizmatga bo‘lgan talablari yig‘indisi.
80. **Talab qonuni** – tovar narxi va xarid qilinadigan tovar miqdori o‘zgarishi o‘rtasida bo‘ladigan teskari yoki qarama-qarshi

bog‘liqlik.

- 81.Talab egri chizig‘i** – narx va talab hajmining o‘zgarishi o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikni ko‘rsatuvchi egri chiziq.
- 82.Oliy toifali tovarlar** – daromadning o‘zgarishi bilan talab miqdori to‘g‘ri bog‘liqlikda o‘zgaradigan tovarlar.
- 83.Past toifali tovarlar** – daromadning o‘zgarishi bilan talab miqdori teskari bog‘liqlikda o‘zgaradigan tovarlar.
- 84.Engel qonuni** – iste’molchi daromadi bilan u tomonidan sotib olinishi mumkin bo‘lgan tovarlar miqdori o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
- 85.Taklif** – ma’lum vaqt oralig‘idagi narxlarning muayyan darajasida ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar tomonidan ma’lum turdagи tovar va xizmatlarning bozorga chiqarilgan miqdori.
- 86.Taklif qonuni** – narxning o‘zgarishi bilan taklif etilayotgan tovar miqdorining to‘g‘ri bog‘liqlikdagi o‘zgarishi.
- 87.Bozor muvozanati** – talab miqdori bilan taklif miqdori o‘rtasidagi nisbat bir-biriga teng bo‘lgan holat.
- 88.Bozor narxi** – bozor muvozanati vujudga kelgan holda shakllangan narx.
- 89.Talabning narx bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi** – talab hajmiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa omillar o‘zgarmay qolgan sharoitda narxning bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.
- 90.Talabning daromad bo‘yicha egiluvchanligi ko‘rsatkichi** – iste’molchi daromadining bir foizga o‘zgarishi talabning necha foizga o‘zgarishini ifodalovchi ko‘rsatkich.
- 91.Iste’molchining afzal ko‘rishi** – iste’molchi tomonidan o‘zi uchun turli tovarlarning naflilik darajasining baholanishi.
- 92.So‘nggi qo‘shilgan naflilik** – muayyan ne’matning navbatdagi birligini iste’mol qilishdan olingan qo‘shimcha naflilik.
- 93.Raqobat** – bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashdan iboratdir.
- 94.Tarmoq ichidagi raqobat** – ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo‘lish, yuqori foyda olish uchun bir tarmoq korxonalar o‘rtasida boruvchi kurash.
- 95.Tarmoqlararo raqobat** – turli tarmoqlar o‘rtasida eng yuqori foyda normasi olish maqsadida olib boriladigan kurash.

- 96. G‘irrom raqobat** – raqobatlashuvning noan’anaviy, jamiyat tomonidan e’tirof etilmagan, ijtimoiy ahloq qoidalari doirasidan chetga chiquvchi, noiqtisodiy (ya’ni, jismoniy kuch ishlatalish, majburlash, raqiblarning obro‘siga putur yetkazish va h.k.) usullaridan foydalanish.
- 97. Halol raqobat** – jamiyat tomonidan tan olingan iqtisodiy usullarni qo’llash, o‘zining maqsad va manfaatlariga erishishda umumjamiyat manfaatlariga zid keluvchi holatlarni qo’llamaslik kabi qoidalarga asoslangan raqobat kurashi.
- 98. Narx vositasida raqobatlashuv** – ishlab chiqaruvchilarning o‘z tovarlari narxini boshqa ishlab chiqaruvchilarning shunday mahsulotlari narxiga nisbatan pasaytirishi asosidagi kurash.
- 99. Narxsiz raqobatlashuv** – asosiy omili tovarlarning narxi emas, balki uning sifati, servis xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqaruvchi firmaning obro‘-e’tibori hisoblangan kurash.
- 100. Monopoliya** – monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalar (firma, korporatsiyalar) ning birlashmalari.
- 101. Ishlab chiqarishning to‘planishi** – ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishi.
- 102. Kapitalning to‘planishi** – qo‘srimcha qiymatning bir qismini jamg‘arish (kapitallashtirish) natijasida kapital hajmining oshishi.
- 103. Kapitalning markazlashuvi** – bir kapital tomonidan boshqa birining qo‘shib olinishi yoki bir qancha mustaqil kapitallarning aksiyadorlik jamiyatni va boshqa shakllarda ixtiyoriy birlashishi orqali kapital hajmining o‘sishi.
- 104. Sof monopoliya** – tarmoqdagi yagona ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi va binobarin, foyda olishdagi yakka hukmronlik holati.
- 105. Oligopoliya** – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati.
- 106. Monopolistik raqobat** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko‘p hamda ular o‘rtasida ma’lum darajada raqobat mavjud bo‘lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o‘z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus

xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati.

- 107. Monopsoniya** – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni juda ko‘p bo‘lib, ular ishlab chiqargan tovar yoki xizmatlarining iste’molchisi yoki xaridori yagona bo‘lgan sharoitdagi yakka hukmronlik holati.
- 108. Ish haqi** – ishchilar va xizmatchilar mehnatining miqdori, sifati va unumdorligiga muvofiq oladigan milliy mahsulot ulushini pul bilan ifodalash.
- 109. Vaqtbay ish haqi** – Bu ishlagan vaqtga (kun, hafta, oy) qarab to‘lanadigan ish haqi.
- 110. Ishbay ish haqi** – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori yoki bajarilgan ish hajmiga qarab to‘lanadigan ish haqi.
- 111. Real ish haqi** – nominal ish haqi summasiga xarid qilish mumkin bo‘lgan tovarlar va xizmatlar miqdori yoki nominal ish haqining xarid layoqati.
- 112. Nominal ish haqi** – pul shaklida olingan ish haqi summasi.
- 113. Ishbay-mukofotli haq to‘lash tizimi** – bajarilgan ish uchun haq to‘lashni erishilgan turli natija ko‘rsatkichlariga qarab mukofot berish bilan qo‘shib olib borilishini nazarda tutuvchi tizim.
- 114. Ishbay-progressiv haq to‘lash tizimi** – ishchining belgilab qo‘yilgan me’yor darajasida ishlab chiqargan mahsulotiga uning birligi uchun aniqlangan tarif bo‘yicha, me’yordan yuqori qismiga esa oshirilgan haq (tarif) bo‘yicha ish haqi to‘lanishini ko‘zda tutuvchi tizim.
- 115. Tarif tizimi** – ishchi va xizmatchilarning oylik maosh darajasini tarmoqlar va mamlakat mintaqasi orqali, ular orasida esa ishlab chiqarish turlari, turli toifadagi xodimlar malakasi va mehnat sharoitlariga qarab tartibga solib turuvchi me’yorlar majmui.
- 116. Tarif-malaka ma'lumotnomalari** – ba’zi kasblar va mehnat turlarining batafsil ta’rifi, ishchi va mutaxassislarning bilim va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan talablar, turli tavsifdagi ishlarni tariflash uchun qo‘yiladigan razryadlar majmui.
- 117. Tarif setkasi** – turli razryadlar va tarif koeffitsientlari majmui bo‘lib, ular birinchi razryadli ishchiga haq to‘lash bilan keyingi

razryadli ishchilar mehnatiga haq to‘lashning o‘zaro nisbatini ko‘rsatadi.

118. Tarif stavkalari – tegishli ravishda belgilab berilgan turli razryadga ega bo‘lgan ishchilarining mehnatiga to‘lanadigan haq miqdori majmui.

119. Mehnat shartnomalari – korxona ma’muriyati va xodimlar o‘rtasidagi mehnat munosabatlarini aks ettiruvchi va tartibga soluvchi, unda ish haqi stavkalari, qo‘srimcha ish haqi stavkalari, dam olish va tanaffus kunlari, pensiya jamg‘armasiga va sog‘lijni saqlashga ajratmalar, narxlarning o‘zgarishini hisobga olgan holda iste’mol savatchasi qiymatini tartibga solish ko‘rsatilgan hujjat.

120. Kasaba uyushmasi – ish beruvchi va ishga yollanuvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlarining shakllanishi, amalga oshirilishi va tartibga solinishida ishga yollanuvchilarining manfaatlarini himoya qiluvchi jamoat tashkiloti.

121. Makroiqtisodiyot – moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini umumiy qilib birlashtirgan milliy iqtisodiyot va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

122. Milliy hisoblar tizimi – milliy mahsulotni ishlab chiqarish, tarqatish hamda foydalanishni, turli tarmoqlar o‘rtasidagi aloqadorlikni tavsiflaydigan o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar tizimi.

123. Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – milliy iqtisodiyotda bir yil oralig‘ida vujudga keltirilgan va bevosita iste’molchilarga etib boradigan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor narxlardagi summasi.

124. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – ma’lum vaqt oralig‘ida, masalan, bir yilda shu mamlakat hududidagi barcha korxonalarda yaratilgan shu mamlakat taraqqiyoti va aholisi farovonligi yo‘lida foydalanadigan, bevosita iste’molchilarga borib yetadigan tayyor mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar yig‘indisidan iboratdir.

125. Sof ichki mahsulot (SIM) – yil davomida jonli mehnatning unumli harakati orqali yaratilgan yangi mahsulotdir.

126. Milliy daromad – yangidan vujudga keltirilgan mahsulotning puldagi ifodasi bo‘lib, hozirgi hisoblar tizimida SIMdan egri soliqlarni chiqarib tashlash yo‘li bilan aniqlanadi.

127. Shaxsiy daromad – milliy daromaddan ijtimoiy sug‘urta ajratmalari, korxona foydasidan olinadigan soliqlar va

korxonaning taqsimlanmaydigan foydasini chiqarib tashlash hamda aholi qo‘liga beriladigan ijtimoiy to‘lovlardan summasini qo‘shish yo‘li bilan aniqlanadi.

128. Nominal YaIM – joriy bozor narxlarida hisoblangan YaIM.

129. Real YaIM – narxlarning o‘zgarishini hisobga olib, o‘zgarmas yoki qiyosiy narxlarda hisoblangan YaIM.

130. Qo‘shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatidan sotib olingan va unumli iste’mol qilingan xom ashyo va materiallar qiymati chiqarib tashlangandan keyin qolgan qismining miqdori.

131. Oraliq mahsulot – ishlov berish, qayta ishlash va qayta sotish maqsadlarida sotib olingan mahsulotlar. Unga ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida qo‘llanilgan xomashyo, yonilg‘i, materiallar va boshqalar kiritiladi.

132. Pirovard mahsulot – ishlab chiqarish jarayoni tugatilgan, shaxsiy va unumli foydalanishga mos bo‘lgan mahsulotlar.

133. Xufyona iqtisodiyot – YaIMni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanishning rasmiy iqtisodiyotdan yashirin qismi.

134. Iqtisodiy inqiroz – asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning keskin tushib ketishi.

135. Iqtisodiy tsikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozdan ikkinchi inqirozga o‘tguncha qayta takrorlanib turadigan to‘lqinsimon xarakati.

136. Turg‘unlik (depressiya) – ishlab chiqarishning turg‘un holatini anglatuvchi iqtisodiy tsiklning bosqichi, bu davrda iqtisodiy faoliyatning tiklanishi uchun shart-sharoitlarning paydo bo‘lish imkoniyati yaratiladi.

137. Jonlanish – iqtisodiy tsiklning ishlab chiqarish darajasi barqaror jonlanib borishiga o‘tishini tavsiflovchi fazasi.

138. Yuksalish – bu iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishish, ishlab chiqarishning inqirozgacha bo‘lgan darajadan oshib ketishi va samarali talabning kengayishi bilan tavsiflangan iqtisodiy tsiklning bosqichidir.

139. Tarkibiy inqirozlar – iqtisodiyotning ba’zi tarmoqlari va sohalari rivojlanishi natijasidagi chuqur nomutanosibliklarni ifodalovchi iqtisodiy holat.

140. Agrar inqirozlar – qishloq xo‘jaligida ro‘y beradigan iqtisodiy inqirozlar bo‘lib, tsikilli tavsifga ega bo‘lmaydi va sanoat

tsikllariga nisbatan ancha uzoq davom etadi.

141. **Ishchi kuchi** – insonning mehnatga bo‘lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig‘indisi.
142. **Ishchi kuchini takror hosil qilish** - bu iqtisodiyotda to‘liq bandlikka erishish, ishlab chiqarishning inqirozgacha bo‘lgan darajadan oshib ketishi va samarali talabning kengayishi bilan tavsiflangan iqtisodiy tsiklning bosqichidir.
143. **Yalpi ishchi kuchi** - bu qiymat va foydalanish qiymatini yaratishda ishtirok etuvchi va bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda harakat qiladigan jamiyat yoki yagona mamlakat miqyosidagi ishchi kuchlarining umumlashtirilgan majmui.
144. **Ishchi kuchi talabi** - turli ish beruvchilar tomonidan ish haqining hozirgi darajasida mehnat miqdori va sifatiga qo‘yiladigan talab.
145. **Ishchi kuchi taklifi** - bu ish haqining hozirgi darajasida ma’lum bir vaqtda ishga olishga tayyor bo‘lgan mehnatga layoqatli mehnat miqdori.
146. **Aholining tabiiy o‘sishi** - bu emigratsiya va immigratsiyani hisobga olmaganda, aholining harakatlanishi.
147. **Ishsizlik** – ishslashga tayyor, lekin ish bilan ta’minlanmagan mehnatga layoqatli ishchi kuchi.
148. **Friksion ishsizlik** – malakasiga mos ish qidirayotgan va ish o‘rinlar bo‘shashini kutayotganlarni namoyon etuvchi ishsizlik.
149. **Tarkibiy ishsizlik** – ishlab chiqarish tarkibi va yalpi talabning o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan ishsizlik.
150. **Tsikllik ishsizlik** – iqtisodiy tsiklning inqiroz bosqichida yuzaga keladigan ishsizlik.
151. **Ishsizlik darajasi** – ishsizlar sonining umumiyligi ishchi kuchiga nisbatan ulushi.
152. **Oukan qonuni** – ishsizlik darajasi va YaIM hajmining orqada qolishi o‘rtasidagi nisbatning matematik ifodasi.
153. **Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish** – davlatning jamiyat a’zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta’minlovchi, umumiyligi iqtisodiy muvozanatga erishishga yo‘naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo‘yicha faoliyati.

- 154. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi** – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy tizimni mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashtirish.
- 155. Davlatning iqtisodiy vazifalari** – bu iqtisodiy tizimning faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlardir.
- 156. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari** – tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari birligi.
- 157. Bevosita usullar** – taqiqlovchi, ruxsat beruvchi va majburlovchi xarakterdagi iqtisodiyotni tartibga solishning ma'muriy vositalari.
- 158. Bilvosita usullar** – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.
- 159. Jahon xo'jaligi** – xalqaro mehnat taqsimoti asosida savdo-ishlab chiqarish, moliyaviy va ilmiy-texnikaviy va boshqa aloqalar orqali o'zaro manfaatdorlik maqsadida birlashgan turli mamlakatlar xo'jaliklari tizimi.
- 160. Ishlab chiqarish yoki iqtisodiy hayotning baynalmallashuvi** – mamlakatlarning jahon miqyosida iqtisodiy aloqalarining kuchayishi hamda iqtisodiy munosabatlarning tobora kengroq jahbalarini qamrab olish jarayoni.
- 161. Xalqaro mehnat taqsimoti** – alohida olingan mamlakatlarning tovar va xizmatlarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.
- 162. Globallashuv** – jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog'ining tashkil topishi va rivojlanishi.
- 163. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar** – jahonning turli mamlakatlari o'rtasidagi xo'jalik aloqalari majmui.
- 164. Kapitalning xalqaro harakati** – kapitalning chet elda joylashtirilishi va harakat qilishi.
- 165. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi** – ishchi kuchi resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishi.
- 166. Emigratsiya** – aholining bir mamlakatdan doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga chiqib ketishi.
- 167. Immigratsiya** – aholining shu mamlakatga doimiy yashash uchun kirib kelishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mirziyoyev Sh.M. «Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. Toshkent “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021 y. – 464 b.
2. H.Mamedov, N.Mo‘minov, A.Umarov, A.Ismoilov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. T.: 2022 yil. 441 b.
3. Z.T.G‘ainazarova, Sh.A. Isamuxametov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2020 yil. T.: 528 b.
4. Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent-2020. 794 b.
5. М.П.Эшов, Б.Д.Хажиев, Б.Э.Мамарахимов, Л.Ф.Амиров. Экономическая теория. Учебник. Санк - Петербург.-2021. стр. 552.
6. Sh.Shodmonov, M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining ikki chigal tuguni va uning echimi. Monografiya. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil
7. Ш.Ш.Шодмонов, М.М.Мухаммедов, Н.А.Камилова. Экономическая теория. Учебник для вузов. Ташкент - 2020. 421 стр.
8. И.К. Станковская, И.А.Стрелец. Экономическая теория. Учебник. Ростов на Дону.-2017 430 стр.
9. Jo‘rayev T.T. “Iqtisodiyot nazariyasi ” fanidan testlar to‘plami. – Т.: TMI, 2014. – 316 b.
10. K.Tajibayev NamDU “Iqtisodiyot” kafedrasi katta o‘qituvchisi “Iqtisodiyot nazariyasi fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua” Namangan 2022. 656 b.
11. T.Jo’raev, D.Tojibaeva Iqtisodiyot nazariyasi (ko‘rgazmali va tarqatma materiallar) –Т.: “Fan va texnologiya” 2012. 333 b.
12. Мамарахимов Б.Э. Теоретические аспекты воспроизводства рабочей силы // Экономика и предпринимательство. № 7 (120) 2020 г. с. 1124
13. D.Tojiboyeva Iqtisodiyot nazariyasi. To‘ldirilgan, 2-nashr o‘quv qo‘llanmasi. TMI., T.: 2005 y. 438 b.
14. T.T.Jo‘rayev Iqtisodiyot nazariyasi.-Т.: “Fan va texnologiyalar”, 2018 y. 512 b.

15. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan Ishchi daftar: noiqtisodiy yo‘nalishlari uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: 2017. 275 b.

16. Ф.З. Мичурина Экономическая теория: учебное пособие, Пермь.: ИПЦ «Прокрость», 2021. – 396 с.

Internet saytlari

1. www.press-service.uz –O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot hizmati.
2. www.gov.uz –O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.
3. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
4. www.edu.uz –O‘zbekiston Respublikasi oliy talim,fan va inovasiya vazirligi portal.
5. www.stat.uz –O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Davlat statistika agentligi rasmiy sayti.
6. www.cbu.uz –O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
7. www.mineconomy.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya Vazirligi rasmiy sayti.
8. www.imv.uz –O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy sayti.
9. www.norma.uz –O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi sayti.
10. www.tsue.uz – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy sayti.
11. www.tradingeconomics.com-экономические показатели
12. www.ereport.ru –Обзорная информация по мировой экономике.
13. www.catback.ru – Научные статьи учебные материалы по экономике
14. Кроссворд по предмету “Основы экономики” <https://spisok-literaturi.ru/cross/kategorii-gotovyh-crossvordov/ekonomika/milliy-iqtisodiyot-uzb.html>
15. Back to Basics: economic Conceptsexplained Finance& Development International Monetary Fund, 2017, 81p. <https://books.google.co.uz/books?id>

MUNDARIJA.

KIRISH.....	3
1-MAVZU. IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING PREDMETI VA O'RGANISH USULLARI.....	6
2-MAVZU. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI VA UNING NATIJALARI.....	13
3- MAVZU. TOVAR-PUL MUNOSABATLARI - BOZOR IQTISODIYOTINING ASOSIDIR.....	19
4-MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINING MAZMUNI VA AMAL QILISHI....	25
5- MAVZU. TALAB VA TAKLIF NAZARIYASI. BOZOR MUVOZANATI.....	33
6- MAVZU. RAQOBAT VA MONOPOLIYA.....	43
7- MAVZU. TADBIRKORLIK FAOLIYATI VA TADBIRKORLIK KAPITALI..	51
8- MAVZU. ISH HAQI VA MEHNAT MUNOSABATLARI	58
9- MAVZU. MILLIY IQTISODIYOT VA UNING MAKROIQTISODIY O'LCHAMLARI. YALPI MILLIY MAHSULOT VA UNING HARAKAT SHAKLLARI.....	65
10- MAVZU. IQTISODIYOTNING SIKLLILIGI VA MAKROIQTISODIY BEQARORLIK	71
11- MAVZU. BOZOR IQTISODIYOTINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING ROLI	82
12- MAVZU. JAHON XO'JALIGI VA UNING EVOLYUTSIYASI.....	86
AMALIYOT UCHUN MISOLLAR TO'PLAMI.....	91
KEYSNI YARATISH USULI.....	93
FANDAN NAZORAT SAVOLLARI.....	97
FANDAN TEST SAVOLLARI.....	103
TALABALARING MUSTAQIL ISH MAVZULARI TO'PLAMI VA UNGA QO 'YILGAN TALABLAR.....	123
GLOSSARIY.....	126
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TO'PLAMI.....	139

Kambarova Sh.M.

**Iqtisodiyot nazariyasi
fanidan**

**MASHQ VA MASALALAR TO‘PLAMI
O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA**

Bichimi 60x84 1/16. Rizograf bosma usuli. Times garniturasи.

Shartli bosma tabog‘i: 8,75. Adadi 100. Buyurtma № 39.

Bahosi kelishilgan narxda.

«O‘zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasida chop etilgan.

Bosmaxona manzili: 100170, Toshkent sh., Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy.

«Fan ziyosi» nashriyoti.